

# DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

10

## O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2023



### Mualliflar:

**X. Tuychiyeva, V. Kostetskiy, B. Xodjayev, O. Abdug'aniyev, O. Shernayev,  
M. Axmedova, S. Tilavova, Z. Amonova**

### Taqrizchilar:

- A. F. Ismailov** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent.
- N. M. Akayeva** – TDPU ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
- S. Z. Turaxanova** – Toshkent shahri Yashnabod tumanidagi 227-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining davlat va huquq asoslari fani oliy toifali o'qituvchisi.
- O. I. Orziyev** – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 265-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining davlat va huquq asoslari fani oliy toifali o'qituvchisi.
- N. N. Hasanboyeva** – Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi 197-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining davlat va huquq asoslari fani oliy toifali o'qituvchisi.
- D. T. Xodjayeva** – Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining davlat va huquq asoslari fani 1-toifali o'qituvchisi.
- L. H. Quvvatov** – Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining davlat va huquq asoslari fani oliy toifali o'qituvchisi.

Adliya vazirligining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

Original maket va dizayn konsepsiyasi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.



## MUNDARIJA

### I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI

1–2-dars. Jamiyatda inson huquqlarining o'рни.....	10
3–4-dars. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi .....	16
5-dars. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi.....	22
6-dars. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya .....	27
7-dars. Inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik.....	31
8-dars. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar .....	36
9-dars. Ijodiy faoliyat.....	41

### II BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

10-dars. Jamiyatda oilaning o'рни.....	45
11–12-dars. Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari .....	49
13-dars. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi.....	54
14-dars. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari .....	61
15-dars. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari .....	66
16-dars. Ijodiy faoliyat.....	73

### III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR

17-dars. Fuqarolik huquqi asoslari .....	78
18–19-dars. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari .....	83
20-dars. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar .....	87
21-dars. Majburiyatlar.....	91
22-dars. Majburiyatlarning turlari.....	96
23-dars. Iste'molchilar huquqlari.....	100
24-dars. Intellektual mulk.....	105
25-dars. Vorislik.....	110
26-dars. Ijodiy faoliyat.....	114

### IV BOB. O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT

27-dars. Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi .....	118
28-dars. Xalqaro huquq .....	122
29-dars. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik .....	128
30-dars. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari .....	132
31-dars. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o'рни.....	137
32-dars. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi.....	141
33-dars. O'zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar .....	148
34-dars. Ijodiy faoliyat.....	152



“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”.

**Shavkat Mirziyoyev**

### **Kirish**

Ta’lim tizimida sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, o‘quvchi yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqiy madaniyatini oshirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish muhim hisoblanadi.

Mazkur qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Milliy o‘quv dasturini zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish, ilg‘or xalqaro va xorijiy tajribalar, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘shib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishga qaratilgan. Unda o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish orqali ta’lim sifati oshirish maqsadida motivatsion va innovatsion yechimlarini qo‘llash, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Metodik qo‘llanmada o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalari, ya’ni bilim olish ehtiyojini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hayotiy vaziyatlarda ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish imkonini beruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarini keltirmoqdamiz. Ushbu uslubiy qo‘llanmani yaratishdan maqsad ta’lim sifati va samaradorligini ko‘tarish, yangi milliy o‘quv dasturini, standartlarni o‘zlashtirishni kafolatlashdir.

Ta’kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiyalar va metodlarning natijaviyligi uni qo‘llayotgan o‘qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog‘liqdir. O‘qituvchining kasbiy mahorati, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlari, ta’lim muhiti hamda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda to‘g‘ri yondashilgan, tanlangan va qo‘llanganda ko‘zlangan pedagogik maqsadga erishish imkonini beradi.

O‘qituvchi metodik qo‘llanmasi maktab o‘qituvchilariga uslubiy yordam berish, ularni yangi sharoitda bolalarga do‘stona munosabatda bo‘lishga tayyorlash, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan.

## DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DASTURI

### Kirish.

### I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI

#### 1-2. Jamiyatda inson huquqlarining o'рни.

Jamiyat, shaxs va inson huquqlari tushunchasi. Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg'unligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari kafolati.

#### 3-4. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi.

Shaxsning huquqiy maqomi (holati). Tenghuquqlilik. Gender tenglik. Zo'ravonlikning oldini olish.

#### 5. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi.

"Huquq ustuvorligi" tushunchasi. Huquq ustuvorligi – inson huquqlarini ta'minlashning garovi. Inson huquqlari madaniyati.

#### 6. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasi. Aholini ijtimoiy himoyalash. Ijtimoiy himoyalashda insonparvarlik tamoyilining o'рни.

#### 7. Inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik.

Milliy qonunchilik tizimi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro mezonlarning milliy qonunchilikda aks etishi. Axborot davrida inson huquqlarining himoyasi.

#### 8. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar.

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari tizimi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning ahamiyati. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'рни.

#### 9. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.

### II BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

#### 10. Jamiyatda oilaning o'рни.

Oila – jamiyat tayanchi. Jamiyatda oilaviy munosabatlarni tartibga solish. Oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi.

#### 11-12. Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari.

"Nikoh" tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh tuzish tartibi. Nikohni tuzishga monelik qiladigan holatlar. Nikoh tugatilishining oqibatlari.

#### 13. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi.

Er-xotin huquqiy maqomining vujudga kelishi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari. Oilada ota-onaning huquq va majburiyatlari.

#### 14. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari.

Bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Bola huquqlari va uning kafolatlari. Farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari.

#### 15. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari.

"Aliment" tushunchasi. Aliment turlari. Bolalarga va ota-onalarga beriladigan ta'minot.

#### 16. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.

### III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR

#### 17. Fuqarolik huquqi asoslari.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi. "Bitimlar" tushunchasi.



**18-19. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari.**

Fuqarolik huquqida “shaxslar” tushunchasi. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari. Fuqarolik-huquqiy munosabat obyektlari.

**20. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar.**

“Mulkiy munosabatlar” tushunchasi. Mulk shakllari. Nomulkiy munosabatlar va ularning huquqiy asoslari

**21. Majburiyatlar.**

“Majburiyat” tushunchasi. Majburiyatning taraflari. Majburiyatlarning vujudga kelishi va bajarilishi.

**22. Majburiyatlarning turlari.**

Shartnomada majburiyatlarning ifodalanishi. Shartnomalarning ayrim turlari.

**23. Iste'molchilar huquqlari.**

“Iste'molchilar” tushunchasi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari.

**24. Intellektual mulk.**

“Intellektual mulk” tushunchasi. Intellektual mulk obyektlari. Mualliflik huquqi.

**25. Vorislik.**

“Vorislik” tushunchasi va vorislik huquqi. “Meros” va “merosxo'rlik” tushunchasi. Vasiyatnomaning huquqiy asoslari.

**26. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.**

#### **IV BOB. O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT**

**27. Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi.**

Xalqaro hamjamiyatning o'ziga xosligi. Xalqaro hamjamiyatning tuzilishi. Xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi omillar.

**28. Xalqaro huquq.**

Xalqaro huquqning vujudga kelishi va o'ziga xos jihatlari. Xalqaro huquqning maqsadi. Xalqaro huquqning manbalari. Xalqaro huquq va milliy huquq.

**29. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik.**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo'lishi. Xalqaro hamjamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi.

**30. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari.**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlari. Bola huquqlarini himoya qilishda BMTning faoliyati.

**31. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni.**

O'zbekistonning tashqi siyosati. O'zbekistonning xalqaro hamkorligi.

**32. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi.**

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish. Fuqarolikni yo'qotishning huquqiy asoslari. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari.

**33. O'zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar.**

O'zbekiston o'z fuqarolarini chet elda himoya qilishi. Chet el fuqarolarining huquqlari. Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning himoyalaniishi.

**34. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.**

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI**  
(haftasiga 1 soatdan, jami 34 soat)

**MAVZUVIY REJALASHTIRISH**

T/r	Boblar nomi	Jami	Nazariy darslar	Ijodiy faoliyat	Nazorat ishi
1	Kirish				
2	Jamiyat va inson huquqlari	9	5	1	1
3	Oilaviy-huquqiy munosabatlar	7	4	1	1
4	Fuqarolik-huquqiy munosabatlar	10	6	1	1
5	O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat	8	4	1	1
	Jami	34	19	4	4

Darslar tartibi	Bo'lim va mavzu nomi	Soat	Taqvimiy muddat	Izoh
<b>I CHORAK</b>				
<b>I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI</b>				
1–2-dars	Jamiyatda inson huquqlarining o'рни	1		
3–4-dars	Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi	1		
5-dars	Inson huquqlari va huquq ustuvorligi	1		
6-dars	Inson huquqlari va ijtimoiy himoya	1		
7-dars	Inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik	1		
8-dars	Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar	1		
9-dars	Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi	1		
<b>II CHORAK</b>				
<b>II BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR</b>				
10-dars	Jamiyatda oilaning o'рни	1		
11–12-dars	Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari	1		
13-dars	Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi	1		
14-dars	Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari	1		
15-dars	Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari	1		
16-dars	Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi	1		



<b>III CHORAK</b>				
<b>III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR</b>				
<b>17-dars</b>	Fuqarolik huquqi asoslari	1		
<b>18–19-dars</b>	Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari	1		
<b>20-dars</b>	Mulkiy va nomulkiy munosabatlar	1		
<b>21-dars</b>	Majburiyatlar	1		
<b>22-dars</b>	Majburiyatlarning turlari	1		
<b>23-dars</b>	Iste'molchilar huquqlari	1		
<b>24-dars</b>	Intellectual mulk	1		
<b>25-dars</b>	Vorislik	1		
<b>26-dars</b>	Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi	1		
<b>IV CHORAK</b>				
<b>IV BOB. O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT</b>				
<b>27-dars</b>	Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi	1		
<b>28-dars</b>	Xalqaro huquq	1		
<b>29-dars</b>	Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik	1		
<b>30-dars</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari	1		
<b>31-dars</b>	O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o'рни	1		
<b>32-dars</b>	O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi	1		
<b>33-dars</b>	O'zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar	1		
<b>34-dars</b>	Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi	1		



# I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI





**“Huquq to‘g‘risida”gi petitsiya.** 1628-yilning may oyi oxirida ingliz parlamenti qiroli Karl I ga fuqarolarning qadimgi huquqlari va ozodliklarini tasdiqlovchi hujjat – “Huquq to‘g‘risidagi petitsiya” nomli qonun loyihasini taqdim etdi. 1628-yil 7-iyunda qiroli “Huquq to‘g‘risidagi petitsiya”ni tasdiqladi va u qonunga aylandi. Hujjat matni xalq orasida tarqatish uchun g‘oyat katta tirajda bosildi. Angliyada ommaviy xursandchilik boshlandi. Shundan keyin jamoalar palatasi qirolga harbiy ehtiyoj uchun moddiy yordam ajratdi.

**“Xabeas korpus akt”.** Anglo-sakson huquq oilasining muhim institutlaridan biri bo‘lgan “Xabeas korpus akt” ham dastlab milliy huquqda paydo bo‘lib, so‘ngra xalqaro darajada umume‘tirof etilgan hujjat sifatida tan olingan. U inson huquqlarini sud orqali himoya qilishga oid jahon mamlakatlari qonunchiligining fundamental asosini tashkil etib, ushbu soha rivoji yo‘lida o‘ziga xos yangi davrga asos solgan.

“Xabeas korpus” o‘z nomini sudyaning ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni sudga olib kelish to‘g‘risidagi buyrug‘ining birinchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, “Habeas corpus ad subjiciendum”, ya‘ni “sen shaxsni sudga olib kelishga majbursan” degan ma‘noni anglatadi. Bu tartibot XV asrlardayoq paydo bo‘lgan va 1679-yil 26-mayda Angliya parlamenti tomonidan qonuniy rasmiylashtirilgan. Hozirgi kunda ushbu hujjat dunyoning hamma qismlarida, eng avvalo, anglo-sakson huquq tizimida va Lotin Amerikasi mamlakatlarida erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida keng tarqalgan.

**“Huquqlar to‘g‘risidagi bill”.** AQSH konstitutsiyasini qabul qilayotgan mualliflar uning mukammal bo‘lmasligi va unga qachondir o‘zgartirish kiritilishi mumkinligini avval boshdan yaxshi tushunishgan. Shu sabab 5-moddada konstitutsiyaga o‘zgartirish va tuzatishlar kiritish tartibi belgilanadi. Unga ko‘ra, taklif qilinayotgan tuzatish Vakillar palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)da deputat va senatorlarning uchdan ikki qismi tomonidan ma‘qullanib, shtatlar qonun chiqaruvchi organlarining to‘rt dan uch qismi (50 shtatdan 38 tasida) tarafidan ratifikatsiya qilingan taqdirdagina konstitutsiyaga kiritilishi belgilab qo‘yiladi.

AQSH konstitutsiyasiga kiritilgan dastlabki 10 ta o‘zgartirish “Huquqlar to‘g‘risidagi bill” deb nomlanib, 1791-yili ratifikatsiya qilingan. Uning muallifi “AQSH konstitutsiyasi otasi” deb tilga olinuvchi Jeyms Madisondir.

Konstitutsiyaga kiritilgan eng muhim va mashhur birinchi tuzatish AQSHda din, so‘z, matbuot erkinligi, namoyish va hukumatga qarshi petitsiyalar o‘tkazish huquqlariga daxl qiluvchi har qanday qonun qabul qilishni ta‘qiqlaydi. Ushbu huquq va erkinliklar Mustaqillik deklaratsiyasida nazarda tutilgan inqilobiy xalq hokimiyati g‘oyasining markazida turadi.

**Amerika Virginiyasi huquqlari deklaratsiyasi.** 1776-yilda Virginiyada ikkita asosiy konstitutsiyaviy hujjat qabul qilingan: 12-iyunda Virginiya huquq deklaratsiyasi, 29-iyunda shtatlar konstitutsiyasi. Nafaqat umumamerika, balki Yevropada mashhurlikka erishgan Virginiya huquq deklaratsiyasi yetuk yurist Jorj Meyson tomonidan yozilgan.

Virginiya deklaratsiyasi davlat huquqining asosiy normalari to‘plamidir. Jorj Meysonning fikriga ko‘ra, huquq faqat ma‘lum bir hudud va bir hukumat ostida, yagona siyosiy makon va iqtisodiy muhitda yashashni maqbul holat deb hisoblaydigan ko‘p sonli kishilar jamoasi muhitida mavjud bo‘lishi va amal qilishi mumkin.

**Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi** – Buyuk fransuz inqilobining siyosiy manifesti. 1789-yil 26-avgustda Ta‘sis majlisida qabul qilingan. Shaxs, so‘z, vijdon erkinligini, fuqarolarning qonun oldida tengligini, zulmga qarshilik ko‘rsatish, xususiy mulk daxlsizligini asosiy huquqlar sifatida e‘tirof etgan.



**Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik deklaratsiyasi.** AQSH mustaqillik deklaratsiyasi – 1876-yilda Shimoliy Amerikadagi Angliya mustamlakalarida milliy ozodlik urushi davom etayotgan paytda qabul qilingan hujjat. Unda Shimoliy Amerikaning Angliya qo'l ostidan ajralib chiqqanligi va yangi, mustaqil AQSH davlati tashkil topganligi e'lon qilindi. Hujjat loyihasini milliy ozodlik harakati arboblardan Tomas Jefferson tayyorlagan. Ushbu deklaratsiyada xalqlarning mustaqilligi g'oyasi, barcha kishilar qonun oldida teng hamda “yashash, erkin, ozod bo'lish va baxt-saodatga intilish” huquqiga ega ekanligi baralla ifodalandi. U inson huquqlarining ilk deklaratsiyasi sifatida katta tarixiy ahamiyat kasb etdi, jahon bo'ylab mustabidlikka qarshi kurashga da'vat bo'lib yangradi.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi** – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari qayd etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada “insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi” ekanligi e'lon qilingan. Unga ko'ra, umum rioya qilishi shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

**Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt.** U Nyu York shahrida **1966-yil 16-dekabr** kuni qabul qilingan va **1976-yil 3-yanvar** kuni kuchga kirgan. Xalqaro pakt O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

Xalqaro pakt 31 moddadan iborat bo'lib, unda quyidagi asosiy normalar belgilangan: xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi; mehnat qilish huquqi; adolati va qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqi; kasaba uyushmalarini tashkil etish va ish tashlash huquqi; ijtimoiy ta'minot huquqi; oila, onalik va bolalikni himoya qilish; yetarli darajada turmush darajasiga bo'lgan huquq (uy-joy va oziq-ovqatga bo'lgan huquq); jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga yetish huquqi; ta'lim olish huquqi; majburiy bepul umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish; madaniy hayotda ishtirok etish, ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish va o'z ijodi bilan bog'liq manfaatlarni himoya qilish huquqi.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.

Intellekt xarita – namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellekt xaritalarni o'qitish jarayonida qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan. T. Byuzen o'zining “Superthinking” asarida intellekt xaritaning quyidagi tafsilotlarini aniqlashtirgan: 1) asosiy fikr, muammo yoki so'z markazga joylashtiriladi (rasm, belgi yoki so'z ko'rinishida); 2) rasmlar markaziy fikrni ifodalashi kerak; 3) har bir tarmoq turli rang bilan belgilanishi kerak; 4) xaritani tayyorlashda faqat rangli qalam yoki markerlardan foydalaniladi; 5) asosiy tarmoqlar markazdagi asosiy tushuncha bilan bog'lanadi, kichik tarmoqlar esa asosiy


tarmoqlarga bog'lanadi; 6) har bir tarmoqqa faqat birgina kalit so'z yoziladi; 7) intellekt xaritaning tuzishda assotsiativ tushunchalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Intellekt xaritalarni qog'ozda ham chizish mumkin. Odatda mazkur usul intellekt xarita ko'rinishida axborotlarni aks ettirish ko'nikmasini shakllantirishning dastlabki bosqichida qo'llanadi. Mazkur usul uncha katta hajmga ega bo'lmagan axborotlarni tasvirlash uchun qulay, biroq qog'oz variantda qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish qiyin. Shuning uchun kompyuter dasturlari yordamida intellekt xaritalarni tasvirlashga o'tish maqsadga muvofiq. Kompyuter dasturlari asosida tuzilgan intellekt xaritalarni tahrir qilish, kengaytirish, yangi axborotlarni qo'shish, xaritalar tizimini yaratish, axborotni gipermatn ko'rinishida taqdim etish, intellekt xaritaning ishlab chiqish bo'yicha jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish mumkin.

Hozirgi vaqtda intellekt xaritalarni tuzish bo'yicha ko'plab kompyuter dasturlari mavjud va ularni tekinga yuklab olish mumkin:

- 1) onlayn rejimda intellekt xarita (mind maps) tuzish uchun Google korporatsiyasining "Soggleot" ilovasi. Xaritalarni .pdf va .png formatda yuklab olish imkonini beradi.
- 2) xmind (<http://www.xmind.net/>);
- 3) FreeMind (<http://freemind.sourceforge.net/>);
- 4) MindMeister (<https://www.mindmeister.com/ru>), intellekt xaritalarni chizish uchun onlayn-xizmat, oflayn rejimda ham ishlash imkoniyati mavjud;
- 5) EDraw (<https://www.edrawsoft.com/freemind.php>).

"Jamiyatda inson huquqlarining o'rni" mavzusidagi intellekt xarita namunasi quyida keltirib o'tilgan.





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun **“Erkin yozish” topshirig'i** beriladi.

“Erkin yozish” metodini qo'llash tartibi: o'quvchilardan daftarlariga 3 minut vaqt ichida inson huquqlariga doir o'z tasavvurlarini to'xtamasdan yozish so'raladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylab o'tirmasdan yozish aytiladi. Agar hech qanday fikr miyaga kelmasa, tasavvurini rasm ko'rinishida tasvirlash mumkinligi ta'kidlab o'tiladi (shunda biror fikr esga tushishi mumkin). Uch daqiqadan so'ng vaqt tugagani aytiladi va bir daqiqa sukut saqlanadi (chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda paydo bo'ladi). Keyin o'quvchilardan ruchkalarini parta ustiga qo'yish va daftarlariga yozganlarini navbati bilan o'qib berish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun “Tushunchalarni aniqlash” metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:


- o'quvchilardan matn bilan tanishib chiqish so'raladi;
- matn bilan tanishish jarayonida o'zi uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftariga yozish so'raladi;
- belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan daftarga yozgan tushunchalarini o'qib berish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi. Bunda darslikdagi savol va topshiriqlarni o'zaro uyg'un tarzda aniq va tushunarli bayon etish talab etiladi. Intellekt xarita o'quvchilarga o'rganilayotgan masalani assotsiatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkonini beradi.

### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga “Nima uchun?” chizmasini to'ldirish topshiriladi



“Nima uchun” chizmasi – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri hisoblanadi. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1) o‘quvchilar daftarlariga chizmani namuna asosida mustaqil chizishlari va to‘ldirishlari mumkin. Bunda muammoning asosiy sabablarini aniqlash va ular bilan bog‘liq kichik sabablar orasida bog‘lanish hosil qilishni tushuntirish lozim;

2) topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa yetarli. Uni uyda yoki bo‘sh vaqtda davom ettirishga qiziqish uyg‘otish o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi;

3) vaqt tugagach, 3–4 nafar o‘quvchidan o‘zlari aniqlagan sabablarni o‘qib berish va qolganlardan boshqa fikrlar bo‘lsa, aytishni so‘rash mumkin.

**III.2. Mustaqil ish topshirig‘ini bajartirishga doir ko‘rsatmalar:**

1) o‘quvchilarga uyda mustaqil ravishda “Inson va jamiyat manfaatining uyg‘unligi” mavzusida kichik esse yozish topshirig‘i beriladi.

Esse – aniq bir masala bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarni ifoda etuvchi, katta hajmda bo‘lmagan va erkin uslubda yoziladigan ijodiy ish.

2) Esse yozishga doir quyidagi qoidalar o‘quvchilarga tushuntiriladi:

• o‘zlashtirgan bilimlari asosida tanlangan mavzu bo‘yicha o‘zlarining erkin mulohazalarini yozish;

• o‘z fikrini asoslash uchun albatta argument keltirib o‘tish;

• fikrlar yuzasidan umumiy xulosa chiqarish;

• Esse hajm jihatidan 200–300 so‘zdan oshib ketmasligi kerak.





## 3–4-DARS. JAMIYATDA SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

“V”	“+”	“-”	“?”
<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>

- “V” – men biladigan ma'lumotlar;
- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqda men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek, huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – Toshkent, 2012. – 304 b.

2. M. X. Rustamboyev, M. B. Usmonov va boshqalar. Inson huquqi – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 440 b.

3. Sh. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish. 2022. 248 b.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil.

2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2019-yil 2-sentyabr, O'QRQ-562-son.


**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.

### DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI


#### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish maqsadida “Toifalash” metodi topshirig'ini berish tavsiya qilinadi.

Metod o'quvchilarni mavzuning muhim xususiyat, jihatlarini aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi. U orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'quvchilar quyidagilarga e'tiborni qaratadi:



### Mashg'ulotlarda metoddan foydalanish tartibi quyidagicha



### Toifalash jadvali uchun topshiriq (namuna)

JAMIYATDA SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI			
Shaxsiy huquqlar	Siyosiy huquqlar	Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar	Fuqarolarning burchlari



JAMIYATDA SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI			
Shaxsiy huquqlar	Siyosiy huquqlar	Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar	Fuqarolarning burchlari
Yashash	Saylash	Mulkdor bo'lish	Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish
Erkinlik	Saylanish	Mehnat qilish, kasb tanlash, dam olish	Boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish
Shaxsiy daxlsizlik	Referendumda ishtirok etish	Ijtimoiy ta'minot olish	Tarixiy merosni asrab avaylash
Sudda himoyalani	Siyosiy partiyaga a'zo bo'lish	Ta'lim olish	Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish
Shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalani	Miting, yig'ilishlarda ishtirok etish	Tibbiy xizmatdan foydalanish	Soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash
Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi	Ariza, shikoyatlar bilan murojaat qilish	Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi	Harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilarga darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olish uchun "Qiyosiy tahlil" jadvali bilan ishlash tavsiya etiladi. Jadval bilan ishlash tartibi quyidagicha:

- o'quvchilardan matn bilan tanishib chiqish so'raladi;
- matn bilan tanishish jarayonida tayanch tushunchalar aniqlanib, jadvalga qayd etib boriladi;
- belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilar jadvalda yozgan tushunchalarini o'qib berishlari kerak.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchi o'qigandan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

Masalan:

### Qiyosiy tahlil jadvali uchun topshiriq


Jamiyatda shaxs huquqiy maqomi	
Jamiyatda shaxs huquqiy maqomining o'rne	Shaxs huquqiy maqomining shaxs hayotidagi o'rne
1	
2	
3	
4	
5	



**Namuna:**

<b>JAMIYATDA SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI</b>		
	<b>Jamiyatda shaxs huquqiy maqomining o'rne</b>	<b>Shaxs huquqiy maqomining shaxs hayotidagi o'rne</b>
<b>1</b>	Jamiyatning shaxslar bilan o'zaro munosabat o'rnatishi	Shaxs huquq va erkinligi, majburiyati hamda burchlarini amalga oshira olish imkoniyati mavjudligi
<b>2</b>	Davlatning shaxslar bilan o'zaro munosabat o'rnatishi	Shaxs huquqiy maqomining davlat munosabatiga ta'sir qilishi
<b>3</b>	Shaxsning huquq va erkinliklari qonundan himoya qilinmasa, demokratik davlatni barpo etish mumkin emas	Shaxsning huquqiy holati fuqarolik masalasi bilan bog'liqligi
<b>4</b>	Shaxsning huquq va erkinliklari inson huquqlarining eng muhim omili hisoblanadi	Fuqarolarning davlat, qonun, sud oldida teng huquqliligi
<b>5</b>	Jamiyatda shaxs bilan davlat o'rtasida o'rnatilgan munosabat shaxsning huquqiy maqomiga ta'sir qiladi	Oilada, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda teng bo'lib yashash
<b>6</b>	Jamiyatda insonlarning barcha munosabatlarda teng huquqliligi	Fuqarolarning milliy munosabatlarda teng huquqliligi
<b>7</b>	Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarda ham tenglik tamoyili asosida o'zaro munosabatga kirisha olish	Davlatni boshqarish va barcha huquqlarda fuqarolar millatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi
<b>8</b>	Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro tenglik tamoyiliga asoslanadi	Xotin-qizlar va erkaklar, o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy tenglik o'rnatib, jins bo'yicha kamsitilishga yo'l qo'yilmasligi

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi. Bunda darslikdagi savol va topshiriqlarni o'zaro uyg'un tarzda aniq va tushunarli bayon etish talab etiladi. Intellekt xarita o'quvchilarga o'rganilayotgan masalani assotsiatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkonini beradi.



### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Saralash" metodidan foydalanish mumkin.

O'quvchilarni o'tirgan joyida kichik guruhlariga bo'lamiz. Inson huquqlari ro'yxati taqdim etiladi.

1. Erkinlik huquqi.
2. Tenglik huquqi.
3. Yashash huquqi.
4. Odil sudlovga murojaat qilish huquqi.
5. Oila va nikoh huquqi.
6. Fikr erkinligi huquqi.
7. Diniy e'tiqod erkinligi huquqi.
8. Ijtimoiy ta'minot va himoya huquqi.
9. Dam olish huquqi.
10. Ta'lim olish huquqi.
11. Siyosiy huquqlar: saylovlarda saylash va saylanish huquqi.
12. Sha'n va qadr-qimmatiga bo'lgan huquq.
13. Sog'liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi.
14. Shaxsiy daxlsizlik huquqi... (bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin).

Bu metodda o'quvchilarga inson huquqlari ro'yxati beriladi va ularga savol bilan murojaat qilinadi. Faraz qilamizki, o'zga sayyoraliklar Yerni egallab oldi va "Huquqlaringiz ko'p ekan, 4 tasidan voz kechasizlar" (1 daqiqa vaqt beriladi) deyishdi, biroz muddatdan keyin yana 4 ta huquqdan voz kechish (1 daqiqa vaqt beriladi) aytili. Ma'lum vaqtdan keyin yana 4 ta huquqdan voz kechish (1 daqiqa vaqt beriladi) aytili. O'quvchi oxirida qolgan 3 ta huquqni nega tanlaganini sharhlashi kerak. O'qituvchi huquqlar bir-biridan ustun emasligini va hammasi o'z o'rnida muhim ekanligini xulosalashi zarur.

### III. 2. Mustaqil ishni bajarish uchun ko'rsatmalar

10-sinf o'quvchilari S. va D. tanaffus paytida o'zaro janjallashdi. Ikki alamzada A. ni ayovsiz kaltaklab ketishdi. Jismoniy zo'ravonlik jismoniy jarohatga olib keldi. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan A. ning qanday huquqlari poymol bo'ldi? S. va D. ga nisbatan qanday jazo qo'llanadi? Siz ularning bu harakatlarini qanday baholaysiz?

Zo'ravonlik qurboni bo'lgan A. ning shaxsiy daxlsizlik huquqi poymol bo'ldi. Barcha odamlar Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi va Konstitutsiyamizga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gijgijlashdan himoya qilinish huquqiga egadir. Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda). S. va D. ga nisbatan jazo qo'llanadi. Axloqsizligi uchun sinf jamoasi va maktab ma'muriyati oldida hurmatini yo'qotadi. Ularning bu harakati noo'rin va yomon oqibatlarga olib keladi.





## 5-DARS. INSON HUQUQLARI VA HUQUQ USTUVORLIGI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. "Tushunchalarni aniqlash" jadvali orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldiring.

"Tushunchalarni aniqlash" jadvali orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq axborot tizimida mavjud bo'lgan manbalar asosida siz uchun yangi va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiring.

Tushunchalar		Mazmuni
1	Huquq ustuvorligi	
2	Huquq ustuvorligining inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni	
3	Huquqiy madaniyat	
4	Inson huquqlari madaniyati	
5	Ombudsman	
6	Bolalar ombudsmani	
7	Respondent	
8	Respondent-ekspert	

Tushunchalar		Mazmuni
1	Huquq ustuvorligi	Mamlakatda davlat hokimiyati organlari faoliyati jarayonida Konstitutsiya va qonunlar oliy yuridik kuch sifatida, davlat hokimiyati organlari chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan ustun turishidir.
2	Huquq ustuvorligining inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni	Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunlarning so'zsiz hukmronligi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishi, huquqiy tartibot o'rnatilganligi, huquq buzilishi hollarining oldini olish hamda huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda, ularni javobgarlikka tortishda qonunlar huquqiy asos vazifasini bajaradi.
3	Huquqiy madaniyat	Fuqaroning o'z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o'zgarlar manfaatiga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirishi.

4	Inson huquqlari madaniyati	Inson huquqlariga doir normalarni mukammal bilish, amaliy faoliyatda ularga rioya qilish, shaxs huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlarini buzuvchilarga belgilangan tartibda chora qo'llash.
5	Ombudsman	Shved tilidan olingan bo'lib, "vakil" degan ma'noni anglatadi.
6	Bolalar ombudsmani	Bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning, huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo'lgan bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy Majlisning bola huquqlari bo'yicha vakili (bolalar ombudsmani) instituti ta'xis etildi.
7	Respondent	Huquq ustuvorligi ta'minlanganlik holatini aniqlashda o'tkaziladigan so'rovda ishtirok etish uchun jalb qilingan, aholi orasidan tanlab olingan jismoniy shaxs.
8	Respondent-ekspert	Huquq ustuvorligi ta'minlanganlik holatini aniqlashda aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovda ishtirok etish uchun tegishli sohada faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassislar orasidan tanlab olingan jismoniy shaxs.

Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek, huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – Toshkent, 2012. – 304 b.

2. Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma.–Toshkent: Baktria press, 2019. – 284 b.

3. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b.

4. X. T. Mamatov. Huquqshunoslik. – Toshkent: Adolat, 2016. – 352 b.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 22.06.2020-yildagi PF-6012-sonli farmoni.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

3. "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasi qonuni. 27.08.2004-yildagi 669-II-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-sonli qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-sonli "Bola huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodlarni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida "Atamaga dalillar" usuli uchun topshiriq (namuna).



**INSON HUQUQLARI  
UMUMJAHON  
DEKLARATSIYASI**



D	
E	
K	
L	
A	
R	
A	
T	
S	
I	
Y	
A	

Namuna:

**INSON HUQUQLARI  
UMUMJAHON  
DEKLARATSIYASI**



D	Jahon konstitutsiyasi
E	Inson huquqlarini himoya qiluvchi hujjat
K	1948-yil 10-dekabr
L	BMTning 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan
A	30 ta modda
R	Dunyo davlatlari konstitutsiyasi asosi
A	BMTga a'zo barcha davlatlar uchun tavsiya qilingan
T	BMT Bosh Assambleyasining uchinchi sessiyasida
S	1950-yil 10-dekabr Inson huquqlari kuni sifatida nishonlanadi
I	Xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantiradi
Y	Insoniyatning qadr-qimmatini, tengligi, erkinligi asosi
A	2028-yilda 90 yil bo'ladi

**DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI**

**I. Motivatsion bosqich.**

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Cho'qqini zabt et" topshirig'i beriladi.



Qizil qatorda qolib ketmaslik uchun rasmdan kelib chiqib 3 ta ma'lumot aytish zarur bo'ladi. 3 ta ma'lumot aytilib, och sariq rangga o'tgandan so'ng o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan rasm haqida 5 ta ma'lumot aytish zarur bo'ladi. Yashil rangga o'tgandan so'ng ko'rsatilgan 3-rasm haqida 7 ta ma'lumot ayta olgan guruh a'zolari g'olib bo'ladi.



- 1.....
- 2.....
- 3.....



- 1.....
- 2.....
- 3.....
- 4.....
- 5.....



- 1.....
- 2.....
- 3.....
- 4.....
- 5.....
- 6.....
- 7.....

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilarga darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olish uchun "Yashirilgan so'zlarni toping" jadvali tarqatiladi. Mavzudagi asosiy tushunchalarni jadvalga quyidacha joylashtiriladi. Masalan:




O	M	B	U	D	S	M	A	N	F	J
R	E	S	P	O	D	E	N	T	U	A
I	H	Q	S	V	A	SH	E	D	Q	M
N	U	O	E	A	D	A	R	A	A	I
S	Q	N	N	K	O	X	K	V	R	Y
O	U	U	A	I	L	S	I	L	O	A
N	Q	N	T	L	A	T	N	A	T	T
D	E	M	O	K	R	A	T	I	Y	A

1. HUQUQ	6. QONUN	11. VAKIL
2. ERKIN	7. RESPONDENT	12. SENAT
3. ADOLAT	8. JAMIYAT	13. DEMOKRATIYA
4. OMBUDSMAN	9. DAVLAT	14. SHAXS
5. INSON	10. FUQARO	



**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.



### III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar "Bir savolga uch javob" mashqini bajaradi.

1. \_\_\_\_\_  
2. \_\_\_\_\_  
3. \_\_\_\_\_

**Inson va davlat o'zaro qay tarzda bog'langan?**

1. \_\_\_\_\_  
2. \_\_\_\_\_  
3. \_\_\_\_\_

**Huquq ustuvorligini ta'minlovchi asosiy shartlar nimalardan iborat?**

**III. 2.** Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Huquqlar bor, lekin ularni amalda qanday qo'llash mumkin? Ushbu savolga javobni oila a'zolaringiz bilan muhokama qiling. Siz tengdoshlaringizga bu borada qanday tavsiyalar berasiz?

Huquqlarimiz ko'p, masalan, bilim olish huquqimiz bor, maktabda ta'lim olamiz, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqimiz bor, tibbiy muassasalarga murojaat qilamiz, dam olish huquqi, fikr erkinligi huquqi, diniy e'tiqod erkinligi huquqi, saylovlarda saylash va saylanish kabi huquqlarimizdan hayotimiz davomida foydalanamiz.

Tengdoshlarimiz bilan birga ijod erkinligidan, so'z erkinligidan, axborot izlash va mehnat qilish kabi huquqlardan foydalanishimiz mumkin.

## 6-DARS. INSON HUQUQLARI VA IJTIMOY HIMOYA

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing.

Bliits-so'rov usuli:

1. Ijtimoiy himoya o'zi nima?
2. Tor ma'nodagi ijtimoiy himoya deganda nimani tushunasiz?
3. Keng ma'nodagi ijtimoiy himoya deganda nimani tushunasiz?
4. Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadini tushuntirib bering.
5. Aholini ijtimoiy himoyalash deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy himoyaning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
7. Aholining himoyaga muhtoj qatlami kimlar?
8. Ijtimoiy himoyaga kimlar muhtoj?
9. Ijtimoiy sug'urta deganda nimani tushunasiz?
10. Insonparvarlik nima?
11. Kasaba uyushmalari qanday maqsadda tuziladi?
12. "Ijtimoiy himoya" tushunchasi birinchi marta qayerda va qachon qo'llangan?
13. Moddiy yordamga kimlar muhtoj?
14. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qayerga murojaat qiladi?

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek, huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – Toshkent, 2012. – 304 b.
2. Inson huquqlari: parlament a'zolari uchun qo'llanma. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 284 b.
3. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi me'yorlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning. Masalan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 654-son farmoyishi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 5-martdagi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'l-jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.



**Tor ma'nodagi  
ijtimoiy himoya**

Mehnat qilish layoqati cheklanganligi sababli qiyin vaziyatga tushgan aholining eng yordamga muhtoj tabaqalariga o'z vaqtida ko'mak berish, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvligini ta'minlash.

**Keng ma'nodagi  
ijtimoiy himoya**

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining barcha tabaqalari uchun moddiy farovonlik va ijtimoiy kafolatning yuqori darajada ta'minlanishi.

### IJTIMOY HIMOYANING YO'NALISHLARI



### DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

#### I. Motivatsion bosqich.

O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun jadvalni to'ldirish topshiriladi.

Ijtimoiy himoya kimlarga kerak?	Nima uchun kerak?	Qanday huquqiy asoslari bor?	Men nima qila olaman?
Moddiy jihatdan kam ta'minlangan oilalar			
Boquvchisini yo'qotgan oilalar			
Ko'p farzandli oilalar			
Yolg'iz keksalar			
Imkoniyati cheklanganlar			

Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. O'qituvchi bu vazifani tarqatma material qilib bersa ham bo'ladi. Bunda bor-yo'g'i 1–2 ta misol keltiriladi va o'quvchilar o'zlari fikrlab, yana kimlar ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligini jadvalga kiritishi kerak. Jadvalning ikkinchi ustunini to'ldirishda o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'ulari rivojlanadi.

Jadvalning uchinchi ustunini to'ldirishda o'quvchi huquqiy bilimlarini esga oladi, uning hozirgi kun islohotlari hamda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlardan xabardorligi tekshiriladi.

To'rtinchi ustunni to'ldirishda o'quvchilarda mas'uliyat va daxldorlik hissi rivojlanadi.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

## II. Anglash bosqichi.

O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash mumkin.

"FSMU" usulidan foydalanib insonparvarlik tushunchasini tahlil qiling.

### Insonparvarlik

F


---

---

---

---

---

---

---

---

S

M


---

---

---

---

---

---

---

---

U

Namuna:

### Insonparvarlik

F

Insonparvarlik – saxovat ramzi.

Yordamga muhtoj aholini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydi.

S

M

Konstitutsiyaning 46-moddasida ijtimoiy ta'minot olish huquqi kafolatlangan.

Chunki o'z aholisini ijtimoiy himoyalash davlatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

U



### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar "Xatolar oroli" topshirig'ini bajaradi.

"Xatolar oroli" usulidan foydalanib xato ma'lumotlarni aniqlang va xato "orollar" ustiga "x" belgisini qo'ying.

**Ijtimoiy himoya** –  
"jamiyat" atamasining arab  
tilidagi sifat shakli.

**Kasaba uyushmalari** –  
aholini ijtimoiy himoya  
qiluvchi tashkilot.

**Dotatsiya** –  
qaytarib berish sharti  
bilan bir shaxsga  
berilgan pul mablag'i.

#### "Xatolar oroli" metodi

**Kam ta'minlangan oilaga**  
moddiy yordam tayinlash  
prokurorning vakolatiga  
kiradi.

**Ijtimoiy himoyaning asosiy  
maqsadi** – aholi farovonligini  
ta'minlash.

III. 2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

1. Amir Temur davrida katta-katta yerlarni masjid, madrasa, mozar, do'kon, tegirmon, ustaxona, bozor, objuvoz va karvonsaroylarga vaqf qilib berish keng tarqalganligi haqida taqdimot tayyorlash mumkin.

2. Vaqf yerlariga qurilgan bino va inshootlar haqida axborot to'plab, katta vatman qog'ozga fakt va ma'lumotlarni yopishtirish mumkin.

3. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida maket yasash mumkin.



## 7-DARS. INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

“V”	“+”	“-”	“?”
<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>

- “V” – men biladigan ma'lumotlar;
- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqida men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.

Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Kiberjinoyatchilik: tahlil, tahdid va himoya. Sh. Sattarov.
2. Kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlik. A. Iminov.
3. Inson huquqlari. Darslik. A. Muminov, M. Tillabayev. 544 b. 2013-yil.



**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 22.06.2020-yildagi PF-6012-son farmoni.

2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son farmoniga 1-ilova.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 10.12.2018-yildagi PQ-4056-son qarori.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.



“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida”gi qonun



“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun



“O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun



“Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun”



“Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonun



“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun




“Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun



“Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun

**Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro me‘zonlarning milliy qonunchilikda aks etishi**



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "**Maqolani tiklang**" topshirig'i beriladi. Matnda tushirib qoldirgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib, maqolani tiklang.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ... insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda "... birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi va "... – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi ... Xalq va Virtual qabulxonalari, shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabulxonalari alohida o'rin egallamoqda. Sud-huquq sohasini yanada ..., Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, "Xabeas korpus" institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi.

Tushirib qoldirilgan so'zlardan mosini qo'ying. "Maqolani tiklang" topshirig'i uchun quyidagi so'zlardan foydalaning:

Jamiyat, demokratlashtirish, Yangi O'zbekistonni, Prezidentining, islohotlar.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "**Tushunchalarni aniqlash**" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

Tushunchalar	Tahlili
<b>Ombudsman</b>	Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili.
<b>Kiber o'g'rilar</b>	Kompyuter viruslari va xakerlar (kraker, reverser)dir. "Kompyuter kiber o'g'risi", "buzuvchi" deb ham yuritiladi.
<b>Xaker</b>	Informatsion texnologiyalar bo'yicha favqulodda malakaga ega mutaxassis.
<b>"Xabeas korpus"</b>	Jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi.
<b>Elektron hukumat</b>	Ham "ichki", ham "tashqi" aloqalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta'minlanib turadigan hukumat.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.


**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "**Sinkveyn**" metodidan foydalaniladi.



“Sinkveyn” metodini samarali qo'llash uchun har bir ishtirokchi erkin ishlashi kerak. Mustaqil fikr va g'oya yozish uchun doska, rangli markerlar, posterlar, kodoskop, turli formatdagi qog'ozlar oldindan tayyorlanishi lozim. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi.

**Sinkveyn tuzish qoidasi:**

1. Birinchi qatorda topshiriq bir so'z, odatda ot bilan ifodalanadi (Kim? Nima?).
2. Ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi (Qanday? Qanaqa?).
3. Uchinchi qatorga mavzu doirasidagi xatti-harakat vazifasini anglatuvchi uchta fe'l yoziladi.
4. To'rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvurni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.
5. Oxirgi qatorga mavzu mohiyatini ifodalaydigan bitta so'z (sinonim) yoziladi.



**III. 2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.**

1. Fuqaro O. DYHXX xodimining qarori ustidan Ichki ishlar vazirligi ishonch telefoniga og'zaki shikoyat bilan murojaat qildi. Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi fuqarodan tushgan shikoyatni qabul qilib, ko'rib chiqilishi ta'minlashini aytdi. Biroq ikki oy o'tsa ham fuqaroga qabul qilingan qaror haqida ma'lumot berilmadi. Shundan so'ng fuqaro shikoyati haqida so'raganida xizmat tekshiruvini o'tkazilgani, biroq uning yakuni haqidagi ma'lumotlar xizmat siri ekanligi, DYHXX xodimiga ta'sir chorasi ko'rilgani ma'lum qilindi. Bunday ahvoldan norozi bo'lgan fuqaro sudga shikoyat qildi. Vaziyatga huquqiy baho bering.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning murojaatlari" to'g'risidagi qonunining 8-moddasiga binoan, davlat organining, jamoat birlashmasining, korxonasi, muassasasi, tashkilotning, mansabdor shaxsning xatti-harakati yoki qarori ustidan shikoyat bo'ysunuv tartibiga qarab, yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga yoxud sudga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, shikoyat yozma yoki og'zaki tarzda berilishi lozim. Ahamiyatli jihati, shikoyat anonim tarzda bo'lmasligi kerak. Ushbu vaziyatda DYHXX xodimi qarorining ustidan shikoyat mansabdor shaxsning qarori ustidan shikoyat hisoblanib, yuqori turuvchi organ vazifasini Ichki ishlar vazirligi o'tamoqda. Buning huquqiy asosi sifatida "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yo'l-patrol xizmati xodimlarining xizmat faoliyati natijalarini baholash tartibi va mezonlari to'g'risida"gi nizomni keltiramiz.

Demak, fuqaroning talablari qonuniy hisoblanadi. "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida" - gi qonunga ko'ra, shikoyat 1 oy muddat ichida ko'rib chiqilishi lozim hamda uning natijasi va xulosalari fuqaroga taqdim etilishi belgilangan. Shuningdek, Ichki ishlar organlarining faoliyati oshkoralik va ochiqlik prinsipi asosida yo'lga qo'yilganligi bois fuqaroning talablarini rad etish huquqiy jihatdan asosli emas.

2. A. ning telegram messengeriga "LEDlight" kompaniyasi tomonidan 3 million so'mlik pul yutug'i chiqqanligi va pulni olish bo'yicha havola xabari keldi. A. yuborilgan yo'riqnoma rasmiylikiga ishonib, otasining plastik kartasi raqamini saytga yubordi va tasdiqlash kodini ham kiritdi. Ertasi kuni plastik kartadagi barcha pullar yo'qolib qolganligi ma'lum bo'ldi. Vahimaga tushgan A. nima qilishni bilmay qoldi. Muammoli vaziyatda inson huquqlarining buzilishi yuz berganmi? Internet orqali kelayotgan xabarlarga ishonish mumkinmi?

Alohida ta'kidlash joizki, bunday turdagi huquqqa xilof harakatlar insonning Konstitutsiyada belgilangan mulkka egalik huquqini poymol qiladi. To'g'ri, plastik karta savdo qilish, xizmat ko'rsatish, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashda ko'plab qulayliklarga ega. Lekin bu kabi operatsiyani amalga oshirishda SMS orqali keladigan maxfiy kodni boshqalarga berish mumkin emas. 4 raqamdan iborat maxfiy kod faqatgina plastik kartaning egasi shaxsan elektron operatsiyani amalga oshirishi uchun kerak. Qolgan holatlarda bu raqamni boshqa shaxslarga berish mumkin emas.

Afsuski, firibgarlar plastik karta egasiga qo'ng'iroq qilib, o'zini bankdan, Click, Payme yoki boshqa to'lov xizmatlari tashkiloti xodimi ekanini aytib, fuqarolarni aldab, ushbu ma'lumotni so'raganda, plastik karta egalari bu ma'lumotlarni berib yuborishi holatlari ko'p kuzatilmoqda. Oqibatda firibgarlar pullarni yechib olmoqda va fuqaro jabrlanmoqda

Birgina 2021-yilda bank plastik kartochkalaridan pul mablag'larini o'g'irlash yuzasidan jami 610 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, fuqarolarga 4 mlrd 495,5 mln so'm zarar yetkazilgan.

Jinoyat kodeksining 168- va 169-moddalari bank plastik kartochkalaridan pul mablag'larini o'g'irlik yo'li bilan talon-toroj qilganlik uchun og'irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlikni belgilovchi yangi norma bilan to'ldirilmoqda.

3. 10-sinf o'quvchilari K. va S. maktab oshxonasida sinfdosh qizlarni ularning ruxsatisiz rasmga olib, telegram guruhlarda masxaralab tarqatishdi. Bu vaziyatda o'quvchi qizlarning qanday huquqlari paymol etildi? K. va S. ning bu ishlariga nima degan bo'lar edingiz? Ularga qanday chora ko'riladi? K. va S. ning bu qilmishiga kim javobgar?

10-sinf o'quvchilari K. va S. ham axloqsizlik, ham huquqbuzarlik sodir etishgan Sinfdosh qizlarning shaxsiy huquqlari poymol bo'ldi. Har kim oz sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani huquqiga ega.(Oz. Res. Kons. 31-modda). K. va S. ga nisbatan (ma'muriy) jazo qo'llanadi. Axloqsizligi uchun sinf jamoasi va maktab ma'muriyati oldida hurmatini yo'qotadi. Ularning bu harakati noo'rin va yomon oqibatlarga olib keladi.



## 8-DARS. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI ORGANLAR

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Semantik xususiyatlar tahlili** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

T/r	Vazifasi	Qabul qilinish asosi	Huquqiy maqomi
	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)	Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995-yilda tashkil etilgan. "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonun 1997-yilning 24-aprelida qabul qilingan.	Huquqiy institut
	Konstitutsiya va inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill asosida mamlakatda huquqiy himoyalash faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi farmoni bilan tashkil etilgan.	Milliy markaz
	Prokuraturaning bosh vazifasi – qonun ustuvorligini qaror toptirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat tuzumini, davlat va fuqarolarning mulklarini turli jinoyatchilar, huquq-buzarlardan himoya qilish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari to'g'risida"gi farmoni asosida tashkil etilgan.	Huquqni muhofaza qiluvchi organ
	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy va eng muhim vazifasi – qonunchilik ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash	Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992-yil 8-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni qabul qildi	Vazirlik
	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari	Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi 370-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan	Vazirlik

	O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati – O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi vakolatli organ	1991-yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan O'zSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasi (KGB) Milliy xavfsizlik xizmatiga aylantirilgan, 2018-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tashkilot nomi Davlat xavfsizlik xizmati deb o'zgartirildi.	Maxsus vakolatli davlat organi
	Ichki ishlar organlari faoliyatning asosiy vazifasi – jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash	1991-yil 25-avgustda tashkil topgan.	Vazirlik
 <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI</p>	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi – aholi bandligi, mehnat migratsiyasi va mehnat munosabatlari sohasida yagona siyosat olib boruvchi davlat boshqaruvi organi	1991-yil 10-oktyabrda Mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha O'zbekiston SSR davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligiga aylantirilgan.	Vazirlik

Semantik xususiyatlar tahlili orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq axborot tizimida mavjud bo'lgan manbalar asosida siz uchun yangi va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiring.


#### **Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi (yangi tahrir) O'zbekiston Respublikasi qonuni. 27.08.2004-yil, 669-II-son.
2. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 13.11.1996-yil, 399-son.
3. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi (yangi tahrir) 29.08.2001-yildagi 257-II-sonli qonuni.
4. M. X. Rustamboyev, M. B. Usmonov va boshqalar. Inson huquqi – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 440 b.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. "Ichki ishlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 16.09.2016-yil, O'RQ-407-son.
2. "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 05.04.2018-yil, O'RQ-471-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 28.07.2021-yil, O'RQ-703-son.
4. "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 22.06.2020-yil, PF-6012-son.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Quvnoq kubikchalar" ta'limiy o'yinidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'yinda kubikning 6 tomoniga rasmlar yopishtiriladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadilar. Guruhlar kubikni aylantirish orqali tushgan rasmni aniqlab oladilar. Guruhlar tanlab olgan rasmiga mos so'zlarni matndan topib, yozadilar.

Bunda o'quvchilarda o'qish ko'nikmasi, matn tarkibidagi tanlangan rasmga oid so'zlarni ajrata olish ko'nikmasi va so'zlar jamlanmasi hosil bo'ladi.

#### Vazifa

Boshlovchi biron-bir ishtirokchiga kubikni tashlaydi, ilib olgan ishtirokchi kubikning tepa qismida ko'rsatilgan rasmga mos so'zlarni o'rganilgan matndan aytadi va kubikni boshlovchiga qaytaradi. Boshlovchi kubikni boshqa ishtirokchiga beradi.

#### Jihoz

Tomonlariga mavzuga doir rasm yopishtirilgan kubik.

Namuna:



**“Kubik” usuli:** kubikning 6 tomoniga mavzuga doir 6 xil rasm yopishtiriladi, kimga qaysi rasm tushsa, shu rasm haqida ma'lumot berish kerak.

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tanishib olishi uchun **“Ikki qismli kundalik” metodini** qo'llash maqsadga muvofiq.

### **“Ikki qismli kundalik” metodi**

“Ikki qismli kundalik” metodi o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini o'stirish imkonini beradigan metod hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir katta matnni o'qib chiqish topshirig'ini olishganida ikki qismli kundalik foydalidir. Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar toza (yozilmagan) qog'oz varag'ining o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikki qismga ajratishlari kerak. Qog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularda eng ko'p taassurot qoldirganini yozishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar yoki shunchaki taajjubga solar. Balki ularning qalbida keskin norozilik hissi uyg'onar. O'ng tomonda ayni shu iqtibosni yozishga nima majbur etganga sharh berishlari kerak. Ularda qanday savollar tug'ildi? Matnni o'qish davomida o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining ikki qismli kundalik daftariga tegishli qaydlarni kiritib borishlari kerak.



**Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:**

## INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI ORGANLAR



Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili  
(Ombudsman);

Inson huquqlari milliy markazi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi  
amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti;

Sudlar tizimi;

Prokuratura;

Ichki ishlar vazirligi;

Adliya vazirligi;

Davlat xavfsizlik xizmati;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi;

Biznes-ombudsman;

Bolalar ombudsmani;

Barchasining vazifasi inson huquq va erkinliklarini  
himoya qilish;

Konstitutsiya va inson huquqlari to'grisida Xalqaro  
bill asosida amalda huquqiy himoyalash faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti;

Qonun ustuvorligini qaror toptirish, fuqarolarning  
huquq va erkinliklarini, davlat tuzumini, davlat  
va fuqarolarning mulklarini turli jinoyatchilar,  
huquqbuzarlardan himoya qilish;

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash;  
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining muhim  
bo'g'ini;

Aholi bandligi, mehnat migratsiyasi va mehnat muno-  
sabatlari sohasida yagona siyosat olib boruvchi davlat  
boshqaruvi organi.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III. 1.** Mustaqil ishini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Vaziyat bilan tanishing va inson huquqlari buzilishining oldini olish uchun korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish zarurligiga dalillar keltiring.

O. ismli tadbirkor avtomobil zavodiga 10 ta yengil avtomobilga buyurtma berdi. Avtozavod direktori qiymatdan tashqari 3000 AQSH dollar to'lash sharti bilan avtomobillarning zarur miqdorini ajratishni va'da qildi. Pul topshirish paytida tadbirkor va zavod direktori IIB tomonidan ushlendi. Sizingcha, nega qonunda poraxo'rlik uchun ikkala tomonning javobgarligi belgilangan?

Fuqaro A. ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan uning huquqlari buzilganligi yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) nomiga shikoyat bilan murojaat qildi. Ombudsman kotibiyati xodimi mazkur shikoyatni qabul qila olmasligini, sababi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish ombudsmanning vakolatlariga kirmasligini ma'lum qildi. Ushbu vaziyatni tahlil qiling va ombudsman kotibiyati xodimining harakatlariga huquqiy baho bering.





## 9-DARS. IJODIY FAOLIYAT

### TEST

1. 1215-yilda qabul qilingan xalqaro hujjat nomini toping?

- A) Erkinlikning buyuk xartiyasi
- B) Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi
- C) Huquqlar to'g'risidagi bill
- D) AQSH mustaqillik deklaratsiyasi

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida berilgan huquqni toping.

- A) Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.
- B) Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.
- C) O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega.
- D) Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqiga ega.

### MUAMMOLI VAZIYAT

Ushbu huquqiy vaziyatni tahlil qiling.

Xalq banki Uzun filiali sayyor kassiri 278 nafar fuqaroning pensiya va nafaqa pullarini soxta imzo orqali o'zlashtirgan va pullarning bir qismini onlayn qimor o'yiniga tikib yuborgan.

### AMALIY KO'NIKMA

Odil sudlovni amalga oshirishning asosiy talablaridagi xatoni toping.

Berilgan qoidani kerakli so'zlar bilan to'ldiring!

Yashash huquqi – ..... insonning ..... huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish – ..... jinoyat hisoblanadi.

Har kim erkinlik va ..... daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim ..... asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki ..... saqlanishi mumkin emas.

Obyektivlik

Ishga oid barcha ma'lum faktlarning izchil va mufassal ko'rib chiqilishi

Har tomonlamalik va to'lalilik

Ishning xolis va beg'araz ko'rib chiqilishi

Qonuniylik

Ishning qonunga qat'iy muvofiqlikda ko'rib chiqilishi

Asoslilik va adolat

Isbotlarni ishonarli faktlar bilan tasdiqlash va ishning barcha jihatlarini hisobga olish

## 9-DARS. IJODIY FAOLIYAT

### TEST

1. 1215-yilda qabul qilingan xalqaro hujjat nomini toping?

- A) Erkinlikning buyuk xartiyasi

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida berilgan qoidani toping.

- A) Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

### MUAMMOLI VAZIYAT

Ushbu huquqiy vaziyatni tahlil qiling.

Xalq banki Uzun filiali sayyor kassiri 278 nafar fuqaroning pensiya va nafaqa pullarini soxta imzo qo'yib o'zlashtirgan va pullarning bir qismini onlayn qimor o'yiniga tikib yuborgan.



### MUAMMOLI VAZIYAT YECHIMI

Ushbu holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 167-moddasida quyidagilar belgilangan.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish.

Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish,

a) ko'p miqdorda;

– bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmaydi.

Jinoyat kodeksi, 228-modda. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish.

Soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxonalar, muassasalar yoki tashkilotning qalbaki shtamplari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Berilgan qoidani kerakli so'zlar bilan to'ldiring.  
Yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi.  
Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi.  
Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.  
Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

### AMALIY KO'NIKMA

Odil sudlovni amalga oshirishning asosiy talablaridagi xatoni toping.

Obyektivlik	Ishning xolis va beg'araz ko'rib chiqilishi.
Har tomonlamalik va to'lalilik	Ishga oid barcha ma'lum faktlarning izchil va mufassal ko'rib chiqilishi.
Qonuniylik	Ishning qonunga qat'iy muvofiqlikda ko'rib chiqilishi.
Asoslilik va adolat	Isbotlarni ishonarli faktlar bilan tasdiqlash va ishning barcha jihatlarini hisobga olish.

## I NAZORAT ISHI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

I bob uchun jadvalli test.  
Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

1	Jamiyat	A	fuqaroning o'z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o'zgaralar manfaatiga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirishi
2	Shaxs	B	shapaloq tortish, tepish; turtkilash, musht bilan urish; zarb bilan itarib yuborish; jismoniy xo'rlash; turli o'tkir buyum va narsalarni otish; uydan chiqish, uxlashga jismonan yo'l qo'ymaslik
3	Inson huquqi	D	kompyuterni o'g'rilik va jinoyatda asosiy qurol qilib olgan har qanday noqonuniy harakat
4	Shaxsning individual huquqiy holati	E	birgalikdagi hayotiy faoliyatlari jarayonida birlashgan odamlarning muayyan murakkab tuzilmasi
5	Teng huquqlilik	F	fuqarolarning davlat, qonun, sud oldida tengligini rasman e'tirof etish
6	Kiber jinoyat	G	o'ziga xos xususiyatlar, xohish-istaklar, orzu va intilishlar, bilim, ko'nikma, malakalarga ega, ma'naviy dunyosi boy bo'lgan inson
7	Ijtimoiy tenglik	H	inson huquqlarini himoya qiluvchi vakil
8	Jismoniy zo'ravonlik	I	alohida bir shaxsning mavjud jihatlari (yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, xizmat vazifasi va h.k.)
9	Huquqiy madaniyat	J	qonun-qoidalar to'plami, nizom
10	Ijtimoiy himoya	K	ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishda hammaning teng bo'lishi
11	Tuzuk	L	shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamol topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo'lgan xususiyatlari
12	Fuqarolik	M	ko'pchilikni himoya qilish, aholining asosan yordamga muhtoj toifalarini moddiy va ma'naviy himoya qilish
13	"Xabeas korpus"	N	informatsion texnologiyalar bo'yicha favqulodda malakaga ega mutaxassis
14	Ombudsman	O	insonning aniq bir davlat bilan huquqiy aloqalari
15	Xaker	P	jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi

No	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Javob:	E	G	L	I	F	D	K	B	A	M	J	O	P	H	N


## II BOB. OILAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR



## 10-DARS. JAMIYATDA OILANING O'RNII

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Insert chizmasi asosida quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.



“V” – men biladigan ma'lumotlar;

- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqda men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

Bunda qo'shimcha ma'lumotlar, qarashlar, fikrlardan ham foydalanishingiz mumkin. O'quv materiallari oila jamiyat tayanchi ekanligiga urg'u berishi kerak.

#### **Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila va oilaning muqaddas ekanligi haqidagi fikrlari.

2. Usmonxon Alimovning “Yoshlar – kelajagimiz” kitobi.

3. O. I. Oqyulovning umumiy tahriri ostida. Oila huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 182 b.

4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/104720>

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi me'yorlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-,77-,78-,79-, 80-moddalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5938-sonli farmoni, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-81-sonli farmoni, aynan shu kuni qabul qilingan “Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi 146-sonli qarori.



2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining mavzuga doir 1-bob 4–9- va 2-bob 10–12-moddalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim. Intellekt xarita to'g'risidagi ma'lumot qo'llanmaning birinchi mavzusida berilgan. "Jamiyatda oilaning o'rni" mavzusidagi intellekt xarita namunasi quyida berilgan.

## JAMIYATDA OILANING O'RNI



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Erkin yozish" topshirig'i beriladi.

"Erkin yozish" metodini qo'llash tartibi:

– O'quvchilardan daftarlariga 3 minut davomida. "Mustahkam oila – jamiyat tayanchi" mavzusida o'z fikrlarini yozish so'raladi.

– Agar hech qanday fikr miyaga kelmasa, tasavvurini rasm ko'rinishida tasvirlash mumkinligi ta'kidlab o'tiladi.

– Uch daqiqa tugaganidan so'ng o'quvchilardan ruchkalarini, qalamlarini parta ustiga qo'yish va chizgan rasmlarini izohlash, fikrlarini navbat bilan o'qib berish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

Masalan:

– Har bir inson dunyoga kelib, oila degan jamoada yashaydi. Oila sog'lom bolani shakllantiradi va jamiyatga barkamol insonni tayyorlab beradi;

- Oilaviy munosabatlar axloq qoidalari va huquq qoidalari bilan tartibga solinadi;
- Oilaviy huquqiy munosabatlar qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

## II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash mumkin. Mazkur metodni qo'llashda o'quvchilarga quyidagilar ta'kidlanadi:

- matn bilan tanishib chiqing;
- matn bilan tanishish jarayonida sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarning hammasini daftaringizga qayd eting;
- ishlash uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilar daftariga yozib olgan tushunchalarni o'qib beradi.


Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**II.2.** Intellekt xarita yordamida yangi mavzu tushuntiriladi.

Intellekt xaritada yozilgan har bir tushuncha izohlanadi, tahlil qilinadi.

## III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Nima uchun?" chizmasini to'ldirish topshiriladi.



"Nima uchun" chizmasi muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri hisoblanadi. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

"Nima uchun" chizmasi asosida topshiriqni bajarish tartibi:

1) o'quvchilar daftarlariga yoki doskaga chizmani namuna asosida mustaqil chizishlari va to'ldirishlari mumkin. Muammoning asosiy sabablarini aniqlash va ular bilan bog'liq kichik sabablar orasida bog'lanish hosil qilish zarurligi tushuntiriladi;

2) topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Uni uyda yoki bo'sh vaqtda davom ettirishga qiziqish uyg'otish o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi;

3) vaqt tugagach, 3–4 nafar o'quvchidan o'zlari aniqlagan sabablarni o'qib berish va qolganlardan ularnikiga o'xshamagan fikrlar bo'lsa, aytishni so'rash mumkin.

**III.2.** Mustaqil ishni bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Darslikdan quyidagi savol va topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi:



1. Oiladagi axloqiy va huquqiy munosabatlarga misollar keltirib, jadvalni to'ldiring.

Axloqiy munosabatlar	Huquqiy munosabatlar
Ota-onaga salom berish	Farzandlarni tarbiyalash
Ota-onaga uy yumushlarida yordam berish	Farzandlarining sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish
Farzandlarning dam olishi, hordiq chiqarishi uchun sharoit yaratish	Ta'lim olishini ta'minlash
Oila a'zolari bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishi	Ta'minot berish
Ota onani bayramlar, tug'ilgan kun bilan tabriklash	Oilaviy huquqlarni himoya qilish
Oila a'zolari bir-birlarini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashi	Umumiy mulkka egalik qilish va h.k.

2. Axloqiy va huquqiy munosabatlar qanday me'yorlar bilan tartibga solinishini og'zaki bayon eting.

3. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda ahillik va mustahkamlikka erishish uchun oilaviy turmush va qonunchilikka qanday yangiliklar kiritgan bo'lardingiz?

*Masalan, jadval asosida quyidagicha javob berish mumkin.*

Qonunchilikda quyidagilar tavsiya qilinadi	Oilada quyidagilar tavsiya qilinadi
Nikoh yoshiga e'tibor berilishi	Oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini o'rnatish
Rasmiy nikohdan oldin psixolog ko'rigidan o'tish	Oilalarda har kuni kitobxonlik soatlarini tashkil etish
Nikoh bekor qilinganda jarima joriy etish	Farzandlar, oila a'zolari bilan muloqotni ko'paytirish
Nikohdan o'tadiganlarni, ayniqsa, qizlarni oilaga tayyorlash kurslariga jalb etish	Dunyo ko'rgan, tajribali ziyoli qarindosh-urug'larni taklif qilib, suhbatlar tashkil etish
Mahallalarda "ro'zg'or sirlari", "momolar o'g'itlari" kabi ruknlar ostida o'quvlar tashkil etish.	Sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun oilaviy sport musobaqalarini tashkil etish

## 11–12-DARS. NIKOH, UNI TUZISH VA TUGATISH ASOSLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing.  
**BBB** jadvalini to'ldirish uchun tavsiyalar:

1. Tayanch ibora va tushunchalar, matn bilan tanishib chiqing.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1	2	3

Asosiy tushunchalar va iboralar asosida **BBB** jadvalini to'ldiring.

No	Asosiy tushuncha va iboralar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib odim
1.	Nikoh			
2.	FHDY			
3.	Ixtiyoriy rozilik			
4.	Teng huquqlilik			
5.	Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh			
6.	Tibbiy ko'rik			
7.	Nasl-nasab shajarasi to'g'ri tutashgan qarindoshlar			
8.	Vasiylik va homiylik organlari			
9.	Nikohning tugatilishi			
10.	Aliment			

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi**

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIV bob. 76-modda.

2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/104720>

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining mavzuga doir 13–17-moddalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

3. "Fuqarolik va oila huquqi" qo'llanmasi O'zR FA Davlat va huquq instituti olimlari, Ichki ishlar akademiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda yozilgan.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.



## NIKOHNI TUZISH VA TUGATISH ASOSLARI

### NIKOHNING YURIDIK ASOSLARI

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida tuziladi

### NIKOH TUZISHNING IXTIYORIYLIGI

Nikoh bu erkak va ayolning ixtiyoriy kelishuvi va teng huquqliligi asosida tuziladigan ittifoqdir

### NIKOH TUZISH TARTIBI

Nikoh tuzish nikohlanuvchilar FHDY organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi

## Nikohni tuzish va tugatish asoslari

### NIKOH TUZISHGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR

Boshqa nikohda turgan shaxslar, qarindoshlar, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar, nikohlanuvchilarning bittasi ruhiyat buzilishi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi

### NIKOHNING TUGATILISHI

Nikohni tugatish FHDY organlarida yoki sud tartibida amalga oshiriladi

### NIKOH TUGATILISHINING OQIBATLARI

Nikohning tugatilishi uchun vafot etish yoki vafot etgan deb e'lon qilish sabab bo'ladi

## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Art-klaster" topshirig'ini berish tavsiya etiladi.



	<p>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 76-modda. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.</p>
	<p>O'zbekiston Respublikasi Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini erkin amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.</p>
	<p>Nikoh erkak va ayol o'rtasida tuzilgan ixtiyoriy bitim bo'lib, FHDY – fuqarolik holati dalolatmalarini yozish organi orqali rasmiylashtiriladi.</p>
	<p>Nikohdan oldin nikoh yoshiga yetish, turmush qurish uchun unga har tomonlama tayyor bo'lish, yaxshi kasbni egallash, er-xotin oldida turgan burchlarini tushunish zarur.</p>
	<p>Erkak va ayol o'rtasidagi munosabatni rasmiylashtirish shart. Chunki ikki shaxs rasmiylashtirilmagan nikoh munosabatida yashasa, ular o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy munosabatlar qonuniy tarzda tartibga solinmaydi. Masalan, ajrim, nafaqa olish, vorislik huquqi, turarjoy, farzandlar bilan bog'liq muammolar faqat qonun orqali hal qilinadi.</p>



I.2. Darslikdagi mavzuga qisqacha izoh bering.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilarga darslikdagi mavzu matni bilan tanishib, quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi (ushbu jadvalni 50-betdagi intellekt xarita yordamida to'ldirish mumkin):

Nikoh tuzish shartlari	Nikohga monelik qiladigan holatlar

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

## III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "To'g'risini top" jadvalini to'ldirish taklif etiladi.

### To'g'risini top Qanday hollarda FHDY yoki sudda ajrim holatlari ko'riladi?

No	To'g'risini top	FHDYda	Sud tartibida
1	Er-xotin o'rtasida umumiy voyaga yetmagan farzandlar borligi		
2	Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi to'g'risida kelishuv bo'lmaganida		
3	Voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin o'zaro rozi bo'lishsa		
4	Aliment majburiyatlari kelishuvining yo'qligi munosabati bilan		
5	Er-xotin o'rtasida mulkiy nizo bo'lganida		
6	Umumiy voyaga yetmagan bolalari bor-yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasi bo'yicha		
7	Er-xotindan biri FHDY organlarida nikohdan ajralishdan bosh tortayotgan bo'lsa		

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

#### 1-vaziyat

FHDY xodimi ariza bergan kelin bo'lajak kuyovning jiyani ekanligini bilgach, nikohni rasmiylashtirishga e'tiroz bildirdi. Ushbu vaziyatda FHDY xodimining e'tirozi to'g'ri deb o'ylaysizmi? Sizningcha, nikohlanuvchilar qanday yo'l tutishlari lozim?

Oila kodeksining 16-moddasiga muvofiq, nikoh tuzilayotganda boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida, nasl-nasab shajarasi to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun ushbu vaziyatda FHDY xodimining e'tirozi to'g'ri, nikohlanuvchilar nikohdan o'tishlari mumkin emas.

#### 2-vaziyat

FHDY organida nikohdan o'tishda S. boshqa nikohdaligi va bolasi borligini bo'lajak xotini M.dan yashirgan edi. Bu nikoh qonuniy deb hisoblanadimi? Agar qonuniy kuchga ega bo'lmasa, M. sudga murojaat qilish huquqiga egami?

**Javob:** bu nikoh qonuniy emas. Oila kodeksining 16-moddasida loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzish mumkin emasligi belgilangan.

Oila kodeksining 52-moddasiga ko'ra, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda tuzilgan nikohi haqiqiy emas deb topiladi.

Agar ish hal qilinish paytigacha nikohni tuzish uchun monelik qiladigan holatlar tugagan bo'lsa, sud nikohni o'sha holatlar tugagan paytdan boshlab haqiqiy deb topishga haqli.

Ushbu Kodeksning 16-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha nikohni haqiqiy emas deb topishni er-xotin, shu nikohning tuzilishi natijasida huquqlari buzilgan shaxslar, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Shunday ekan, bu nikoh qonuniy emas, shu bilan birga haqiqiy emas deb topilishi uchun M. sudga murojaat qilish huquqiga ega.





## 13-DARS. OILADA ER-XOTIN VA OTA-ONANING HUQUQIY MAQOMI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **“Tushunchalarni aniqlash”** jadvali yordamida o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

	MAVZUGA OID TUSHUNCHALAR	TUSHUNCHALAR MAZMUNI
1		
2		
3		
4		

Masalan:

	MAVZUGA OID TUSHUNCHALAR	TUSHUNCHALAR MAZMUNI
1	O'zbekistonda oila institutining rivojlantirilishi	Davlat onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilish, har bir oilani, undagi sog'lom ma'naviy muhitni asrab-avaylash, er-xotin, ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi mehr-oqibat hissini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda.
2	Er-xotin, ota-ona va farzandlar haq-huquqlarini himoya qilishga oid yangicha boshqaruv tizimining yaratilganligi	Ota-onasi tomonidan bolaning tarbiyalanishi, kamol topishi, jismonan va ma'nan sog'lom ulg'ayishi uning mustaqil hayotga to'la layoqatli bo'lishiga zamin yaratadi.
3	Bola tarbiyasiga oid me'yorlarni belgilab beradigan hujjat	O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
4	Er-xotinning huquq va majburiyatlari vujudga kelishi	Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzgan erkak va ayol er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlar vujudga keladi.
5	Er-xotinning huquq va majburiyatlari	1) shaxsiy huquq va majburiyatlar 2) mulkiy huquq va majburiyatlar

6	Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari	Er-xotinga birga yashash imkoniyatini beruvchi, bir-biriga bo'lgan mas'uliyatini belgilovchi huquqiy maqom mulk bilan bog'liq bo'lmaydi, bu huquq va majburiyatlar birovga o'tkazilishi mumkin emas.
7	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va majburiyatlar	Er-xotin shaxsiy huquq va erkinliklar hamda burchlar bilan bir qatorda oila sharoitida, bola tarbiyasida er-xotinlik huquq va majburiyatlariga ham ega bo'ladilar.
8	Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari	Er-xotinning nikohgacha mavjud bo'lgan mulki ularning shaxsiy mulki, nikoh davrida orttirilgan mulklari umumiy mulk hisoblanadi.
9	Nikoh shartnomasi	Er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.
10	Nikoh shartnomasida nazarda tutiladigan huquq va majburiyatlar	Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilab oladi.
11	Ota-onalik maqomining vujudga kelishi	Oilada farzand dunyoga kelganda er-xotin ota-ona maqomiga ega bo'ladi, bu maqom ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydi, uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksida o'z aksini topgan.
12	Oilada ota-onaning huquq va majburiyatlari	"Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" degan huquqiy me'yor konstitutsiyaviy asosga ega.

"Tushunchalarni aniqlash" jadvali orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'zlashtiriladi.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/104720>.
3. O. T. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 400 b.



4. Fuqarolik va oila huquqi. T. Xolmo'minov. N. S. Narmatov N. A. Qo'ldoshev. 2015. 432–438-betlar.


**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. Oila kodeksining 4-, 5-, 6-boblaridan foydalanish mumkin.

2. Konstitutsiyaviy huquq. Husanov O. T. 2020. Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, 182-bet. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari, 185-bet.

3. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son.


**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Huquqiy atamalar ketma-ketligi" usulidan foydalanish tavsiya etiladi.



## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Menga so'z bering!" metodini qo'llash tavsiya etiladi.

### "Menga so'z bering!" metodi

Metod o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarni dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'limiy hamkorlikni qaror topshirishga yordam beradi. Mashg'ulotlarda metodni qo'llash orqali o'quvchilar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida o'z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar ishtirokida metodni qo'llash quyidagi tartibda tashkil etiladi.

1. O'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha aniq muammolarni tanlaydi.
2. O'quvchilarning muammolar yuzasidan fikr yuritishlari uchun vaqt (3 daqiqa) belgilanadi.
3. O'quvchilar muammo yuzasidan mushohada yuritadi.
4. Belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'quvchilar navbatma-navbat muammoning yechimi xususidagi fikrlarini bildiradi.

5. Jamoa o'qituvchi yordamida eng yaxshi yechimni aniqlaydi va xulosa chiqariladi.

Quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. Oilada er-xotinning huquqiy maqomi qanday vujudga keladi?
2. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari deganda nima tushuniladi?



3. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini siz qanday tushunasiz?
4. Ota-onaning huquqiy maqomi qanday vujudga keladi?
5. Ota-onaning huquq va majburiyatlari deganda nima tushuniladi?
6. Ota-ona farzandining huquq va manfaatlarini qanday himoya qiladi?

Javoblar:

1. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzgan erkak va ayol er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari, ya'ni er-xotinning huquqiy maqomi vujudga keladi.

2. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari deganda er-xotonga birga yashash imkoniyatini beruvchi, bir-biriga bo'lgan mas'uliyatini belgilovchi huquqiy maqom tushuniladi.

3. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlariga er va xotinning familiya tanlash huquqi, er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi huquqi, er va xotinning mashg'ulot turi tanlash, kasb tanlash va turarjoy tanlash huquqlari, er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyatlari kiradi.

4. Oilada er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

5. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda er va xotin birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga ega bo'ladilar.

6. Nikohlanuvchi shaxslarning, shuningdek, er va xotinning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi ham bo'lishi mumkin. Bu kelishuv nikoh shartnomasi deb ataladi. Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab oladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Konseptual jadval" chizmasini to'ldirish topshiriladi

#### Konseptual jadval

O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Konseptual jadval tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Taqqoslanadigan narsa aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar ajratiladi.

Yakka tartibda yoki kichik guruhlarda konseptual jadval tuziladi va u to'ldiriladi; vertikal bo'yicha taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar) joylashtiriladi; gorizonta bo'yicha taqqoslashni amalga oshirishdagi har xil tavsiflar joylashtiriladi.

### Konseptual jadval

O'quvchilar kichik guruhlarga taqsimlanadi va ularga topshiriqlar beriladi.

OILADA	ER-XOTINNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	OTA-ONANNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI
Nikoh munosabatlarida		
Shaxsiy munosabatlarda		
Mulkiy munosabatlarda		
Farzandlar tarbiyasida		
Familiya tanlashda		
Oila turmushi masalalarida		
Nikoh shartnomasini tuzish jarayonida		

#### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajarish uchun ko'rsatmalar.

1. A. to'rt yil S. bilan nikoh munosabatida yashadi. Birgalikda turarjoy olishdi. A. uyni S. ning nomiga rasmiylashtirdi. A. ajralish maqsadida sudga shikoyat arizasi bilan murojaat qilib, turarjoyini bo'lib berishni so'radi. S. arizadagi shikoyatni rad etdi va turarjoy faqat unga tegishli ekanligini aytdi.

Savol:

1. S. ning xatti-harakati to'g'rimi?
2. Sizningcha, sud qanday qaror qabul qiladi?
3. Javobingizni Oila kodeksidagi me'yorlar bilan asoslab bering.

Bu vaziyatda S. ning xatti-harakati noo'rin. Oila kodeksining 23-moddasida bu haqda ma'lumot olish mumkin.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo'shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulknini bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.



Umumiy mol-mulkni bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qarashli ulushdan oshiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulk beriladigan hollarda xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

2. Oila tarqalib ketdi, ota kasalmand bolali onaga yordam berishdan bosh tortdi. Ayol bir necha-marta iltimos qilishiga qaramay, ota bunga e'tibor bermadi, ba'zida hatto qo'pollik bilan: "Menga sen ham, bola ham kerak emas", deb javob berdi.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.

**Savol.** Ona va farzand huquqlarini himoya qilishning qanday huquqiy me'yorlari mavjud? Bu vaziyatda ayol va farzandning huquqlari poymol etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 67-moddasida voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalani huquqiga ega.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart.

73-modda. Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari.

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

75-modda. Ota-onalik huquqini amalga oshirish.

Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo'lishi kerak. O'z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-ona qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasida ham javobgarlik belgilab qo'yilgan.




## 14-DARS. OILADA BOLALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. "Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxemasi yordamida o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi sxemani chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

#### "Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxemasi



"Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxemasi yordamida o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida siz uchun yangi va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiring.



## Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 1998.
3. O. T. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 400 b.
4. U. Sharahmetova. Bola huquqlarini amalga oshirishning asosi sifatida – uning yashashga bo'lgan huquqi. // 2022-yil.
5. B. Mustafayev. Oila instituti mustahkamligi jamiyat tinchligi va rivojlanishining kafolati // 2022-yil
6. Fuqarolik va oila huquqi. T. Xolmo'minov, N. S. Narmatov, N. A. Qo'ldoshev.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

Oila kodeksining IV bo'lim 11-bobi: “Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari”.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.

## BOLALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ota-onaga g'amxo'rlik qilish



Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish



O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylash



Bilim olish va kasb – hunar tanlash



Boshqa shaxslarning mulkiy huquqlariga zarar yetkazmaslik



Boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish



Atrof tabiiy muhitini asrash



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun “Berilgan fikrni to'ldiring” va “Munosabat bildiring” topshirig'idan foydalanish tavsiya qilinadi (quyidagiga o'xshash fikrlar doskaga yozib qo'yiladi yoki tarqatma shaklida o'quvchilarga taqdim etiladi).

1. Oila jamiyatning asosiy (tayanchidir, bo'g'inidir, suyanchidir).
2. Ota-onalar o'z farzandini (boqish, tarbiyalash, ta'minot berish, himoyalash, g'amxo'rlik qilish)ga majburdirlar.

3. Farzand oilaning (chirog'i, suyanchi, kelajagi, ko'zgusi).
4. Onalik va bolalik davlat tomonidan (himoya qilinadi, muhofaza qilinadi, qadrlanadi, e'zozlanadi).

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Assesment" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

### "Assesment" metodi bo'yicha topshiriq namunasi

<p style="text-align: center;"><b>Test</b></p> <p>1. Kimlar bola hisoblanadi? A) 14 yoshga to'lmaganlar B) 18 yoshga to'lmaganlar</p> <p>2. Onalik va bolalik kim tomonidan himoya qilinadi? A) jamiyat tomonidan B) davlat tomonidan</p>	<p style="text-align: center;"><b>Muammoli vaziyat</b></p> <p>Mening yoshim 15 da, ismimni o'zgartirishni istayman.</p>															
<p style="text-align: center;"><b>Belgilari</b></p> <p>Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Fikrni asoslab bering.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Amaliy ko'nikma</b></p> <p style="text-align: center;">Jadvalni to'ldiring</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th style="width: 33%;">Oilada bolaning huquqlari</th> <th style="width: 33%;">Bolaning tarbiyalanishga bo'lgan huquqi</th> <th style="width: 33%;">Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </tbody> </table>	Oilada bolaning huquqlari	Bolaning tarbiyalanishga bo'lgan huquqi	Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari												
Oilada bolaning huquqlari	Bolaning tarbiyalanishga bo'lgan huquqi	Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari														

**Assesment topshirig'ining javoblari:** 16 yoshga to'lguncha ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan, 16 yoshga to'lgach, o'z arizasiga binoan ismini, unga berilgan familiyani FHDY organi orqali o'zgartirishga haqli.

**Agar ota-ona alohida yashasa** va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek, ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzrsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 70-modda. Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish.**



Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan, bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek, unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, uning familiyasini onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

O'n yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### **III. Refleksiya bosqichi.**

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Keys" texnologiyasidan foydalaniladi.

## **KEYS**

– Bir kuni maktabdan kech qaytdim, – deb o'quvchi qiz hikoya qiladi, – uyga kelganimda onam kech qolganligimning sababini so'ramasdan qattiq urishdi. Buning ustiga, maktabda berilgan topshiriqlarni ham bajarolmagan edim. Shuning uchun onamga noo'rin gapirib, ranjitib qo'ydim. Bo'lib o'tgan voqeadan so'ng onamning qon bosimlari ko'tarilib, sog'liqlari yomonlashdi. Bu vaziyatda o'zimni aybdor his qilsam-da, onamdan uzr so'ramadim.

Ertasiga maktabda kimyo darsida o'qituvchi meni doskaga chaqirdi. Eshitmay qolibman, orqa partada o'tirgan sinfdoshlarim doskaga chiqishga undadi. Avval bundan jahlim chiqdi va hech narsaga tushunmay, atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf o'quvchilari mening ustimdan kuldi. O'qituvchi: "Nima bo'ldi?" deb so'radi. Men xotirjam holda: "Bilmadim", dedim va doskaga chiqdim. O'qituvchining savollariga juda yaxshi javob berdim va joyimga o'tirdim. O'qituvchi esa men u to'g'risida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb o'ylagan bo'lsa kerak, o'sha kundan boshlab menga sovuq munosabatda bo'lishni boshladi. Bolalar nima uchun kulishganini o'qituvchiga ochiq ayta olmadim va o'qituvchidan qochib yuradigan bo'ldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men kimyo fani asoslarini puxta o'zlashtirdim, biroq bu fandan bo'ladigan darslarga qatnashish ishtiyoqi pasaydi.

### **Savollar:**

1. Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari nimadan iborat?
2. Yuqorida berilgan vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

### **Keysni yechish jarayoni:**

1. O'quvchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch-marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. O'quvchi sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. O'quvchi (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq daxldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. O'quvchi (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Vaziyatning yechimiga tavsiya etiladigan qoidalar:

1. Voyaga yetmagan farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlariga:

– ota-onalarga va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga bo'ysunish, ularning g'amxo'rligi va tarbiyasini qabul qilish;

– ta'lim va tarbiya muassasalarida, uyda va jamoat joylarida o'rnatilgan xulq-atvor qoidalariga rioya qilish va boshqalar kiradi.

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

OILADA BOLALARNING	HUQUQLARI	MAJBURIYATLARI

#### Savollar:

1. Oilada bola qanday huquqlardan foydalanadi?
2. Bolaning tarbiyalanish huquqi deganda nima tushuniladi?
3. O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarining kafolatlariga oid qanday me'yorlar o'rnatilgan?
4. Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlariga nimalar kiradi? Ularning qisqacha mazmunini bayon eting.

#### Javoblar:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasining g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, shuningdek, bola ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish, o'zini himoya qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish, ism, otasim va familiya olish huquqlariga ham ega.

2. Bolani o'z ota-onasi tarbiyalaydi. Bola o'z manfaatlarining ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bular BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Oila kodeksi va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ham o'z ifodasini topgan.

4. Bola huquq va erkinliklar bilan bir qatorda majburiyatlarga ham ega.

Bu esa farzandlarning ota-onalari gaplariga quloq tutishlari, ota-onalar buyurgan uy yumushlarini bajarishlarida namoyon bo'ladi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

#### Topshiriq.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasida belgilangan quyidagi huquq me'yorlaridan siz kundalik hayotda foydalanyapsizmi? Asoslab bering.

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turarjoy daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalani huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas...



## 15-DARS. OTA-ONA HAMDA BOLALARNING ALIMENT HUQUQI VA MAJBURIYATLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **“Matnni tahrir qilish”** metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Matn ustida ishlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchiga mukammal matn haqida tushuncha berish, undagi ijodiy tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, aniq yo'nalishda, izchil, mantiqli mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga tayyorlashdan iborat. Masalan, quyidagidek jadval tuzib, matnni tahrirlash tavsiya etiladi.

<b>Aliment tushunchasi</b>	Aliment (lot. alumentum – qaramog'idagi, boqimidagi) – bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi,
<b>Aliment turlari</b>	Nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlik, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida kelib chiqadi.
<b>Ota-ona va bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari</b>	Ota-onalar hamda bolalarning aliment borasidagi huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (1998-yil 30-aprel) va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ularga binoan, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.
<b>Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati</b>	Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.
<b>Ota-onaning voyaga yetgan bolalariga ta'minot berish majburiyati</b>	Ota-ona voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shartdir.
<b>Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdorini aniqlash tartibi</b>	Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.
<b>Bolalarga beriladigan aliment miqdori</b>	Bir bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining to'rttan bir qismi; ikki bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining yarmisi miqdorida undiriladi.

**I.1.** Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2023-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, <https://lex.uz/acts/104720>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, 07.03.2022-yildagi PF-87-son.


**1.2. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasining aliment to'g'risidagi qonun normalarini O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-bo'limi 14-bobi (Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari) dan bilib olish mumkin.

2. "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida nizom", 2018-yil 6-oktyabr, 808-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori – "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida", 29.07.2016-yildagi 11-son.

**II. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" topshirig'i beriladi.

Masalan, "Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari" mavzusi bo'yicha dastlab o'qituvchi doskaga huquq va majburiyatlarni chalkashtirib yozib qo'yadi. So'ng o'quvchilarga mazkur tushunchalarni qaysi guruhga kirishiga qarab, huquqlarni xususiyatlariga ko'ra ajratish topshiriladi. Bu metod yordamida o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish mumkin.

1) ta'minot berish; 2) moddiy yordam olish; 3) aliment to'lashda ota-ona o'rtasida kelishuv; 4) tarbiyalash; 5) moddiy ta'minot berish; 6) bolalarga g'amxo'rlik; 7) boqish; 8) g'amxo'rlik qilish; 9) ta'minot olish; 10) ta'lim berish.

Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	
Aliment huquqi	Aliment to'lashda majburiyatlar
2) moddiy yordam olish	1) ta'minot berish
.....	.....

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "BBB" metodini qo'llash tavsiya etiladi.

Mavzuga doir asosiy tushunchalar	Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim
1. Aliment.....	Bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi.		
2. Aliment turlari .....			
3. Aliment majburiyatining kelib chiqishi.....			Nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlik, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida kelib chiqadi.
.....			

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Do'stingni top" o'yinidan foydalaniladi.

O'quvchilariga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda o'tilgan mavzuga doir jumlar va jumlaning javoblari yoziladi. Jumlar ketma-ketlikda, navbati bilan o'qiladi, shu jumlaning davomi kimda bo'lsa, davom ettiradi.

**Masalan:**

No	Jumlalar	Javoblar
1	<b>Aliment</b>	bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi
2	<b>Aliment majburiyati</b>	nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlik, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida kelib chiqadi
3	<b>Aliment to'lash</b>	ota-onaning o'zaro kelishuvi bilan, ixtiyoriy
4	<b>Aliment ixtiyoriy to'lanmaganda</b>	sud tomonidan hal qilinadi va ota yoki onadan aliment undiriladi
5	<b>Alimentdan qarzdorlik</b>	transport vositasini boshqarish huquqi vaqtincha cheklanadi, nikoh tuzish uchun monelik qiladigan holat vujudga keladi
6	<b>Aliment to'lovlari jang'armasi</b>	aliment to'laydigan shaxs alimentni uch oy ichida to'lay olmagan hollarda qarzdorlik to'lanadi va keyinchalik aliment to'lash majburiyati yuklatilgan qarzdordan majburiy tartibda undirib olinadi
7	<b>Ota-onaning majburiyatlari</b>	ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalash va ularga ta'lim berishga majburdirlar
8	<b>Farzandlarning majburiyatlari</b>	o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar
9	<b>Bolalarga beriladigan aliment miqdori</b>	bir bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining to'rttdan bir qismi; ikki bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – aliment beruvchining har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining yarmisi miqdorida undiriladi
10		

**III.2.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish topshirig'i beriladi.

**1-vaziyat:** Aliment undirishga sud buyrug'i chiqqan, qarzdor aliment qarzdorligi uchun umumiy mulklari bo'lgan uydagi ulushini bermoqchi, undiruvchi ham shunga rozi. Kelishuvning tartibi qanday bo'ladi? Shu bilan aliment undirish haqidagi ijro ishi tamomlanishi va qayta qo'zg'atilmasligi kerak.



## Javobi:

Oila kodeksining 139-moddasiga ko'ra, aliment qarzi aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadidan undiriladi.

Bunda ish haqi va (yoki) boshqa daromadi yetarli bo'lmaganda aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning:


- banklar va tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida turgan pul mablag'idan;
- tijorat va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga shartnoma asosida o'tkazilgan pul mablag'idan undiriladi.

Bu mablag' yetarli bo'lmaganda undirish aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning qonun bo'yicha undirish qaratilishi mumkin bo'lgan har qanday mol-mulkiga qaratiladi.

Ushbu qoidaning mazmuniga ko'ra, undiruvni mol-mulkka qaratish huquqiy asosga ega.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi qonunning

37-moddasiga ko'ra, undiruvchi va qarzdor o'rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilganda yoki undiruvchi va qarzdor o'rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilganda ijro ishi yuritish sud tomonidan tugatiladi.



Ushbu qoidaning mazmuni shundan dalolat beradiki, yuqoridagi vaziyatda sud orqali er-xotin o'zaro kelishuvga erishsa va kelishuv bitimini tuzishsa, sud ushbu ijro ishini tugatadi.

Biroq bir narsani esingizdan chiqarmang, har qanday holatda ham bola 18 yoshga to'lmaguncha uni qaramog'iga olgan ota yoki ona ikkinchi tarafga

aliment haqida da'vo qilish huquqini saqlab qoladi.

**2-vaziyat.** M. va B. 2017-yil 10-iyunda qonuniy nikohdan o'tgan, o'rtada ikkita farzandlari bor. O'zaro munosabatlar yomonlashib, 2021-yilda ular ajrashishdi. Bolalar ona tarbiyasida qolib, ota-ona aliment to'g'risida kelishuv tuzdi. Unga ko'ra B. har oyda M. foydasiga 500 000 so'm miqdorida ta'minot to'lash majburiyatini oldi. Shunday bo'lsa-da B. o'z majburiyatlarini bajarmasdan, alimentni to'lamadi. Bu holatda qanday yo'l tutish zarur?

**Javobi:** *M. tegishli sud ijrochilari bo'linmasiga murojaat qiladi. Murojaati qanoatlantirilib, tuzilgan kelishuvga binoan, aliment majburiy tartibda undiriladi.*

**3-vaziyat.** N. va D. 2015-yil 16-sentyabrda qonuniy nikohdan o'tgan va uch nafar farzand ko'rgan. 2020-yilda N. va D. ajrashgan va uchta farzand N. tarbiyasida qolgan. D. bir yil davomida farzandlariga moddiy yordam ko'rsatib, so'ng yordamni to'xtatgan. N. hech qayerda ishlamasdan, bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul edi. N. 2021-yil 1-avgustdan boshlab farzandlarning ta'minotiga to'lar voyaga yetguniga qadar qonunda belgilangan alimentni undirish bo'yicha sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilgan.

**Javobi:** *Sud Oila kodeksining 96-moddasiga binoan, N.ning talabini qanoatlantirib, uning foydasiga 2021-yil 1-avgustdan to' farzandlari voyaga yetgunlariga qadar D.ning har oylik*

ish haqi va jami daromadining  $\frac{1}{2}$  qismi miqdorida aliment undirish to'g'risida sud buyrug'i chiqargan.

Aliment to'lashdan bo'yin tovlaydigan qarzdorlarni javobgarlikka tortish belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 474-moddasiga ko'ra, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib 2 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik 15 sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi mumkin yoki ma'muriy qamoq qo'llanishi mumkin bo'lmagan shaxslarga BHMning 20 baravari miqdorida jarima solinishi mumkin.

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish jarayonida aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi. Qarzdorlarga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanganidan so'ng ham aliment to'lash majburiyati bajarilmasa, bu ularni jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 122-moddasiga asosan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib 2 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilsa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

### **III.2. Mustaqil ishni bajartirishga doir ko'rsatmalar.**

Fuqaro A. fuqaro B. bilan 2020-yil turmush qurishdi. 2021-yilda ularning egizak farzandlari dunyoga keldi. Ammo oradan bir yil o'tgach, er-xotin o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi va oila ajrashadi.

Eri ikkala farzandini o'zida qoldirdi va farzandlari uchun barcha sharoitni yaratib berdi. Xotini farzandlari erida qolishiga e'tiroz bildirmadi. Bolalarning otasi farzandlarini boqib, ularga ta'lim-tarbiya berdi. Xotini bu davrgacha eri bilan yashamayotganligi sababli bolalaridan xabar ham olmadi.

2023-yilda eri aliment undirish masalasi bo'yicha sudga da'vo arizasi kiritdi. Sudda bolalarning onasi: "Aliment bermayman, erim o'z xohishi bilan bolalarimni olib qolgan", deb aliment berishdan voz kechdi.

#### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **Farzandlarning otasi onadan aliment undirishi mumkinmi?**

#### **Aliment to'lamaslik uchun ona keltirgan vajlar to'g'rimi?**

#### **Oila kodeksini o'rganib, fikrlaringizni asoslab bering.**

*Bilamizki, oila to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari sifatida oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishi hamda bu huquqlarning himoya qilinishini*



ta'minlash kabi jihatlar e'tirof etiladi. Bundan kelib chiqadiki, oilaviy munosabatlar va o'zaro oilaga daxldor bo'lgan vaziyatlarda shaxslarning huquqlari himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ota-onalarning farzandlarning ta'lim va tarbiyasidagi majburiyatlari belgilab berilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati.**

*Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.*

Farzandlarning otasi onadan aliment undirishga haqli. Bu oila kodeksining 97-moddasida ko'rsatilgan. 97-moddaga ko'ra, voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir.

**98-modda. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash tartibi.**

*Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar.*

*Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota-ona o'rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.*

**116-modda. Aliment to'lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik**

*Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ushbu Kodeksning 79-moddasiga asosan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.*

## 16-DARS. IJODIY FAOLIYAT

### Namuna

#### 1-topshiriq. Quyidagi vaziyatni o'rganing va savollarga javob bering.

Maktabni tugatish arafasida turgan 16 yoshli qizning uyiga sovchilar kela boshladi. Qizning 80 yoshli buvisi har safar sovchi kelganida: "Menga sening to'yingni ko'rish nasib qilarmikan?" deb ko'ziga yosh olar, o'g'liga umidvor qarab qo'yar edi. Bu holatni ko'rgan qizning otasi: "Siqilmang, onajon, yozga chiqib, to'y qilamiz", deb onasini yupatardi. Qizning onasi esa: "Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas", deb sovchilarga rad javobini berib yuboradi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Vaziyatni tahlil qiling.
2. Sizningcha, "Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas" deganda qizning onasi nimani nazarda tutgan?
3. Nikoh va oila munosabatlarining huquqiy asoslarini yoritib bering.
4. Nikohni rasmiylashtirish tartibini bayon eting.

#### Javob

Keltirilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish uchun birinchi navbatda, oila, oila qurishning huquqiy asosi bo'lgan qonunchilik hujjatlarini o'rganish zarur.

Oila to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari sifatida oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirish hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash kabi jihatlar e'tirof etiladi. Bundan kelib chiqadiki, oilaviy munosabatlar va o'zaro oilaga daxldor bo'lgan vaziyatlarda shaxslarning huquqlari himoya qilinadi.

Mazkur vaziyatda 16 yoshli qizning turmush qurishi masalasi uning buvisining qistovi va otasining majburlovi ostida bo'lishi ehtimoli bor. Qizning onasi ham 16 yoshli qizning xohishi emas, oilaga tayyor emasligi vaji bilangina to'yga rozi emas. Mazkur holatda oila qonunchiligidagi asosiy prinsiplardan biri bo'lgan fuqarolarning oilaviy munosabatlarga kirishish huquqlari faqat o'z xohishlariga ko'ra amalga oshirilishi holati buzilishi kuzatilmoqda. Ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odatlar va an'analar ustunligi tan olinib, ota-onaning tavsiyasi, qarindoshlarning maslahati bo'yicha oila qurish mumkin, ammo bu shaxsning ixtiyori va erkiga qarshi bo'lmasligi lozim. Buning asosiy sababi sifatida oiladagi mustahkamlik, o'zaro ishonch, haqiqiy oilaviy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun oilada er-xotinning o'zaro roziligi va ixtiyoriga ko'ra oila qurilganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Ota-onaning farzandi taqdirini hal qilishda asosiy rolni o'ynash oila qonunchiligi normalarini buzmasligi lozim. Zero, Oila kodeksining 10-moddasiga binoan, oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shartligi belgilangan.



Nikoh tuzish masalasini huquqiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, nikoh tuzish ixtiyoriydir hamda nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

Oila kodeksining 15-moddasiga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. Muammoli vaziyatda qiz 17 yoshdaligi u hali nikoh yoshiga yetmaganligini bildiradi. E'tiborli jihati, qonunchilikda uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Demak, uzrli sabab sifatida keltirilgan holatlarga oila a'zolaridan birining xohishi emas, aynan turmush quruvchilarning o'z xohishiga ko'ra murojaati asosida tuman, shahar hokimi nikoh yoshi masalasini bir-yilga kamaytirishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, qizning buvisining yoki otasining xohishiga ko'ra nikoh qurishi oila qonunchiligiga zid bo'lib, faqatgina qizning o'z ixtiyoriga bilan nikoh qurishga roziligi va iltimosiga ko'ra, 17 yoshda turmush qurishga imkoniyat yaratilishi mumkin.

Nikoh tuzishni rasmiylashtirish tartibiga kelsak, nikoh tuzishni xohlovchi shaxslar bu to'g'rida ariza bilan murojaat etgan kundan keyin bir oy o'tgach, ulardan birining yashash joyidagi FHDY organi tomonidan qayd etiladi.

Uzrli sabablar bo'lganda arizachilarning iltimoslariga ko'ra, bir oylik muddatni qisqartirish mumkin. Bunda uzrli sabablarni tasdiqlovchi – bolalarining tug'ilganligi haqidagi guvohnomalari, tibbiyot muassasasining kelinning homiladorligi haqidagi ma'lumotnomasi, xizmat safari to'g'risidagi guvohnoma va shu kabi hujjatlar ko'rsatiladi. FHDY organlari tomonidan arizani qabul qilishda tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Nikohlanuvchilar o'zlari doimiy yoki vaqtincha yashaydigan hududdagi poliklinikada tibbiy ko'rikdan o'tib, uning xulosalarini FHDY organiga taqdim etishlari kerak. 50 yoshgacha nikoh tuzuvchi shaxslar OIV infeksiyasi yuzasidan tibbiy tekshiruvdan majburan o'tishi kerak. Nikohlanuvchi shaxslarning iltimosi va otasi yoki onasining yozma arizasiga ko'ra, nikoh ota-onasining yoki ulardan birining yashash joyidagi FHDY organida ham qayd etilishi mumkin.

**2-topshiriq. Oilaviy huquqiy munosabatlardagi ayrim muammolarni tahlil qiling va jadvalni to'ldiring.**

Muammo	Sabab	Oqibat	Yechim
<b>Erta nikoh</b>			
<b>Oiladagi mulkiy nizolar</b>			
<b>Farzandlar ota-ona oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi</b>			
<b>Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh</b>			
<b>Bolalarga aliment to'lamaslik</b>			
<b>Ota-onalarga g'amxo'rlik qilmaslik</b>			

## NAZORAT ISHI

### Bob yuzasidan test savollari

#### 1. Nikoh bu – ...

- a) ikki yoshning FHDY organida ixtiyoriy bitim rasmiylashtirishi
- b) erkak va ayolning bitimi
- c) erkak va ayolning birga yashashi, umumiy ro'zg'orga ega bo'lishi
- d) erkak va ayol FHDYda ixtiyoriy kelishuv rasmiylashtirishi

#### 2. Er-xotinning huquq va majburiyatlari vujudga kelish vaqtini aniqlang.

- a) nikoh FHDYda qayd etilgan vaqtdan
- b) FHDYga ariza berilgan kundan
- c) to'y marosimlari o'tgan kundan
- d) unashtirilgan kundan

#### 3. Er-xotinning familiyasi nikoh tuzishda o'zgaradimi?

- a) o'z familiyasida qolishi, er yoki xotinning familiyasiga o'tishi mumkin
- b) erining yoki xotinning familiyasiga o'tishi mumkin
- c) faqat erining familiyasiga o'tishi kerak
- d) har biri o'z familiyasida qoladi

#### 4. Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkini aniqlang.

- a) nikohdan o'tgan kundan boshlab orttirilgan mulk
- b) ota-onadan meros bo'lib qolgan mulk
- c) er-xotinning nikohdan oldingi va keyingi mulklari
- d) turarjoy, mashina va shularga teng keladigan mulklar

#### 5. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar farzandlariga ta'minot beradilarmi?

- a) bermaydi
- b) beradi
- c) berish-bermaslik ularning xohishi
- d) imkoniyati bo'lsa, beradi

#### 6. Nikohni bekor qilish tartibini ko'rsating.

- a) FHDY yoki sudda
- b) faqat FHDYda
- c) sud va hokimlikda
- d) faqat sudda

#### 7. FHDYga ariza bergandan keyin nikohni qayd etish muddati qancha?

- a) 1 oy
- b) 2 hafta
- c) 20 kun
- d) 10 kun

#### 8. Nikoh tuzishga monelik qilmaydigan holatlarni aniqlang.

- a) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa
- b) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida bo'lsa
- c) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa
- d) ota-onalarining o'zaro kelishuvi bo'lmasa



**9. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi kim tomonidan amalga oshiriladi?**

- vasiylik
- homiylilik
- qarindoshlar
- buvisi va bobosi

**10. "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, onun oldida tengdirlar" degan qoida qaysi huquqiy hujjatda belgilangan?**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida
- Fuqarolik kodeksida
- Oila kodeksida
- Mehnat kodeksida

**Javoblar:**

T/r	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
J	D	A	A	A	B	A	A	D	B	A

**Topshiriq.** Qanday hollarda ajrim holatlari FHDYda yoki sudda ko'riladi? 3–4-ustunga "+" belgisini qo'yish orqali qaysi organga tegishli ekanini aniqlang.

No	Holatlari	FHDY organlarida	Sudda
1	Er-xotin o'rtasida umumiy voyaga yetmagan farzandlar borligi		+
2	Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi to'g'risida kelishuv bo'lmaganida		+
3	Voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin o'zaro rozi bo'lsa	+	
4	Aliment majburiyatlari kelishuvi yo'q bo'lsa		+
5	Er-xotin o'rtasida mulkiy nizo bo'lganida		+
6	Umumiy voyaga yetmagan bolalari bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining roziligi bo'lmasa		+

### III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR






## 17-DARS. FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing.

**Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Insert chizmasi asosida quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.



- “V” – men biladigan ma'lumotlar;
- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqda men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.


Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituitsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189#152499>
3. X. T. Mamatov. Huquqshunoslik. – Toshkent: Adolat, 2016. – 352 b.
4. M. Abdusalomov. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi, darslik, 2-qism.
5. I. Zokirov. “O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi” 1-qism, 1996; 2-qism, 1999.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.


**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt karta tuzish tavsiya etiladi.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi beriladi.





## 1-kazus (Fuqarolik huquqi)

Fuqaro Davletov o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan uy-joy – kvartirani fuqaro Botirovga notarial tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasiga asosan taraflar o'rtasida kelishilgan narxda sotdi. Taraflar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi tuzishdan oldin o'zaro og'zaki kelishish jarayonida kvartiradagi muzlatkich va bir dona konditsionerni qoldirish to'g'risida kelishildi. Biroq fuqaro Botirov kvartiraga ko'chib kirishi vaqtida xonalardagi konditsioner va muzlatkich fuqaro Davletov tomonidan boshqa fuqaroga hadya qilib yuborilgani ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, sotilgan kvartiradan foydalanish huquqiga ega bo'lgan fuqaro Davletovning qarindoshlari oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilmagan.

Fuqaro Botirov fuqaro Davletov tomonidan o'zaro kelishuv shartlaridagi majburiyatlar bajarilmaganligini ta'kidladi va unga nisbatan da'vo ariza bilan sudga murojaat qilib, hadyani bekor qilishni, Davletovning qarindoshlarini foydalanish huquqidan mahrum qilishni so'radi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

Kazusga javob berishdan avval, oldi-sotdi shartnomasi va hadya shartnomasi masalalariga huquqiy jihatdan oydinlik kiritib olsak. Oldi-sotdi ham, hadya ham shartnoma turlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 386-moddasida oldi-sotdi shartnomasi haqida "Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi", deb belgilab qo'yilgan. Fuqarolik kodeksining 502-moddasida esa "Hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi", deyilgan. Mazkur ikki shartnoma turi ham og'zaki, ham yozma shaklda tuzilishi mumkin.

Vaziyatga huquqiy baho berishda, dastlab, muammoli vaziyatlarni belgilab olib, har biriga alohida javob beramiz.

**Taraflar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi tuzishdan oldin o'zaro og'zaki kelishish jarayonida kvartiradagi muzlatkich va bir dona konditsionerni qoldirish to'g'risida kelishildi.** Bu vaziyatda Davletov muzlatkich va konditsionerni fuqaro Botirovga sotdi. Shartnoma esa og'zaki ravishda amalga oshirildi. Ko'chmas mulk oldi-sotdi qilinayotganda ko'chmas mulkka qo'shib qaysi tovarlar sotilayotgani ham ko'rsatib o'tilishi lozim edi. Biroq bular ko'rsatib o'tilmagan. Shuning uchun muzlatkich va konditsionerning oldi-sotdi shartnomasi haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Agar bu shartnoma haqiqiy emas deb topilsa, ularni hadya qilish qonunga xilof bo'lmaydi.

**Fuqaro Botirov kvartiraga ko'chib kirishi vaqtida xonalardagi konditsioner va muzlatkichni fuqaro Davletov tomonidan boshqa fuqaroga hadya qilib yuborilgani ma'lum bo'ldi.** Agar muzlatkich va konditsioner oldi-sotdi shartnomasi ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasi bandlariga kiritilganda edi, Davletov bu tovarlarni hadya qilish huquqiga ega bo'lmagan bo'lardi. Muzlatkich va konditsionerni hadya qilib yuborishi bilan fuqaro Davletov fuqaro Botirov bilan tuzilgan og'zaki shartnoma kelishuvini buzmoqda. Fuqarolik kodeksining 399-moddasining birinchi qismida "Sotuvchi oldi-sotdi shartnomasi shartlarini buzib, sotib oluvchiga shartnomada belgilangan miqdordan kam tovar topshirgan bo'lsa, sotib oluvchi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yo tovarning yetishmayotgan miqdorini topshirishni talab qilishga, yo topshirilgan tovardan va uning haqini to'lashdan bosh tortishga, bordi-yu uning haqi to'langan bo'lsa, to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilishga haqli", deyilgan. Agar og'zaki kelishuvga ko'ra, konditsioner va muzlatkichning pulini Davletov olgan bo'lsa, hadya bekor bo'lishi mumkin. Yuqoridagi tovarlar hadya qilib yuborilgan bo'lsa, ularning puli sotib oluvchi (Botirov)ga qaytarib beriladi.

Agar Davletov tovarlar pullarini qaytarib bermasa uni firibgarlikda ayblash mumkin. Chunki oldi-sotdi shartnomasida muzlatkich va konditsioner uchun ham to'lov qilingan. Lekin sotuvchi (Davletov) tomonidan yuqorida nomlari keltirilgan tovarlar sotib oluvchiga yetkazib berilmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar muzlatkich va konditsioner boshqa shaxsga hadya qilib yuborilgan bo'lsa va bu tovarlar kvartirada yo'q bo'lsa, ularning narxiga teng bo'lgan pul mablag'lari Davletov tomonidan Botirovga to'lab beriladi. Agar muzlatkich va konditsioner hadya qilib yuborilgan bo'lsa-yu, lekin tovarlar hali o'sha shaxsga yetib bormagan bo'lsa, hadya shartnomasi bekor qilinadi va mazkur tovarlar Davletovga beriladi.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash mumkin. Mazkur metodni qo'llash bo'yicha o'quvchilarga quyidagilarni ta'kidlaysiz:

- matn bilan tanishib chiqing;
- matn bilan tanishish jarayonida sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarning hammasini daftaringizga qayd eting;
- ishlash uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilarga o'z daftaringizga yozib olgan tushunchalarni o'qib bering, deb murojaat qilasiz.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**II.2.** O'zingiz tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon etasiz.

Intellekt xaritada yozilgan har bir tushunchani izohlaysiz, tahlil qilasiz, ushbu holat hayotda qanday amalga oshirilishini tushuntirasiz.

## III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Aqliy hujum" metodini taklif etamiz, bunda o'quvchilar o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini qisqa savol-javob orqali bilib olish mumkin.





### Savol va topshiriqlar:

1. Fuqarolarning huquqlari deganda nima tushuniladi?
2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardan qanday farq qiladi?
3. Shaxslar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga misollar keltiring.
4. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar qanday vujudga keladi?
5. Bitimlar tushunchasini bayon eting.
6. Fuqarolik kodeksi yordamida bitimlar, ularning turlari va shakllarini izohlang.

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Darslikdagi quyidagi savol va topshiriqlar uyga vazifa qilib beriladi:

#### Topshiriq.

1. Fuqarolarning huquqlariga, fuqarolik mulkiy munosabatlariga va fuqarolik nomulkiy munosabatlariga misollar keltirib, jadvalni to'ldiring.
2. Axloqiy munosabatlar va huquqiy munosabatlar qanday me'yorlar bilan tartibga solinishini og'zaki bayon eting.

<b>Fuqarolarning huquqlari</b>	<b>Fuqarolik mulkiy munosabatlari</b>	<b>Fuqarolik nomulkiy munosabatlari</b>
<p>Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, saylash, saylanish, murojaat qilish kabi inson va fuqarolarga tegishli shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinadi.</p>	<p>Masalan, magazindan xaridor mahsulot sotib olishi uchun mahsulotning pulini sotuvchiga beradi, keyin sotuvchi xaridorga mahsulotni beradi. Bunda xaridor va sotuvchi mulkka bog'liq bo'lgan munosabatda ishtirok etyapti va ularning xatti-harakatlari mahsulot va pulga qaratilyapti. Demak, shaxslar o'rtasidagi mulkiy xarakterga ega munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.</p>	<p>Inson sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, shaxsiy daxlsizligi, mualliflik huquqi kabilar ham fuqarolik huquqi me'yorlari bilan tartibga solinadi. Shaxsiy-nomulkiy munosabatlar shu bilan farq qiladiki, shaxsiy-nomulkiy munosabatlar pul bilan ifodalanmaydi, balki shaxsning o'zi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, muallifning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi shular jumlasidandir.</p>

## 18–19-DARS. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT SUB'YEKTLARI VA OBYEKTULARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga doir tushunchalar	“√”	“+”	“-”	“?”
Shaxslar				
Jismoniy shaxslar				
Yuridik shaxslar				
Huquq layoqati				
Muomala layoqati				
Muomalaga layoqatsizlik				
To'liq bo'lmagan muomala layoqati				
To'liq muomala layoqati				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

#### Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:


1. Mavzuni tushuntirishda Odilqoriyev X. T. ning “Davlat va huquq nazariyasi” kitobidagi fikrlardan foydalanish mumkin.

2. “Fuqarolik huquqining prinsiplari, funksiyalari va tizimi” axborot-ma'rifiy materiallaridan ham keng foydalanish mumkin.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-qism 4-bob 39–40-moddalari, 6-bob 81-modda, 7-bob 96-moddalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Erkin yozish" topshirig'i beriladi.

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Yashiringan so'zlarni topish" topshirig'i tavsiya etiladi.

Quyidagi jadvalda yashiringan so'zlarni toping (17 ta so'z).



J	I	S	M	O	N	I	Y	SH	F
E	M	A	N	S	I	P	A	A	A
T	H	A	SH	Y	O	V	T	X	N
A	O	S	M	A	O	A	S	S	CH
SH	M	U	U	K	B	S	I	L	E
K	I	B	A	S	Y	I	Y	A	K
I	Y	Y	L	I	E	Y	A	R	M
L	L	E	L	Y	K	L	I	K	U
O	I	K	I	A	T	L	A	H	L
T	K	T	F	L	I	K	R	U	K
M	F	U	Q	A	R	O	L	Q	P
U	L	A	Y	O	Q	A	I	U	U
A	S	S	A	S	A	T	K	Q	L

1. Huquq	7. Pul	13. Muassasa
2. Fuqarolik	8. Ashyo	14. Mualliflik
3. Homiylik	9. Fan	15. Vasiylik
4. Subyekt	10. Chek	16. Tashkilot
5. Obyektlar	11. Jismoniy shaxslar	17. Mulk
6. Layoqat	12. Emansipatsiya	18. Aksiya

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "To'g'ri/notog'ri" jadvalini to'ldirish taklif etiladi.



No	Ma'lumot	To'g'ri	Noto'g'ri
1	Voyaga yetmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish emansipatsiya hisoblanadi		
2	Fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati muomala layoqati deb e'tirof etiladi		
3	Jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari hisoblanadi		
4	Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining xatti-harakati nimaga qaratilgan bo'lsa ana shu narsa fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti hisoblanadi		
5	Yuridik shaxs o'z mulkiga va mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lgan, majburiyatlarni bajara oladigan tashkilot hisoblanadi		

**III.2.** Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.  
Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Xususiyatlar	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar
<b>Ta'rif bering</b>	Fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lish fuqarolik huquq layoqati	Fuqarolik huquq va majburiyatlarning subyektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar
<b>Huquq layoqati</b>	Huquqiy munosabat ishtirokchilarining ma'lum huquqlarga ega bo'lish va majburiyat (burch) o'la bilish layoqati	Tuzilgan paytdan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uning faoliyati tugashi (tugatilishi) bilan tugaydi
<b>Muomala layoqati</b>	Fuqaro yoki yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan huquqqa ega bo'lish va o'zi uchun majburiyat yaratish qobiliyati	Yuridik shaxs qonunlarga va ta'sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o'z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'ladi va zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi
<b>Huquqiy asoslar</b>	O'zbekiston Respublikasida fuqarolar – jismoniy shaxslarning huquq va burchlariga oid qonun-qoidalar Fuqarolik Kodeksida belgilab berilgan (16–38-moddalar)	“O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'grisida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'grisida”, “Notariat to'grisida”, “Advokatura to'grisida”gi qonunlar va hk.

## 20-DARS. MULKIY VA NOMULKIY MUNOSABATLAR

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing.

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Insert chizmasi asosida quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Mulkiy munosabatlar				
Mulk huquqi				
Mulk shakllari				
Nomulkiy munosabatlar				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. – Toshkent, 2001-yil.
2. Saidov A. Tadjixanov U. Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent, “Sharq”, 2002-yil.
3. Raxmonkulov R. X. Xususiy mulk va uning daxlsizligi. – Toshkent, 2000-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risidagi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. – Toshkent, Adolat, 1996-yil. 146-bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (36-, 53-, 54-moddalar).
8. Fuqarolik Kodeksi (164-, 167,207, 213, 215-moddalar).



**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.



## Mulkchilik shakllari

**Shaxsiy mulk** – fuqarolarning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mulk

1

**Xususiy mulk** – ayrim kishilar va guruhlariga tegishli bo'lib, yollanma mehnatdan foydalanib daromad topishga qaratilgan mulk

3

**Yakka tartibdagi xususiy mulk** – alohida olingan mulkdor tomonidan o'zlashtiruvchi vosita va ne'matlar

5

**Aralash mulk** – turli mulk shakllari sintezidan tashkil topib, shunga muvofiq tarzda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

7

**Davlat mulki** – o'z vazifalarini bajarish maqsadida davlat tomonidan o'zlashtiruvchi turli vosita va ne'matlar

2

**Jamoat mulki** – muayyan maqsad yo'lida turli ko'rinishdagi jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

4

**Korporativ xususiy mulk** – ma'lum maqsad yo'lida o'zaro birlashgan mulkdorlar mablag'iga asoslangan korxonalar tashkil etish orqali o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

6

### DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

#### III. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun darsni "Guruhlariga bo'linib ishlash" metodi bilan boshlaymiz.

O'quvchilar 3 ta guruhga bo'linib, avval o'tilgan mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni, so'ngra yangi mavzuga oid tushunchalarni o'z guruhlariga bilan birgalikda tahlil qiladilar.

Quyidagi savollarga javob berishadi.

#### 1-GURUHGA

1. Fuqarolik huquqi nima?
2. Mulk deganda nimani tushunasiz?

#### 2-GURUHGA

1. Bitim nima?
2. Xususiy mulk deganda nimani tushunasiz?

#### 3-GURUHGA

1. Shartnoma nima?
2. Davlat mulki deganda nimani tushunasiz?

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash mumkin. Mazkur metodni qo'llash bo'yicha o'quvchilarga quyidagilarni ta'kidlaysiz:


- matn bilan tanishib chiqing;
- matn bilan tanishish jarayonida sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarning hammasini daftaringizga qayd eting;
- ishlash uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilarga o'z daftaringizga yozib olgan tushunchalarni o'qib bering, deb murojaat qilasiz.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng, boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

II.2. Venn diagrammasi orqali mulkiy va nomulkiy munosabatlarning o'xshash va farqli jihatlarini topamiz.

### VENN DIAGRAMMASI



## III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga ko'rgazmali vositalar tarqatiladi.

O'tilgan mavzuga oid rasmlar taqdim etiladi, rasmlar orqali o'quvchilar o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini izohlab berishadi.



Quyidagi rasmlarda mulkchilikning qaysi shakllari o'z aksini topgan?



~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~



~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~



~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~  
~~~~~

**III.2.** Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.  
Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering. Misollar keltiring.

Mulk	Xususiy mulk	Ommaviy mulk	Umumiy mulk
Mulk shaxsning o'ziga tegishli, o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qilib, undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan ashyo.	Xususiy mulk shaxsning qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.	Davlat mulki esa ommaviy mulk bo'lib, respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan iborat. Bu munitsipal mulk deb ataladi. Yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy boyliklar respublika mulki hisoblanadi.	Umumiy mulk ikki va undan ortiq shaxslarning egaligida bo'lgan mol-mulk hisoblanadi. Ya'ni umumiy mulk shaxslarning kelishuviga asoslanadi.



## 21-DARS. MAJBURIYATLAR

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Insert chizmasi asosida quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Majburiyat				
Majburiyatning taraflari				
Majburiyatlarning vujudga kelishi				
Majburiyatlarning bajarilishi				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 2023-yil.
2. Raxmonkulov R. X. Xususiy mulk va uning daxlsizligi. – Toshkent, 2000-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risidagi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi.
6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189#152499>.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt karta tuzish tavsiya etiladi.

### DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

#### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun **“Atamalar bilan ishlash” metodi** bilan darsni boshlaymiz.

Bunda o'quvchilarga atamalarga ta'rif berilgan savollar tarqatiladi.

Javoblarning bosh harfidan yangi mavzu kelib chiqadi.

1. Ushbu so'z arabchadan olingan bo'lib, “yechilishi qiyin, chigal, yashirin” degan ma'nolarni anglatuvchi murakkab nazariy yoki amaliy masala.

2. Bu so'z lotinchadan olingan bo'lib “qalb tug'yoni” ma'nosini hamda, kishining qisqa muddatli jahldorlik holatini bildiradi.

3. Fuqarolik huquqi subyekti sifatida alohida olingan fuqaro.



4. Bu so'z inglizchadan olingan bo'lib, bougette-karmon degan ma'noni hamda davlatning muayyan muddatga qonuniy tartibda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar ro'yxatini bildiradi.

5. Qandaydir narsaning birinchiligi, afzallig, birlamchiligi ifodasi.
6. Barcha fuqarolar ishtirok etadigan umumxalq so'rov yoki saylov huquqi
7. Ijodiy faoliyat natijalariga doir maxsus huquqlarning majmui.
8. Insonning eng oliy shaxsiy huquqlaridan biri.
9. Qasddan boshqa shaxsni badnom qiladigan yolg'on bo'htonlarni tarqatish.
10. Qandaydir huquq yoki vakolat qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash.
11. Fuqarolik huquqida mulk obyekti.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasi nima haqida.

**Javoblar:**


1. Muammo.
2. Affekt.
3. Jismoniy shaxs.
4. Byudjet.
5. Ustuvorlik.
6. Referendum.
7. Intellektual mulk.
8. Yashash huquqi.
9. Tuhmat.
10. Legitimlik.
11. Ashyo.
12. Ramzlar.

Demak, yangi mavzu: **Majburiyatlar**

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

Masalan:

### FSMU texnologiyasi



## II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash mumkin. Mazkur metodni qo'llashda o'quvchilarga quyidagilarni ta'kidlaysiz:

- matn bilan tanishib chiqing;
- matn bilan tanishish jarayonida sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarning hammasini daftaringizga qayd eting;
- ishlash uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilarga daftaringizga yozib olgan tushunchalarni o'qib bering, deb murojaat qilasiz.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

Tushunchalar	Mazmuni
Majburiyat	
Kreditor	
Qarzdor	
Neustoyka	
Garov	
Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish	
Kafillik	
Kafolat	
Zakalat	
Jarima	
Penya	

## III. Refleksiya bosqichi.



**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Charxpalak" metodi tavsiya etiladi.

Ushbu metod o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga, qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. Metodning maqsadi o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

O'tkazish tartibi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yana o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash maqsadida.



- 1) O'quvchilar guruhlarga ajratiladi;
  - 2) Tarqatma materiallar tarqatiladi;
  - 3) Har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biror-bir belgisini chizib qo'yadi;
  - 4) Vaqt belgilanadi vazifa bajariladi;
  - 5) Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlar bilan "Charxpalak" yo'nalishida almashtiriladi;
  - 6) Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
  - 7) Jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi;
  - 8) Materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarni tanlab oladilar;
  - 9) Har bir guruh a'zosi o'zi belgilagan javoblar va boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydi;
  - 10) Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqini aniqlaydi va o'z-o'zini baholaydi.
- "Charxpalak" metodi asosida yaratilgan dars ishlanma sinf ishtirokchilari diqqatiga havola etiladi.





### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Burch deganda nima tushuniladi?	Majburiyat deganda nima tushuniladi?
<p>Kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha.</p> <p>Buning oziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Bu iymon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Burch qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi.</p> <p>Masalan: milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch va boshqalar.</p>	<p>Majburiyat fuqarolik-huquqiy munosabati bo'lib, unga ko'ra, bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.</p> <p>Majburiyatning kelib chiqish asoslari javobgarlik shartlari va shakllariga ko'ra, 2 guruhga bo'linadi: shartnomaga asoslangan majburiyat, shartnomaga asoslanmagan majburiyat.</p>



## 22-DARS. MAJBURIYATLARNING TURLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	"V"	"+"	"_"	"?"
Shartnomada majburiyatlarning ifodalanishi				
Elektron shartnomalar				
Oferta				
Aksept				
Oldi-sotdi shartnomasi				
Ayirboshlash shartnomasi				
Hadya shartnomasi				
Xayr-ehson				
Kredit shartnomasi				
Uy-joyi ijaraga berish				
Pudrat shartnomasi				
Qarz shartnomasi				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

**O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 353-modda**

Shartnoma tuzish erkinligi. Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu kodeksda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin.  
**O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 354-modda**

## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun **"Erkin yozish" topshirig'i** beriladi.

"Erkin yozish" metodini qo'llash tatrubi: o'quvchilardan daftarlariga 3 minut vaqt ichida majburiyatlarning turlari haqida o'z tasavvurlarini to'xtamasdan yozish so'raladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylab o'tirmasdan yozish aytiladi. Agar hech qanday fikr miyaga kelmasa, tasavvurini rasm ko'rinishida tasvirlash mumkinligi ta'kidlab o'tiladi (shunda biror fikr esga tushishi mumkin). Uch daqiqa tugaganidan so'ng vaqt tugadi deb aytiladi va bir daqiqa sukut saqlanadi (chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda paydo bo'ladi). Keyin o'quvchilardan ruchkalarini parta ustiga qo'yish va navbati bilan daftarlariga yozganlarini o'qib berish so'raladi.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

### II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilarga darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun **"Ikki qismli kundalik"** metodini qo'llash tavsiya etiladi. Bu metod asosan nazariy darslarda ishlatiladi. Daftarning asosiy qismi ikki qismga ajratiladi. Bir qismiga o'quvchini qiziqtirgan ma'lumotlar, ikkinchisiga uni ajablantirgan yoki u tushunmagan ma'lumotlar yoziladi. Bu yo'l orqali o'quvchilar mavzu yuzasidan berilgan ma'lumotlarni aniq va noaniq qismlarga ajratib olishlari mumkin bo'ladi.

#### Masalan:



- Oferta
- Oldi-sotdi shartnomasi
- Qarz shartnomasi

- Akseptlash
- Pudrat shartnomasi
- Bank omonati shartnomasi

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi. Bunda darslikdagi o'quv savollarini o'zaro uyg'un tarzda aniq va tushunarli bayon etish talab qilinadi. Intellekt xarita o'quvchilarga o'rganilayotgan masalani assotsiatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkonini beradi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga **"Toifalash jadvali"**ni to'ldirish taklif etiladi.

Toifa – xususiyat va munosabatlar muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ma'lumotlarni



tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usuli va vositasi hisoblanadi.

<b>Majburiyatlar asosida tuzilgan shartnomalar</b>		
<b>Shartnoma turlari</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>O'ziga xosligi</b>
<b>Qarz shartnomasi</b>	Bir shaxs ikkinchi shaxsga ashyo yoki pul beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib pulni yoki qarzga olingan ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi.	Qarzniing summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuziladi.
<b>Bank omonati shartnomasi</b>	Bank omonatchidan olingan pul summasini qabul qilib oladi va omonatchi murojaat qilganda omonat summasini qaytarish hamda foizlar to'lash majburiyatini oladi.	Omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 30-iyulda "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Ushbu hujjatga ko'ra, 2021/2022-o'quv yilidan boshlab Respublikadagi barcha OTMLar bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklida va magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti ajratishning qanday tizimi yo'lga qo'yildi?

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olish istagidagi yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etish, to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan har bir talabaga bilim olish uchun qulay sharoitlar yaratish, yoshlarning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini yanada rag'batlantirish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. 2021/2022-o'quv yilidan boshlab respublikadagi barcha oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklida hamda magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilsin.

Belgilansinki:

– tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan resurslar hisobidan ta'lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratadi;

– ta'lim kreditining asosiy qismi talabning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi;

– ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi;

– "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalar farzandlaridan ta'lim krediti uchun garov va kafilliklar talab etilmaydi.



2. Ta'lim kreditlari bo'yicha tijorat banklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etilsin.

Jamg'armaga Davlat byudjetidan 2021-yilda kamida 1 trillion so'm, keyingi yillarda haqiqiy talabdan kelib chiqib mablag'lar ajratilsin.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- jamg'arma tomonidan avval ajratilgan resurslarning qaytishidan tushadigan mablag'lar va ulardan olinadigan foiz to'lovlari;
- jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklariga joylashtirish hisobiga foizli tushumlar;
- xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari, homiylik, grant mablag'lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3. Belgilab qo'yilsinki:

- jamg'arma yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda Moliya vazirligida alohida ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvarag'i shaklida tashkil etiladi;
- jamg'arma faoliyati Moliya vazirligi markaziy apparatiga ajratiladigan 3 ta shtat birligidan iborat bo'linma tomonidan amalga oshiriladi;
- jamg'arma mablag'lari hisobiga tijorat banklarining so'rovlariga asosan ularga Markaziy bankning asosiy stavkasida ta'lim krediti ajratish uchun mazkur stavkadan 4 foiz bandga past bo'lgan stavkada resurslar ajratiladi;
- Markaziy bankning asosiy stavkasi pasaytirilganda, resurs mablag'lari va ta'lim krediti bo'yicha foiz stavkasi mutanosib ravishda pasaytiriladi, oshirilganda esa o'zgarishsiz qoladi.

4. Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin:

- ta'lim kreditlari bo'yicha yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini Moliya vazirligi va tijorat banklari o'rtasida taqsimlash hamda jamg'armadan ajratilgan mablag'larning bir qismini tijorat banklari tomonidan garov depoziti sifatida qabul qilish;
- respublikadagi davlat oliy ta'lim muassasalari, xususiy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalariga kontrakt to'lovlari uchun kredit ajratish;
- jamg'arma tomonidan ta'lim kreditlari uchun mablag'lar ajratishda tijorat banklariga qo'yiladigan muvofiqlik mezonlarini o'rnatish.

5. Moliya vazirligi jamg'armaga 2021-yilda mablag'larning Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, byudjetni qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilinadigan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kreditlari, suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ajratilishini, 2022-yildan boshlab esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B. A. Musayev, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A. X. Toshkulov hamda moliya vaziri T. A. Ishmetov zimmasiga yuklansin.

*Toshkent shahri, 2021-yil 30-iyul, PQ-5203-son.*



## 23-DARS. ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Iste'molchi				
Iste'molchilar huquqlari				
Kassa yoki tovar cheki				
Ishlab chiqaruvchi (ijrochi)				
Kafolat muddati				
Moliyaviy savodxonlik				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189#152499>.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

**Iste'molchi** – foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).

**“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun, 1-modda**

Mamlakatimizda iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlaydigan idoralar:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi (“O'zdavstandart”);
- Sog'liqni saqlash vazirligi;
- Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi;
- Respublika, viloyat, shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya stansiyalari.

**DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI****I. Motivatsion bosqich.**

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Qayta tiklash" o'yini beriladi.

**"Qayta tiklash" o'yini**

Harflarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib, yashirin so'zlarni toping va izohlang.

Misol uchun:

E'TOISCHMIL

ISTE'MOLCHI \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

ORTAV ICHEK

TOVAR CHEKI \_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_

**II. Anglash bosqichi.**

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Kubik" metodi tavsiya etiladi.

Ushbu metod mavzuning o'rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning qirralarida biror huquqiy atamaga mos ta'riflar beriladi.

**"Kubik" metodi**



Eslatma: shu tarzda o'qituvchi tomonidan ushbu mavzu yuzasidan bir nechta topshiriq tayyorlanadi.


**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi. Bunda darslikdagi o'quv savollarini o'zaro uyg'un tarzda aniq va tushunarli bayon etish talab qilinadi. Intellekt xarita o'quvchilarga o'rganilayotgan masalani assotsiatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkonini beradi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III. I.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Qanday?" iyerarxik diagrammasi taklif etiladi.

"Qanday?" iyerarxik diagrammasi muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi mantiqiy savollar zanjiridir. Diagrammaning maqsadi o'quvchilarda muammoning yechimini topishda tizimli fikirlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va faollashtirish hisoblanadi.

Namuna:



### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar. Tushunchalarni izohlang.

Tushuncha	Izohi
Iste'molchi	Iste'molchi – foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki xususiy xo'jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).
Ishlab chiqaruvchi	Iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxonada, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.
Sotuvchi	Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxonada, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.
Tovar	Ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallagan mahsuloti, shu jumladan, import mahsuloti.
Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi	Tovarni iste'mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek, ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq xavf-xatarning yo'qligi.
Tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni	Tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofiqligi.
Kafolat muddati	Tovardan (xizmatdan) foydalanishning (onlar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k.) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi.



Xizmat muddati	Tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'iy nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim.
Yaroqlilik (saqlash) muddati	Muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin.
Kassa cheki	Tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat.
Tovar cheki	Tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat.
Tovarni (ishni, xizmatni) iste'molchidan qaytarib olish	Agar tovar (ish, xizmat) iste'molchi mulkiga aylangan yoki unga taklif etilgan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan amalga oshiriladigan, tovarning (ishning, xizmatning) xavfsizligi talablariga mos bo'lmagan tovarni (ishni, xizmatni) qaytarib olishga qaratilgan har qanday chora.



## 24-DARS. INTELLEKTUAL MULK

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Intellectual mulk				
Intellectual mulk obyektlari				
Muallif				
Mualliflik huquqi				
Mualliflik huquqi vazifalari				
Mualliflik shartnomasi				


Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189#152499>.
3. R. J. Ro'ziyev, V. R. Topildiyev, M. Sh. Choriyev. Fuqarolik va oila huquqi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.
4. O. I. Oqyulov, N. Imomov, M. Baratov va boshqalar. Fuqarolik huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 192 b.


**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining Intellectual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2016-yil 20-oktyabrdagi PQ-2637-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori.





**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Oltita fikrlovchi qalpoqcha" ("Oltita o'q") metodi" dan foydalaniladi.

Metod muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakat mohiyatini ifodalaydi. Unga ko'ra o'quvchilar 6 xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi. Qalpoqlarning rangi quyidagilarni anglatadi:

<b>Oq qalpoq</b>	Dalil va raqamlarga tayangan holda ma'lumot (axborot)larni aniq ifodalash talab qilinadi
<b>Qizil qalpoq</b>	Hissiyot, sezgi, intuitsiya asosida muammoni oldindan his etish
<b>Qora qalpoq</b>	Fikrlarni ifodalashda ehtiyotkor bo'lish, dalillarning haqiqatga mos kelishini ta'minlash, mulohazaning oqilona bo'lishi lozimligini yodda tutish

### Sariq qalpoq

Muammoni samarali hal etish yo'llarini izlash, natijalarni ko'ra olish, ahamiyatini baholash

### Yashil qalpoq

Ijodiy izlanish, turli takliflarni ko'rib chiqish, yangi g'oyalarni ilgari surish va muqobil variantlarni izlash

### Ko'k qalpoq

Tahlil, fikrlash jarayonini nazorat qilish orqali fikrlarni umumlashtirish, yakuniy qaror qabul qilish

“Fikrlovchi” qalpoqchalardan ikki usulda: ixtiyoriy (2 ta qalpoqchadan) va izchil (navbat bilan barcha qalpoqchadan) foydalanish mumkin.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun “Tushunchalarni aniqlash” metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

- o'quvchilardan matn bilan tanishib chiqish so'raladi;
- matn bilan tanishish jarayonida o'zi uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftarga yozish so'raladi;
- belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan daftarga yozgan tushunchalarini o'qib berish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

## III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun “**Bumerang**” texnologiyasi taklif etiladi.

“**BUMERANG**” texnologiyasi tavsifi. Ushbu texnologiyadan o'quvchilar dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlashi, o'rganilgan materialni yodda saqlab qolishi, so'zlab berishi, fikrini erkin holda bayon eta olishi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lishi hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olish maqsadida foydalaniladi.

**Texnologiyaning maqsadi:** o'quv jarayonida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirilishi hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi;
- o'quvchilar dars (mashg'ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlar



haqida axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirishga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;
- o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi (yoki opponent guruh) savollar bilan murojaat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlar to'plagan umumiy ballar aniqlanadi;
- har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi ("guruh hisobchilari" berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar);
- guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;
- guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

### **Bumerang texnologiyasi bo'yicha 1-guruh uchun tarqatma material**

#### **INTELLEKTUAL MULK TUSHUNCHASI**

Inson dunyoga kelgandan so'ng aqliy qobiliyatga ega bo'ladi. U olamni bilishga, tushunishga, idrok qilishga harakat qiladi. Atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Tashqi muhit va nutqqa suyangan holda idrokning bajariladigan xatti-harakatlari (intelektual xatti-harakatlar) yuzaga keladi. Ana shunday aqliy faoliyat natijasida o'z qobiliyatidan kelib chiqib, fan, adabiyot va san'at asarlari, EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari, ixtirolar, foydali modellar kabi ijod namunalari yaratadilar. Fuqarolik huquqida bular intellektual mulk obyektlari deb ataladi. Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan, ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamaları va boshqa aqliy mulk obyektlari kiradi. Hozirgi davrda intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi.

### **"Bumerang" texnologiyasi bo'yicha 2-guruh uchun tarqatma material**

#### **INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLLARI**

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari – ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi: a) ko'p hollarda ular moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi; b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik

qilganday egalik qilish mumkin emas; d) shaxslar bunday obyektlardan ayni bir vaqtning o'zida cheksiz doirada foydalana olishi mumkin; e) mulk huquqining muddatsiz ekanligi haqidagi qoida intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan qo'llanilmaydi, binobarin aksariyat hollarda intellektual mulk huquqining amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi; f) qonunlarda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk huquqi egasining ma'lum intellektual mulk obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va u umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma'lum shartlar asosida muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi; g) intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsiya da'vosini qo'llab bo'lmaydi; h) intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llanadi; i) intellektual mulk huquqining amal qilishi ayni vaqtda ma'lum hudud bilan chegaralangan bo'ladi.

### “Bumerang” texnologiyasi bo'yicha 3-guruh uchun tarqatma material

#### MUALLIFLIK HUQUQI

Mualliflik huquqi shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi.

Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.

Mualliflik huquqi obyektlari jumlasiga adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar); dramatik asarlar va ssenariylar; matnli va matnsiz musiqa asarlari; musiqali-dramatik asarlar; xoreografiya asarlari va pantomimalar; audio-vizual asarlar; rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va boshqa tasviriy san'at asarlari; manzarali-amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari; arxitektura, shaharsozlik va bog'-park barpo etish san'ati asarlari; fotografiya asarlari va fotografiyaga o'xshash usullarda yaratilgan asarlar; jo'g'rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo'g'rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar; EHM uchun dasturlar, shu jumladan, amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari kiradi.

Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi.

#### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

##### Quyidagi vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

Maktabning 10-sinf o'quvchisi she'riy to'plam tayyorlab, chop etish uchun nashriyotga bordi. Nashriyot mutasaddilari uning mualliflik ishini “Sen hali voyaga yetmagan shaxssan”, deb qabul qilmadilar.

**Javob:** Fuqarolik kodeksi 27-moddasiga ko'ra, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu vaziyatda maktabning 10-sinf o'quvchisi o'zining she'riy to'plamini nashriyotga topshirib, chop ettirish huquqiga egadir.



## 25-DARS. VORISLIK

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Matn bilan ishlab, mavzuga doir asosiy tushunchalarni ajratib oling.

**Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Insert chizmasi asosida quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

No	Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
1	Vafot etgan shaxsning merosi bo'yicha huquq va majburiyatlarning vorislarga o'tishi tartibini belgilovchi huquqiy me'yorlar majmuasi fuqarolik huquqining tarkibi hisoblangan vorislik huquqi deb ataladi.				
2	Meros fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida paydo bo'ladi. Bu merosning ochilishi deb ataladi. Meros qoldiruvchining o'lgan kuni meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi.				
3	Merosxo'rlikka birinchi navbatda meros qoldiruvchining farzandlari, eri (yoki xotini) va ota-onasi da'vogardir.				
4	Merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda merosdan voz kechishi mumkin. Merosdan voz kechish uchun merosxo'r meros ochilgan joydagi notariusga ariza beradi. Merosdan voz kechish keyinchalik bekor qilinishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas.				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

#### **Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

**1. Vorislik** – shaxsning vafotidan keyin uning xususiy mulk asosida tegishli bo'lgan mulkini, shuningdek, meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ba'zi huquq va majburiyatlarning merosxo'rlarga o'tishi.

#### **2. Vorislik asoslari:**

- vasiyat bo'yicha vorislik;
- qonun bo'yicha vorislik.

Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa amalga oshiriladi.

**3. Meros ochilgan payt meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibi:**

- ashyolar, shu jumladan, pul va qimmatli qog'ozlar;
- mulkiy huquqlar, intellektual mulk obyektlariga yoki xususiy alomatlar aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqlar;
- mulkiy majburiyatlar, shu jumladan, qarzlari (merosxo'rlarga qoldirilayotgan meros qiymati doirasida).

**4. Meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlari:**

Meros fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Meros qoldiruvchining o'lgan kuni, u vafot etgan deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt deb hisoblanadi.

Agar biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo'lgan shaxslar bir kalendar sutka (yigirma to'rt soat) ichida vafot etgan bo'lsalar, ular bir vaqtda vafot etgan deb hisoblanadilar, meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo'rlari vorislikka chaqiriladilar.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.



## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Jadval bilan ishlash" nuqtalar o'rniga mos so'zni topib jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi.

1. Meros mulkini oluvchi .....
2. Vorislikni amalga oshirish yo'llaridan biri .....
3. Fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida paydo bo'ladi .....
4. Shaxsan tuzilishi lozim hujjatlardan biri.....




V	A	S	I	Y	A	T	N	O	M	A
M	E	R	O	S	X	O'	R			
V	A	S	I	Y	A	T				
M	E	R	O	S						

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalar tahlil" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

Tushuncha	Tahlili
<b>Vorislik</b>	Vafot etgan shaxs mulkining biror-bir shaxsga, ya'ni vorisga o'tishi
<b>Vorislar</b>	Vafot etgan shaxsning mulkini oluvchi shaxslar
<b>Vorislik huquqi</b>	Mulkning vorislarga o'tkazilishida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi
<b>Meros tarkibi</b>	Qonun bilan taqiqlanmagan barcha mulk va mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlar kiradi
<b>Meros ochilishi</b>	Fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida vujudga keladi.
<b>Vasiyat</b>	Fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

Fuqarolik kodeksining 18-moddasiga ko'ra, mol-mulkni meros qilib olish hamda vasiyat qilib qoldirish huquq layoqatining ajralmas qismidir. Demak, har bir fuqaro xususiy mulkni, shuningdek, mulkka bo'lgan huquq-majburiyatlarini xohlagan jismoniy yoki yuridik shaxsga meros huquqi, jumladan, vorislik huquqi asosida qoldirishi mumkin.

Vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishi man qilingan shaxslar ro'yxati qonunda belgilab qo'yilmagan. Ammo, amalda ma'lum cheklovlar bor. Xususan, Fuqarolik kodeksining 1119-moddasi tartibida voris, shu jumladan, vasiyat bo'yicha voris etib tayinlangan shaxs sudning hal qiluv qarori bilan noloyiq deb topilishi, meros olishdan chetlatilishi mumkin.

## III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Assesment" metodi taklif etiladi.

## “Assesment” metodi bo'yicha topshiriq namunasi

<p style="text-align: center;"><b>Test</b></p> <p>1. Kimlar voris hisoblanadi? a) 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolar b) Vafot etgan shaxsning mulkini oluvchi shaxslar</p> <p>2. Vasiyat nima? a) Fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi</p>	<p style="text-align: center;"><b>Muammoli vaziyat.</b></p> <p>Farzand sifatida asrab olinganligim sababli meni meros huquqidan mahrum qilishdi.</p>
--	--

<p style="text-align: center;"><b>Simptom</b></p> <p>Meros ochilgan joydagi notarius merosxo'ring iltimosiga ko'ra, unga merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berishi shart. Fikrni asoslab bering.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Amaliy ko'nikma</b></p> <p style="text-align: center;">Jadvalni to'ldiring</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse; margin-top: 10px;"> <thead> <tr> <th style="width: 33%; padding: 5px;">Merosxo'r merosdan voz kechishga haqlimi?</th> <th style="width: 33%; padding: 5px;">Yozma shakldagi vasiyatnoma qanday imzolanadi?</th> <th style="width: 33%; padding: 5px;">Kimlar vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin?</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="height: 20px;"></td> <td></td> <td></td> </tr> <tr> <td style="height: 20px;"></td> <td></td> <td></td> </tr> <tr> <td style="height: 20px;"></td> <td></td> <td></td> </tr> </tbody> </table>	Merosxo'r merosdan voz kechishga haqlimi?	Yozma shakldagi vasiyatnoma qanday imzolanadi?	Kimlar vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin?									
Merosxo'r merosdan voz kechishga haqlimi?	Yozma shakldagi vasiyatnoma qanday imzolanadi?	Kimlar vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin?											

**Javob:** savolda so'ralgan meros masalasi **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining V bo'limi** bilan tartibga solinadi. Kodeksning 1112-moddasiga asosan, meros 2 xil yo'l bilan, ya'ni vasiyat yoki qonun buyicha amalga oshiriladi. Sizing holatingizda avvalambor vasiyatnoma mavjudmi yoki yo'qmi, shuni aniqlash kerak. Ya'ni meros mulki bo'lgan uy buvingiz nomida bo'lsa, buvingiz vasiyat qilib qoldirganmi yoki yo'qmi? Agar vasiyatnoma bo'lmasa, unda qonuniy meros amalga oshiriladi.

Ya'ni sizning holatingizda buvingizdan qolgan meros mulkini otangizga tegishli qismini sizlar farzand sifatida talab qilish huquqiga egasizlar.

Meros taqsimlanishi, kimningdir nomiga o'tkazilishi uchun avvalambor meros ochilishi kerak. Fuqarolik kodeksining 1116-moddasiga ko'ra, meros fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Buvingiz vafot etgan ekan, demak, buvingizning qoldirgan meroslari ochilishi, ya'ni uy-joy taqsimlanishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 1117-moddasida merosning ochilish joyi haqidagi norma o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra, meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi hisoblanadi.

Meros – marhumdan vorislarga qolgan mulk. Marhumning mulk huquqi, boshqa ashyoviy huquqlar, aqliy faoliyat (kashfiyot, ixtirochilik, mualliflik) natijalariga bo'lgan alohida hukuqlar, shuningdek, bu huquqlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

Topshiriq. Ota o'z uyini ikki farzandidan biriga vasiyat qilib, notariusdan tasdiqlatib oldi lekin hali hayotlik paytida vasiyatnomani qaytarib oldi.

Farzandi: “Bunga haqqingiz yo'q”, deb otaga e'tiroz bildirdi.

**Javob:** Vasiyat qoldiruvchi o'zining vasiyatnomada izhor qilingan irodasini xohlagan vaqtda o'zgartirish va bekor qilishga haqli. Bu haqda Fuqarolik kodeksi 1127-moddasida ko'rsatib o'tilgan, ya'ni vasiyat qiluvchi istalgan vaqtda o'z vasiyatnomasini to'laligicha bekor qilishga yoxud unda mavjud bo'lgan ayrim vasiyat farmoyishlarini yangi vasiyatnoma tuzish orqali bekor qilishga, o'zgartirishga yoki to'ldirishga haqli.



### 1-topshiriq.

#### Quyidagi vaziyatni o'rganing va savollarga javob bering.

Avtobus O'zbekistonning qadimiy joylari bo'ylab uyushtirilgan sayohat davrida Buxoroga kelganda buzilib qoldi. Natijada Xiva shahrini tomosha qilishga vaqt qolmadi. Sayohatdan so'ng sayohat tomonidan sayohatni uyushtirgan sayyohlik firmasiga e'tiroz bildiriladi, ammo hech qanday natijaga erishilmadi.

#### Savollarga javob bering.

Bu vaziyatda sayyohlik firmasi to'g'ri qilganmi?

Sayyohlar talabi to'g'rimi?

Bu vaziyatni qanday huquqiy me'yorlar bilan hal etsa bo'ladi?

Sayyohlik munosabatlari qaysi davlat organiga tegishli? Ushbu savollarga internetdan foydalangan holda javob tayyorlang.

### 2-topshiriq. Berilgan tushunchalarni tahlil qilib jadvalni to'ldiring.

TUSHUNCHALAR	TAHLILI
<b>Emansipatsiya</b>	Voyaga yetmagan kishini muomalaga layoqatli deb e'lon qilish
<b>Yuridik shaxs</b>	Fuqarolik huquq va majburiyatlarining subyektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar
<b>Jismoniy shaxs</b>	(Fuqarolik huquqida) huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan alohida fuqaro (chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar)ni ifodalovchi tushuncha
<b>Bitim</b>	Huquqda shartnoma, kontrakt, xalqaro shartnoma, konvensiya tushunchalarining sinonimi
<b>Shartnoma</b>	O'zbekiston Respublikasining FK bo'yicha fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakati
<b>Neustoyka</b>	Fuqarolik huquqida ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, burchlarini o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi
<b>Intellektual mulk</b>	Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan biri; qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi





**“Madaniyatli iste'molchi”** mavzusida **esse** yozing.

**Esse** fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” ma'nolarini anglatadi. **Esse** – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko'pincha esse yozish mashg'ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida oxirida taklif etiladi. Esse yozish ko'pincha nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tartibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llanadi:

Esse yozish jarayonida quyidagi talablarga rioya eting:

- Berilgan mavzuga nisbatan o'z nuqtayi nazariningizni bayon eting.
- Hayotiy misollar bilan asoslang
- Mavzu yuzasidan mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan o'z fikr va takliflaringizni xulosalang.

Bajarish tartibi:

1. Kirish.
2. Asosiy qisim,
3. Xulosa,

Esse yozish jarayonida quyidagi tavsiyalardan foydalaning:

- “Iste'molchi” atamasiga oid nazariy ma'lumotlar.
- Mavzuga oid hayotiy voqea yoki hodisa.
- Voqelikka munosabatingizni aniqlab oling.
- O'zbekiston Respublikasida iste'molchi huquqlarini himoyalash.
- Madaniyatli iste'molchi borasidagi tasavvurlaringizni ifodalang.
- Iste'mol madaniyati borasidagi takliflaringizni bayon eting.

Namuna

Mavzu: “Madaniyatli iste'molchi”

I. Kirish

Deyarli har kuni kundalik ehtiyojlardan kelib chiqib iste'molchi sifatida ishtirok etamiz. Biroq bugungi kunda barchani ham “madaniyatli iste'molchi” deb atab bo'lmaydi. Mening fikrimcha, madaniyatli iste'molchi belgilangan qonun-qoidalarga amal qilishi, o'z huquq va majburiyatlarini anglashi .....

Agar siz o'quvchini fikran tasavvur qila olsangiz va esseni yozish jarayonida fikran ular bilan muloqot qila olsangiz, unda dalillangan esseni yozish osonlashadi.

Dalillangan essening tuzilishi:

Masala yuzasidan muallif nuqtayi nazarini bildirish (1 xatboshi).

Aytilgan pozitsiyaning dalillanishi – muallifning shu pozitsiyani qo'llash uchun ishonarli dalillari bunday pozitsiyani qabul qilishga ishontiradi.

Xulosa – rezyume (1 xatboshi).

Dalillangan esseni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

- mazmunning mavzuga muvofiqligi;
- muammoni ko'rish, unga munosabat, o'zining nuqtayi nazari, dalillarning ishonchliligi;
- uslub: bayonning aniqligi, ochiq-ravshanligi;
- yozish qoidalariga rioya qilish.



## IV BOB. O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT





## 27-DARS. XALQARO HAMJAMIYATNING VUJUDGA KELISHI

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Xalqaro hamjamiyatning o'ziga xosligi				
Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi				
Xalqaro hamjamiyatning tuzilishi				
Xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi omillar				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. Xalqaro huquq. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan “Yurisprudensiya” yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalar uchun tavsiya etilgan. G. Yuldasheva va boshqalar. – Toshkent – 2018.
2. Diplomatiya va konsullik huquqi. G. Yuldasheva. – Toshkent. – 2007.
3. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. M. M. Muhammasodiqov. – Toshkent. – 2017.
4. “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi qonuni, 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son.
5. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar (qo'mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning O'zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Toshkent sh., 2019-yil 23-may, PQ-4331-son.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risidagi qonuni O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son

2. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar (qo'mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning o'zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori Toshkent sh., 2019-yil 23-may, PQ-4331-son

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.

## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun “**Bilasizmi?**” topshirig'i beriladi.


**Savol:** 1. Banan mevasi va uning asl vatani haqida nimalarni bilasiz?



2. Choyning asl vatani va u xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?



3. Ushbu sabzavot xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?





**Eslatma:** javoblar so'ralgandan so'ng o'qituvchi aytilmagan qiziqarli ma'lumotlarni eslatib o'tadi va ularni "Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi" mavzusi bilan bog'liqligini tushuntiradi.

## II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

- o'quvchilardan matn bilan tanishib chiqish so'raladi;
- matn bilan tanishish jarayonida o'zi uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftoriga yozish so'raladi;
- belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan daftari yozgan tushunchalarni o'qib berish so'raladi.

**1**

Matn bilan tanishib chiqing

**2**

Matn bilan tanishish jarayonida o'zingiz uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftarga yozing

**3**

Belgilangan vaqt tugagach, daftarga yozgan tushunchalaringizni o'qib bering

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

## III. Refleksiya bosqichi.

**III. I.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga "Toifalash jadvali"ni to'ldirish taklif etiladi.

Toifa – xususiyat va munosabatlar muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirish ta'minlanadi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish vositasi hisoblanadi.

Xalqaro hamjamiyat		
O'ziga xosligi	Vujudga kelish tarixi	Tuzilishi
Suverenitet	30 yillik urush	Siyosiy omil
Tenglik tamoyili...	Vestfaliya sulhi...	Internatsionalizm...

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

O'zbekistondan tashqarida, ya'ni boshqa davlatlarda ro'y berayotgan voqealar mamlakatimiz bozoriga qanday ta'sir etishi haqida mulohaza yuritamiz.

Vazifa. Istalgan 10 ta davlatni tanlab oling va ushbu davlatlarda iqtisodiy inqiroz, urush, ichki kelishmovchiliklar yoki boshqa voqealar ro'y bersa, bizning mamlakatimiz bozorlariga qanday ta'sir etishi mumkinligini bayon eting. Ushbu vazifani bajarishni uddalay olsangiz, O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan naqadar uzviy bog'langanini tasavvur qila olasiz. Masalan, Venesuela yoki Ekvadorda ichki kelishmovchiliklar ro'y bersa, mamlakatimizga bananning kirib kelishi kamayishi mumkin. Buning natijasida bananning narxi keskin oshib ketadi.

#### **Javob (o'quvchilar tomonidan bajariladi).**

1. Xitoy koronavirus oqibatida yopilgan paytda O'zbekistonda ko'plab texnikalarning narxi oshib ketdi.

2. Ukrainada yuzaga kelgan mojarolar natijasida O'zbekiston bozorida shirinliklar hamda shakar juda ham qimmatlab ketdi.

3. Agarda Qozog'istonda muammolar yuzaga kelsa, bu bug'doy kabi donli mahsulotlarga katta ta'sir qilishi va ularning ham narxi keskin oshib ketishi mumkin.

4. Agarda Amerika Qo'shma Shtatlari o'zining dollar siyosatiga o'zgartirish kiritrsa bu O'zbekistonda dollar kursining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

5. Janubiy Koreyada iqtisodiy pasayish yuz bersa, O'zbekistonga keladigan investitsiya hajmi kamayishi mumkin.

Shu kabi misollar bilan o'quvchilar javoblarni taqdim etishlari lozim. Shunda mamlakatimiz turli jabhalarda qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan bitta xalqaro hamjamiyatda yashab kelayotganini tushunishadi.







## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "**Semantik xususiyatlar tahlili**" topshirig'i beriladi.

"Semantik" so'zi inglizcha bo'lib, "ma'noviy jihatdan", "mazmunan bog'liq" deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarni faollashtirish, bilimni oshirish maqsadida qo'llanadigan metodlardan biri dars jarayonida foydalaniladigan jadvallar va grafiklarning semantik ma'nosini ifodalovchi tahlil qilish metodidir. Jadval va grafiklar dars jarayonida taklif etilayotgan axborotlarni kuzatish imkonini ko'rish orqali ma'lum bir maydon – jadvalda ifodalashni tashkil etadi. Jadval orqali g'oyalar, tavsiyalar, takliflar beriladi. Bu metodda yangi tushunchalar, mavzu, axborotlar, avvalgi bilimlar bilan qisman taqqoslash orqali o'rganiladi. Bunda o'quvchilar bilan ma'lum bir mezonlarga ko'ra tuzilgan jadval ma'lumotlari muhokama qilinadi. Bu muhokamani individual tarzda, kichik guruhlarda olib borish mumkin. So'ngra jadval ma'lumotlarida qo'yilgan maqsadga ko'ra to'ldirish zarur bo'lgan qator yoki ustunlar qoldiriladi. Berilgan axborotlar muhokama qilib bo'lingach, o'quvchilar bo'sh qator yoki ustunlarni to'ldirishga harakat qilishadi. O'quvchi o'z tahliliga ko'ra jadvalni to'ldiradi yoki grafik chizadi. So'ngra uni kichik guruhda muhokama qiladi. Kichik guruhda tahlil qilib, muhokama qilingach, katta guruhda muhokama qilinadi va umumiy qarorga ko'ra jadval to'ldiriladi, grafik chiziladi.

Xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni semantik xususiyatlar tahlili jadvaliga joylashtiramiz:



Xalqaro huquq	Milliy huquq
Xalqaro huquq dunyodagi davlatlar kelishuvi natijasi	Bir davlat doirasidagi huquqiy normalarning yig'indisidir
Huquqning turli darajada namoyon bo'lishi	Huquqning turli darajada namoyon bo'lishi
Huquqning ikki mustaqil tizimini tashkil etadi	Huquqning ikki mustaqil tizimini tashkil etadi
Xalqaro huquq normalari xalqaro huquqning subyektlari tomonidan yaratiladi	Milliy huquq normalari bir davlat organlari tomonidan qabul qilinadi
Xalqaro huquq normalari umuminsoniy va umumdemokratik xususiyat kasb etadi	Milliy huquq normalari muayyan bir davlatning mazmun-mohiyati va tabiatini namoyon etadi
Xalqaro huquq subyektlariga davlatlar hamda xalqlar va millatlar, xalqaro tashkilotlar kiradi	Milliy huquqning subyektlariga jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari kiradi
Xalqaro huquq normalari davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi	Milliy huquq normalari bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi
Xalqaro huquq normalarining harakat qilish mexanizmidagi ijroiya va sud organlari yo'q	Milliy huquqning harakati va uning qo'llanishi muayyan bir davlatning ijroiya va sud organlari bilan bog'liq bo'ladi

Bu metodni qo'llashda dastlab aynan shunga o'xshash va bir tomoni ochiq qoldirilgan jadval tasvirlangan tarqatma materiallar ulashiladi.

O'qituvchi taqdimotda bildirilgan fikr, to'ldirilgan jadval va uning xatolarini hisobga olib, ishni baholaydi

Shu turkumga oid topshiriqlarni bajarish o'quvchilarda kelgusi mehnat faoliyatlari uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Axborotning katta qismi jadval shaklida bo'ladi. Ularda ma'lumotlar hisoblanadi, taqqoslanadi. Jadvalni yaxshi taqqoslay olish yaxshiroq tahlil qilishga yordam beradi.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## **II. Anglash bosqichi.**

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tanishib olishi uchun "BBB" metodi tavsiya etiladi.

Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

### **"BILAMAN. BILMOQCHIMAN. BILIB OLDIM" (BBB) METODI**

Metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlarini baholash imkonini beradi. Uni qo'llashda o'quvchilar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi qo'rinishda tashkil etilishi mumkin:


Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg'ulot yakunida loyiha bandlari bo'yicha guruhlarining munosabatlari umumlashtiriladi

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g'oyalarni umumlashtiradi

O'quv faoliyat bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi.



Metoddan foydalanish uch bosqichda amalga oshiriladi, ya'ni:



No	MAVZU SAVOLI	BILAMAN	BILMOQCHIMAN	BILIB OLDIM
1	Xalqaro huquq tushunchasi			
2	Xalqaro huquqning tarixiy rivojlanishi			
3	Xalqaro huquqning ahamiyati			
4	Xalqaro ommaviy huquq			
5	Xalqaro xususiy huquq			
6	Xalqaro huquq tizimi ta'rifi			



7	Xalqaro huquq tamoyillari			
8	O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasi			
9	O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati			
10	Xalqaro shartnomalar			

### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun **“Venn diagrammasi”** metodi tavsiya etiladi.

Ushbu metod o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiradi. Metod o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir. “Venn diagrammasi” metodi mavzuning farqli hamda umumiy jihatlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llanadi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. “Venn digrammasi” grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirib ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o'rganishda qo'llanadi. Diagramma ikki va undan ortiq aylana kesishmasidan hosil bo'ladi.

“Venn diagrammasi” metodini qo'llash bosqichlari:

#### 1-bosqich

O'quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to'ldiradilar. Har bir doirada ikki tushunchaning e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi

#### 2-bosqich

O'quvchilarni kichik guruhlariga (4–5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaynadi va to'ldiriladi

#### 3-bosqich


Kichik guruh o'quvchilariga bu tushunchalarning umumiy xossalarini aniqlash taklif etiladi

#### 4-bosqich

Biror guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda javobni to'ldiradi.

#### 5-bosqich

Boshqa guruh vakili ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarni o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda bu javobni to'ldiradi.



### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

A. ismli Yo'l patrul xizmati xodimi soatiga 60 km tezlikda harakatlanish lozim bo'lgan yo'lda soatiga 75 km tezlikda harakatlanib kelayotgan B. davlati elchixonasiga tegishli bo'lgan avtomobilni to'xtatdi. Uni elchining o'zi boshqarib kelayotganini aniqlagach, elchidan avtomobilning yukxonasini ochishni talab qildi. Elchi rad etdi va tekshiruv o'tkazishning asosini so'radi. Shunda yo'l patrul xizmati xodimi elchiga belgilanganidan ko'ra katta tezlikda harakatlangani va avtomobilda shubhali narsalar bo'lishi mumkin degan taxmini borligi uchun tekshiruv o'tkazishini aytdi.

Berilgan huquqiy vaziyatni tahlil qiling.

**Javob:** Xalqaro odat huquqi ko'plab davlatlar tomonidan bir qancha muddat davomida amal qilib kelingan qoidalarning odatga aylanishi natijasida vujudga keladi. Masalan, elchilar o'zlari elchi sifatida tashrif buyurgan mamlakatda daxlsizlik huquqiga ega bo'lishi xalqaro odat huquqiga yorqin misoldir. Mazkur daxlsizlik huquqiga ko'ra, elchilarning turgan uylari, ular ishlaydigan elchixona hududiga ularning ruxsatisiz hech kim kirishi mumkin emas. Shuningdek, ularning avtomobillari yoki xat-hujjatlari ham o'zboshimchalik bilan tekshirilishi taqiqlanadi. Ushbu vaziyatda A. ismli yo'l patrul xizmati xodimi elchining avtomobilida tegishli ruxsatnomasiz hech qanday tekshiruv o'tkaza olmaydi. Xalqaro odat huquqiga muvofiq, elchilarga daxlsizlik huquqi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu kabi xalqaro odat normalari xalqaro shartnomalar bilan ham mustahkamlab qo'yiladi. Xususan, 1961-yildagi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi aynan biz ko'rib chiqayotgan muammoli holatga mos keladigan normalarni belgilab beradi. Unga ko'ra, elchilarning avtomobillari ham ularning mulki sifatida daxlsiz bo'lib, ularni ruxsatsiz tekshirish taqiqlanadi. O'zbekiston ham mazkur konvensiyaning a'zosi bo'lgani uchun biz muhokama qilayotgan qoidani nafaqat xalqaro odat huquq normasi, balki o'zi a'zo bo'lgan Xalqaro shartnoma normasi sifatida ham hurmat qiladi. Shu bilan bir qatorda elchilar ham o'zlari bo'lib turgan davlatning belgilangan tartib-qoidalariga bo'ysunishlari lozim hisoblanadi.



### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo'lishi				
BMTning maqsadlari				
Xalqaro hamjamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash				
O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. Xalqaro huquq. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan “Yurisprudensiya” yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalar uchun tavsiya etilgan. G. Yuldasheva va boshqalar. – Toshkent, 2018.

2. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. M. M. Muhammasodiqov. – Toshkent, – 2017.

3. “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi Qonuni, 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son.


4. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar (qo'mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning o'zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Toshkent sh., 2019-yil 23-may, PQ-4331-son.

5. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz”. – Toshkent: “O'zbekiston” 2017.

7. Xolliev A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – Toshkent, 2014.

**II. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### II. Motivatsion bosqich.

#### I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Klaster" metodi tavsiya etiladi.

##### "Klaster" metodi

"Klaster" metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammolar (mavzu) xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-bosqich: nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich: yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.

3-bosqich: belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich: muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

#### I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:



- o'quvchilardan matn bilan tanishib chiqish so'raladi;
- matn bilan tanishish jarayonida o'zi uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftari-ga yozish so'raladi;
- belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan daftari-ga yozgan tushunchalarni o'qib be-rish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**II.2.** O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Blits-so'rov" metodi tavsiya etiladi.

#### "Blits-so'rov" metodi

"Blits-so'rov" (inglizcha, tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadi. Ta'lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, gu-ruh, bo'lib juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o'quvchilarning qamrab olinishiga ko'ra belgi-lanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:

- O'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi
- O'quvchilar savollarga qisqa muddatda lo'nda, aniq javob beradi
- Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi (biroq fikrlar takrorlanmasligi lozim)

Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati o'quvchilar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.


No	"BLITS-SO'ROV" SAVOLLARI	"BLITS-SO'ROV" JAVOBLARI
1	Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?	
2	BMT qachon tashkil topdi?	
3	BMT bayrog'ni tavsiflab bering.	
4	BMT tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qanday qoidalarga amal qiladi?	

5	BMTning asosiy vazifalarini sanab o'ting.	
6	BMTning maqsadlari haqida nimalarni bilasiz?	
7	Sizningcha, davlatlar o'rtasida doimo katta va kichik urushlar bo'lishiga sabab nima?	
8	O'zbekiston BMTga qachon a'zo bo'ldi?	
9	BMT qachon Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi?	
10	O'zbekiston Respublikasi yana qanday masalalarda BMT bilan hamkorlik qilishi kerak deb o'ylaysiz?	

### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

B. davlati A. davlatga hujum qildi. Boshqa davlatlar birgalikda BMT orqali B. davlatga nisbatan sanksiyalar joriy etdilar. Ya'ni boshqa davlat hududiga xalqaro huquq qoidalarini buzib hujum qilgan B davlati yakkalab qo'yildi. Sizningcha, bu holat kelib chiqishi mumkin bo'lgan urushlarning oldini olishda yuqori samara beradimi, ya'ni B davlatga bu kabi sanksiyalar qo'llash asoslimi? Vaziyatga mavzu doirasida olgan bilimlaringizga asoslanib o'z fikringizni bildiring?

**Javob:** BMTning eng oliy maqsadi xalqaro hamjamiyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash hamda yuzaga keladigan ixtiloflarni yumshatish hisoblanadi. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida jamoaviy xavfsizlik qoidasiga amal qiladi. Ushbu qoidaga ko'ra, manfaatlari turli xil bo'lgan davlatlar ham bir jamoaga birlashadilar. Bu orqali davlatlar xalqaro huquqning eng asosiy qoidasi hisoblanmish "kuch ishlatmaslik" tamoyilini hurmat qilishlarini namoyon etadilar. Ushbu tamoyil BMT Nizomining 2-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur vaziyatda B. davlat aynan mana shu tamoyilga zid harakatni amalga oshirmoqda. Shuning uchun yuqoridagi vaziyatda B. davlat A. davlatga hujum qilgani bois boshqa davlatlar birgalikda BMT orqali B. davlatga nisbatan sanksiyalar joriy etmoqdalar. Ya'ni boshqa davlat hududiga xalqaro huquq qoidalarini buzib hujum qilgan davlat yakkalab qo'yilmoqda. Albatta, ushbu jamoaviy xavfsizlik tizimining ijobiy jihati mavjud bo'lib, u kelib chiqishi mumkin bo'lgan urushlarning oldini olishda yuqori samara beradi. Mazkur qoidaning mavjudligi davlatlarning turli kichik guruhlariga ajralib olib, urushlar yo'li orqali tinchlikni saqlashga urinishlaridan ko'ra ancha samarali deb ayta olamiz.





### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari				
Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlari				
Bola huquqlarini himoya qilishda BMTning faoliyati				
Veto huquqi				

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1. Xalqaro huquq. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan “Yurisprudensiya” yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalar uchun tavsiya etilgan. G. Yuldasheva va boshqalar. – Toshkent, 2018.

2. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. M. M. Muhammasodiqov. – Toshkent, 2017.


3. “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi qonuni, 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son.

4. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar (qo'mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning O'zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Toshkent sh., 2019-yil 23-may, PQ-4331-son.

5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

**II. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun **"Erkin yozish" topshirig'i** beriladi.

"Erkin yozish" metodini qo'llash tartibi: o'quvchilardan daftarlariga 3 minut vaqt ichida inson huquqlariga doir o'z tasavvurlarini to'xtamasdan yozish so'raladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylab o'tirmasdan yozish aytiladi. Agar hech qanday fikr kelmasa, tasavvurini rasm ko'rinishida tasvirlash mumkinligi ta'kidlab o'tiladi (shunda biror fikr esga tushishi mumkin). Uch daqiqa tugaganidan so'ng vaqt tugagani aytiladi va bir daqiqa sukut saqlanadi (chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda paydo bo'ladi). Keyin o'quvchilardan ruchkalarini partani ustiga qo'yish va navbati bilan daftarlariga yozganlarini o'qib berish so'raladi.

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tanishib olishi uchun "Toifalash" metodini qo'llash tavsiya etiladi.

Mazkur metod o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat, jihatlarini aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi. Uni qo'llashda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi. Metodni qo'llashda o'quvchilar quyidagilarga e'tiborni qaratadi:



Muhim xususiyat (toifa)larni yoritishga nisbatan yagona talab qo'yilmaydi

Guruhlarga bir xil topshiriq berilganda bir guruhning yechimi ikkinchi guruhning yechimidan farqlanishi mumkin

O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlar haqida ma'lumot berish mumkin emas, muhim xususiyatlarni izlash jarayoni ham ularning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi shart



Mashg'ulotlarda metoddan foydalanish tartibi quyidagicha:

O'qituvchi muhim xususiyatlari belgilanishi lozim bo'lgan mavzu (masala yoki muammo)ni aniqlab, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi

O'quvchilar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda "Toifalash" metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladi

Kichik guruhlarga ma'lum topshiriqlar beriladi

Kichik guruhlar topshiriqni bajaradi (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydi, ularni jadval yordamida ifodalaydi)

Kichik guruhlar o'z yechimlarini jamoa e'tiboriga taqdim etadi

Jamoa tomonidan kichik guruhlarining ishlari muhokama qilinadi

### Toifalash jadvali

## BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ORGANLARI

Bosh Assambleya	Xavfsizlik Kengashi	Iqtisodiy va ijtimoiy kengash	Vasiylik Kengashi	Xalqaro adolat sudi	Kotibiyat
BMTga a'zo davlatlarning umumiy yig'ilishi	Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashda eng muhim vazifani bajaradi	Iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va madaniyat bilan aloqador xalqaro masalalarni o'rganadi	Vasiylikdagi hududlarning mustaqillikka erishishlarini aniqlashga yordam beradi	BMTning sud organi hisoblanadi	BMTning ma'muriy va hujjatlar bilan bog'liq ishlarini yuritadi

Davlatlar turli masalalar yuzasidan muzokaralar va muhokamalarni amalga oshiradilar	15 ta a'zodan tashkil topadi	Hisobot va tavsiyalar tayyorlaydi	Ushbu hududlarda o'z-o'zini boshqarishga doir choralar ko'rish uchun tashkil etilgan	Sudyalar Bosh Assambleya hamda Xavfsizlik Kengashi tomonidan saylanadi	Kotibiyatga Bosh kotib boshchilik qiladi
Masalar ovozga qo'yiladi	Shulardan beshtasi doimiy a'zolaridir	BMTning 54 ta a'zosidan tashkil topadi	Hozirda ushbu organning faoliyati to'xtatilgan	15 nafar sudyadan tashkil topadi	BMTga aloqador tezkor hamda ma'muriy ishlarni bajaradigan organdir
Ovoz berishda barcha davlatlar vakillari teg huquqli	Ushbu doimiy a'zolar o'zgarmaydi	A'zolar Bosh Assambleya tomonidan uchyilga saylanadi		Doimiy faoliyat olib boradi	Deyarli barcha xalqaro shartnomalar BMT kotibiyati tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi
Har biri bir ovozga ega bo'ladi	AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Fransiya	BMTning ko'plab muhim ixtisoslash-tirilgan organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi		Sudga jismoniy hamda yuridik shaxslar murojaat qila olmaydilar	
Ushbu qarorlar a'zo davlatlarga tavsiya etiladi	Qolgan o'nta davlat Bosh Assambleya tomonidan ikki yilga adolatli geografik taqsimot tamoyiliga rioya etilgan holda saylanadi			Xalqaro huquq subyekti bo'lgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar murojaat qilishlari mumkin	





**Vasiylik Kengashi** – Hozirgi paytda, tarkibiga Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a'zosi kirgani sababli Vasiylik Kengashi ishlari, asosan, tugallandi, uning ish tartibi qoidalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, ya'ni u o'zining yig'ilishlarini faqat shart-sharoit taqozo etgan hollardagina o'tkazadigan bo'ldi.

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi. Bunda darslikdagi o'quv savollarini o'zaro uyg'un tarzda aniq va tushunarli bayon etish talab qilinadi. Intellekt xarita o'quvchilarga o'rganilayotgan masalani assotsiatsiyalar yordamida o'zlashtirish imkonini beradi.

### III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "To'g'ri/notog'ri" jadvalini to'ldirish taklif etiladi.

No	Ma'lumot	To'g'ri 	Noto'g'ri 
1	Iqtisodiy va ijtimoiy kengash 15 ta doimiy a'zodan iborat		
2	Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolaridan birining ma'lum masala yuzasidan chiqarilishi mumkin bo'lgan qarorga qarshi ovoz berishi "Veto huquqi" hisoblanadi		
3	Kotibiyatga Bosh kotib boshchilik qiladi		
4	FAO BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti		
5	BMTning sud organi hisoblanadi 54 ta sudyadan iborat		

III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

BMTning 17 ta ixtisoslashgan tashkilotlari ro'yxati jadvalini yarating. Jadvalning chap tomoniga ularning nomlarini, o'ng tomoniga esa bajaradigan vazifalarini yozing. Shundan so'ng o'zingiz yana qanday ixtisoslashgan tashkilotlarni qo'shishni istashingizni va buning sabablarini jadvalning quyi qismida keltiring.



## 31-DARS. O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMJAMIYATDAGI O'RNI

Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug',  
hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi.

**Shavkat Mirziyoyev**

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. **Insert chizmasi** orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.




- “V” – men biladigan ma'lumotlar;
- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqda men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.

Insert chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.

### O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat uchun qo'shayotgan hissi





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### I. Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "BBB" metodi tavsiya etiladi.

#### "BBB" metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi.

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O'quv faoliyati bevosita sinf doskasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi jadval (1, 2) asosida tashkil etiladi.

1-jadval

Mavzuga doir asosiy tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

2-jadval

Mavzuga doir asosiy tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
O'zbekiston tashqi siyosatda amal qiluvchi tamoyillar	Davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegalarning daxlsizligi		
O'zbekistonning xalqaro hamkorligi			
Xalqaro hamjamiyat rivoji uchun qo'shayotgan hissasi			Orol dengizi muammosini hal etish maqsadida xalqaro hamjamiyat e'tiborini ushbu muammoga qaratish va uni hal qilish bo'yicha jamg'armalar tuzishda tashabbus ko'rsatmoqda
Mustaqil Davlat Hamdo'stligi			

Metoddan foydalanish 3 bosqichda amalga oshiriladi.

– O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarni bilish darajasi aniqlanadi.

– O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

– O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi (bo'shliqlar dars jarayonida to'ldirib boriladi).

Bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

– O'quvchilarning (individual, guruhlarda) ishlashlari e'lon qilinadi.

– O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarni bilish darajasi o'rganiladi va ular tomonidan bayon etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

– O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi va bu ehtiyojlar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

– O'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi.

O'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi.

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tanishishi uchun "Yashiringan tushunchalarni aniqlash" metodini qo'llash tavsiya etiladi.

Quyida berilgan harflardan foydalanib, yashiringan tushunchalarni aniqlang.



O'	Z	B	E	K	I	S	T	O	N	S	SH
X	A	L	Q	A	R	O	O	R	D	U	H
CH	M	I	N	T	A	Q	A	O	A	V	T
E	I	T	T	I	F	O	Q	L	V	E	H
G	J	A	M	I	Y	A	T	B	L	R	U
A	S	I	Y	O	S	A	T	M	A	E	Q
R	T	I	N	CH	L	I	K	T	T	N	U
A	R	E	S	P	U	B	L	I	K	A	Q

1. Siyosat	6. Respublika	11. Xalqaro
2. O'zbekiston	7. SHHT	12. Orol
3. Suveren	8. Ittifoq	13. Davlat
4. BMT	9. Jamiyat	14. Huquq
5. Chegara	10. Mintaqa	15. Tinchlik

I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## III. Refleksiya bosqichi.


III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun **Sinkveyn tuzish** tavsiya etiladi.



“Sinkveyn” metodini samarali amalga oshirish uchun har bir ishtirokchiga erkin ishlashi sharoiti yaratilishi kerak. Mustaqil fikr va g’oya yozish uchun kerakli doska, rangli markelar, posterlar, kodoskop, turli formatdagi qog’ozlar oldindan tayyorlanishi lozim. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi.

### Sinkveyn tuzish qoidasi:

1. Birinchi qatorda topshiriq bir so‘z, odatda ot bilan ifodalanadi (Kim? Nima?).
2. Ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi (Qanday? Qanaqa?)
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi xatti-harakat vazifasini anglatuvchi uchta so‘z fe‘l bilan ifodalanadi.
4. To‘rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvurni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi.
5. Oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga o‘xshash bo‘lgan bitta so‘z (sinonim) yoziladi.



### III.2. Mustaqil ish topshirig‘ini bajartirishga doir ko‘rsatmalar.

A. ismli shaxs B. davlatining fuqarosi. U hozirda D. davlatida istiqomat qiladi. Uning inson huquqlari, xususan, mulk huquqi D. davlati tomonidan qo‘pol tarzda buzildi. Ya’ni D. davlati hukumati A. ismli shaxsning D. davlatida joylashgan barcha mulklarini huquqiy asoslarsiz tortib oldi. Ushbu vaziyatda A. ismli shaxs o‘zi fuqarosi bo‘lgan B. davlatga uning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishini so‘rab murojaat qilishi mumkinmi? Vaziyat yuzasidan egallagan bilimlaringiz asosida fikringizni bayon eting.

Bu kabi muammoli vaziyatlar xalqaro hamjamiyatda tez-tez uchrab turadi. Xususan, chet ellik investorlarning mulklari qonuniy, ba’zan esa noqonuniy yo‘llar bilan ular bo‘lib turgan davlatning hukumati tomonidan tortib olinadi. Bunday vaziyatda A. o‘z davlati B. dan yordam so‘rashi va B. davlat ham “diplomatik himoya” qoidasidan foydalangan holda unga yordam berishi mumkin. Biroq davlatlar boshqa davlat bilan munosabatlari yomonlashmasligi uchun bu kabi vaziyatlarda xalqaro sudlarga murojaat qilishmaydi. Shuning uchun bu holatda eng yaxshi chora A. ismli shaxs D. davlatning sudiga murojaat qilishi hisoblanadi. Shuningdek, o‘sha davlatdagi inson huquqlarini himoya qiluvchi idoralarga murojaat etishi maqsadga muvofiq. Agar shunda ham ijobiy javob ololmasa, unda Xalqaro inson huquqlari sudlariga yoki arbitrajlariga shikoyat qilishi maqsadga muvofiqdir.

## 32-DARS. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI

*Muvaffaqiyatni sa'y-harakatda,  
muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko'rdim*  
**Najmiddin Kubro**

### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**I. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing, mavzu yuzasidan savollar tuzing va shu savollarga javob topish orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.

No	Savollar	Javoblar
1	Fuqarolik deganda nimani tushunasiz?	
2	O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi tushunchasini ta'riflang.	
3	O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish tartiblarini ayting.	
4	Pasport rasmiylashtirish va berish tartibini tushuntiring.	
5	"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?	
6	Pasport olish uchun qanday hujjatlar taqdim etish lozim?	
7	ID-karta fuqarolarga qanday muddatlarga beriladi?	
8	ID-kartani rasmiylashtirish va berish qanday hollarda amalga oshiriladi?	
9	Qanday hollarda O'zbekiston fuqaroligi yo'qotiladi?	

#### Namuna:

No	Savollar	Javoblar
1	Fuqarolik deganda nimani tushunasiz?	Fuqarolik insonning aniq bir davlat bilan huquqiy aloqalaridir.
2	O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi tushunchasini ta'riflang.	O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan, inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasidir.
3	O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish tartiblarini ayting.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy tartibda;</li> <li>• soddalashtirilgan tartibda;</li> <li>• alohida tartibda amalga oshiriladi.</li> </ul>



4	ID-karta rasmiylashtirish va berish tartibini tushuntiring.	<ul style="list-style-type: none"><li>• Shaxs 16 yoshga to'lganda;</li><li>• O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi olinganida;</li><li>• pasportning amal qilish muddati tugaganida;</li><li>• familiyasi, ismi, otasining ismi, millati, tug'ilgan sanasi o'zgarganida;</li><li>• yozuvlarda noaniqliklar va xatolar mavjudligi aniqlanganida;</li><li>• sud ajrimi bilan pasportning amal qilishi to'xtatib turilganida;</li><li>• ro'yxatga olish (ro'yxatdan chiqarish), alohida ma'lumotlar yoki vizalar uchun mo'ljallangan varaqlar ishlatilib bo'linganida;</li><li>• pasport blankasi yaroqsiz holga kelganida;</li><li>• pasport yo'qotib qo'yilganida.</li></ul>
5	"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?	"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun (1992-yil 2-iyul) yangi tahrirda 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan.
6	ID-karta olish uchun qanday hujjatlar taqdim etish lozim?	<ul style="list-style-type: none"><li>• Belgilangan shakldagi ariza;</li><li>• ilgari berilgan pasport;</li><li>• tug'ilganlik haqida guvohnoma (birinchi marta rasmiylashtirilayotganda);</li></ul> davlat boji to'langanligi haqidagi to'lov qog'ozi.
7	ID-karta fuqarolarga qanday muddatlarga beriladi?	<ul style="list-style-type: none"><li>• Yangi tug'ilgan bolaga bir yoshgacha ikki yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);</li><li>• bir yoshdan o'n olti yoshgacha – besh yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);</li><li>• o'n olti yoshdan boshlab o'n yil muddatga.</li></ul>
8	ID-kartani rasmiylashtirish va berish qanday hollarda amalga oshiriladi?	<ul style="list-style-type: none"><li>• Ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra, bola tug'ilgandan boshlab 16 yoshga to'lguniga qadar;</li><li>• fuqaro 16 yoshga to'lganda;</li><li>• O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinganda yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida tan olinganda;</li><li>• ID-kartaning amal qilish muddati tugaganda.</li></ul>
9	Qanday hollarda O'zbekiston fuqaroligini yo'qotiladi?	a) shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida; b) agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobiga turmagan bo'lsa.

Savol-javoblar orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, manbalar asosida zarur ma'lumotlarni o'zlashtiring.

### Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Husanov O. T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. VIII bob, 97–107-betlar.

2. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at.

3. O'zbekiston respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonun. 2020-yil 13-mart.

### Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.

2. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni. 13.03.2020-yildagi O'RB-610-son.

3. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi 14.06.2021-yildagi O'RB-696-son qonun.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan, "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risida"gi nizom 2-bob. Xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibi.

**Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish tavsiya etiladi.





## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### Motivatsion bosqich.

I.1. O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Zinama-zina" texnologiyasi topshirig'i beriladi.

**Texnologiyaning tavsifi:** ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash, eslash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.


**Texnologiyaning maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

**Texnologiyaning qo'llanishi:** ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish, nazorat darslarida ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- Mavzular soniga ko'ra o'quvchilar 3–5ta kichik guruhga ajratiladi.
  - Mashg'ulot maqsadi va uni o'tkazish tartibi tushuntiriladi.
  - Har bir guruhga chap tomoniga kichik matnlar yozilgan varaqlar tarqatiladi.
  - O'quvchilar kichik mavzu bo'yicha fikrlarini qog'ozning o'ng tomoniga yozishi uchun vaqt belgilanadi.
  - Belgilangan vaqt tugagandan so'ng ketma-ketlik asosida guruh vakillari o'z ishlarini taqdimot qiladilar.
  - Tayyorlangan ishlar doskada ketma-ketlikda (tagma-tag), ya'ni zina shaklida ilib qo'yiladi.
  - O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh beradi, ularni baholaydi.
- Dastlab o'qituvchi o'quvchilarga "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi" mavzusiga doir darslikdagi ma'lumotlarni, shuningdek, kutubxonadan va internetdan mavzuga doir ma'lumotlarni o'rganib kelishni topshiradi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish davomida o'qituvchi asosiy mavzuni quyidagi kichik mavzularga bo'lib chiqadi va tarqatma materiallar tayyorlaydi. Masalan:




I.2. Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

## II. Anglash bosqichi.

II.1. O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Tushunchalarni aniqlash" metodi qo'llanadi. Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

- o'quvchilar matn bilan tanishib chiqadi;
- o'zi uchun tushunarsiz so'zlarning hammasini daftoriga qayd etib boradi;
- belgilangan vaqt tugagach, daftarga yozgan tushunchalarini o'qib beradi.



Fuqarolik	
O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi	
Fuqarolik pasporti	
Identifikatsiyalovchi karta	
O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish asoslari	
Pasport rasmiylashtirish va berish tartibi	
Pasport rasmiylashtirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar	
ID-kartani rasmiylashtirish va berish tartibi	
Fuqarolikni yo'qotishning huquqiy asoslari	
Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ularning huquqlari	
O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash tartibi	

**Eslatma:** uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

II.2. O'qituvchi o'zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

## III. Refleksiya bosqichi.

III.1. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Nilufar guli" texnologiyasidan foydalaniladi.

Texnologiya – didaktik muammolarni yechishning samarali usullaridan biri. Nilufar guli ko'rinishidagi asosga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, turtburchak yoki aylana)dan foydalaniladi. Bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. O'quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, mohiyatni tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Texnologiya quyidagi tartibda qo'llanadi:



Hal etiladigan masala aniqlashtiriladi
O'quvchilar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladi
O'quvchilar kichik guruh (yoki juftliklar)ga birlashtiriladi
Guruh yoki juftlik a'zolari markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g'oya, vazifa)ni qayd etadi
Guruh (juftlik)lar masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta shunday qo'shimcha chizmalarni hosil qiladi (ularida masalaning xususiy yechimlari bayon etiladi)
Qo'shimcha chizmalardagi g'oyalar "gulbarglar"da aks etadi (har birida muammo yoritiladi)
Yordamchi chizmalardagi yetakchi muammo (g'oya, vazifa) atrofidagi "gulbarglar"da xususiy masala va yechim aks ettiriladi
O'rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin
Har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o'z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi
Guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, eng to'g'ri variant aniqlanadi
O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi

O'quvchilarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim taqdim etiladi:

	Fuqarolikni yo'qotish			Pasport			ID-karta	
			Fuqarolikni yo'qotish	Pasport	ID-karta			
	O'zb. Res. fuqaroligi		O'zb. Res. fuqaroligi	FUQAROLIK	ID-rasmiylashtirish		ID-rasmiylashtirish	
			Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar	Pasport olish	Qabul qilish			
	Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar			Pasport olish			Qabul qilish	



### III.2. Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.


Tasavvur qiling: bir oila yashash uchun chet elga ko'chib ketdi. U yerda farzandli bo'ldi. Shuningdek, oila chet elda yashayotgan davrda ota o'sha davlat hokimiyatiga ishga kiradi. Biroq ancha yil o'tgan bo'lsa-da, O'zbekistonga qaytmaydi. Oradan 8 yil o'tib qaytgach, unga O'zbekiston fuqaroligidan chiqarilganligi aytiladi. Ushbu holatda ota, uning ayoli va farzandning fuqarolik masalasi qanday hal qilinadi. Vaziyatga mavzu doirasida olgan bilimingiz orqali yechim berishga harakat qiling.





### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

**II. Matn ustida ishlash.** Darslikda berilgan mavzuga doir o'quv materiallari bilan tanishing. Inset chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qiling. Buning uchun quyidagi jadvalni chizib oling va matn bilan ishlash jarayonida uni to'ldirib boring.



- “V” – men biladigan ma'lumotlar;
- “+” – men uchun yangi ma'lumot;
- “-” – bu haqda men boshqacha fikrdaman;
- “?” – men uchun tushunarsiz.

Inset chizmasi orqali o'quv materiallarini tahlil qilib bo'lgach, ochiq manbalar asosida yangi ma'lumotlarni o'zlashtiring.

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	“V”	“+”	“-”	“?”
Xalqaro hamjamiyatda fuqarolik masalasi				
“Diplomatik himoya”				
Chet el fuqarolarining huquqlari				
Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning himoyalanihi				

Qo'shimcha manbalar sifatida quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

2. Husanov O. T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. VIII bob, 97–107-betlar.

2. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Lex.uz.

3. “O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida”gi qonun.



**II. Hujjatlarga doir asosiy ma'lumotlar bilan ishlash.** Me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishning va ularni o'zlashtiring. Yangi mavzuni bayon etishda ulardan foydalaning.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.

2. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni, 13.03.2020-yildagi O'RQ-610-son

3. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi 14.06.2021-yildagi O'RQ-696-son qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qaroriga "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risida"gi nizom

**III. Yangi mavzuni bayon etishga doir interfaol metodni ishlab chiqish.** Mavzuni bayon etishda interfaollikni ta'minlash va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish maqsadida intellekt xarita tuzish lozim.

## DARSNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

### II. Motivatsion bosqich.

**I.1.** O'quvchilarni mashg'ulotga jalb etish uchun "Erkin yozish" topshirig'i beriladi.


"Erkin yozish" metodini qo'llash tartibi: o'quvchilardan daftarlariga 3 daqiqa ichida inson huquqlariga doir o'z tasavvurlarini to'xtamasdan yozish so'raladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylab o'tirmasdan yozish aytiladi. Agar hech qanday fikr kelmasa, tasavvurini rasm ko'rinishida tasvirlash mumkinligi ta'kidlab o'tiladi (shunda balki biror fikr esga tushishi mumkin). Uch daqiqa tugaganidan so'ng, vaqt tugadi deb aytiladi va bir daqiqa sukut saqlanadi (chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda paydo bo'ladi). Keyin o'quvchilardan ruchkalarini parta ustiga qo'yish va navbati bilan daftarlariga yozganlarini o'qib berish so'raladi.

Eslatma: uch-to'rt nafar o'quvchidan so'ng boshqalarda aytilganlaridan farqli fikrlar bo'lsa, qo'l ko'tarib bildirish so'raladi.

**I.2.** Darslikdagi mavzuga qisqa izoh beriladi.

### II. Anglash bosqichi.

**II.1.** O'quvchilar darslikdagi mavzu matni bilan tezda tanishib olishi uchun "Ikki qismli kundalik" metodini qo'llash tavsiya etiladi.





## “IKKI QISMLI KUNDALIK” METODI

“Ikki qismlı kundalik” metodi o‘quvchilarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini o‘stirish imkonini beradigan metod hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar qandaydir katta matnni o‘qib chiqish topshirig‘ini olishganida ikki qismlı kundalik foydalidir. Ikki qismlı kundalik uchun o‘quvchilar toza (yozilmagan) varog‘ining o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikki qismga ajratishlari kerak. Qog‘ozning chap tomonida matnning qaysi qismi ularda eng ko‘p taassurot qoldirganini yozishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar. O‘ng tomonda ular sharh berishlari kerak: ayni shuni yozishga ularni nima majbur etdi? Ularda qanday fikrlar uyg‘ondi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug‘ildi? Qisqasi, matnni o‘qirgan, o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan to‘xtashlari va o‘zlarining ikki qismlı kundaligiga tegishli belgilar qo‘yib borishlari kerak.

### O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY AHOLI VA CHET ELLIKLAR



Bir davlat aholisi va chet elliklar o‘rtasidagi farq aynan ularning qaysi davlat fuqarosi ekaniga bog‘liq.

O‘zbekiston o‘z fuqarolarini nafaqat O‘zbekiston hududida, balki undan tashqarida ham himoya qiladi.

Pasport O‘zbekiston Respublikasi mulkidir.

Diplomatik himoya.

Mamlakatimizda O‘zbekiston fuqarolaridan tashqari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet elliklar ham uchraydi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet elliklarning huquqlari mamlakatimiz tomonidan xalqaro huquq qoidalariga binoan himoya qilinadi.

Pasportni hech qachon o‘zgalarga berish mumkin emas.

Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar va inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar orqali shaxslarning huquqlari himoya qilinadi.

Diplomatik himoya qoidasi fuqarolarimizning pasportlarida ham o‘z aksini topgan.

Davlat fuqarosini xorijiy mamlakatlarda ham himoya qilishni kafolatlaydi.

Xorijda sizning huquq va manfaatlaringiz buzilsa, o‘sha davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari yoki o‘sha davlatda joylashgan O‘zbekistonning elchixonasi va konsullik idoralari murojaat qilishingiz kerak. Xalqaro huquqda inson huquqlariga oid xalqaro qoidalar amal qildi.

Har qanday harakatimiz o‘sha davlat fuqarolarida yurtimiz imijini shakllantiriladi.


O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari ham xorijiy mamlakatlar tomonidan ularning inson huquqlari buzilganda xalqaro huquqdan yechim izlaganlar.

Xususan, Turkiya, Rossiya hamda Shvetsiya davlatlari ustidan Yevropa inson huquqlari sudiga murojaat qilgan fuqarolarimizning soni talaygina.

**II.2.** O‘qituvchi o‘zi tayyorlagan intellekt xarita yordamida yangi mavzuni bayon qiladi.

### III. Refleksiya bosqichi.

**III.1.** O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Nima uchun?” chizmasini to‘ldirish taklif etiladi.



“Nima uchun” chizmasi – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri hisoblanadi. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1) o'quvchilar daftarlariga namuna asosida mustaqil ravishda chizmani chizishlari va to'ldirishlari mumkin. Faqat muammoning asosiy sabablarini aniqlash va ular bilan kichik sabablar orasida bog'lanish hosil qilishni tushuntirish lozim;
- 2) topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa yetarli bo'ladi. O'quvchilarga uni uyda yoki bo'sh vaqtida davom ettirishga qiziqish uyg'otish ularda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi;
- 3) vaqt tugagach, 3–4 nafar o'quvchidan o'zlari aniqlagan sabablarini o'qib berish va qolganlardan farqli fikrlar bo'lsa, aytishni so'rash mumkin.

**III.2.** Mustaqil ish topshirig'ini bajartirishga doir ko'rsatmalar.

A. ismli shaxs B. davlatining fuqarosi. U hozirda D. davlatida istiqomat qiladi. Uning inson huquqlari, xususan, mulk huquqi D. davlati tomonidan qo'pol tarzda buzildi. Ya'ni D. davlati hukumati A. ismli shaxsning D. davlatida joylashgan barcha mulklarini huquqiy asoslarsiz tortib oldi. Ushbu vaziyatda A. ismli shaxs o'zi fuqarosi bo'lgan B davlatga uning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishini so'rab murojaat qilishi mumkinmi?

Egallagan bilimlaringiz asosida vaziyat yuzasidan fikringizni bayon eting.





### DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA METODIK KO'RSATMALAR

#### IJODIY FAOLIYAT XORIJGA CHIQISH PASPORTINI OLAMIZ

S. 11-sinfni bitirdi. 18 yoshga to'lgani uchun kelgusidagi ishlarini rejalashtira boshladi. Xususan, S. oilasiga moddiy jihatdan yordam bermoqchi. Shuning uchun 10-sinfdan boshlab koreys tilini o'rgandi va endi Janubiy Koreyadagi bir firmaga ishga kirish niyatida. Bir oy oldin firma imtihonidan muvaffaqiyatli o'tdi. Endi Janubiy Koreyaga borsa, o'sha yerda o'z ishini boshlaydi. Lekin S. viza olishi uchun firma tomonidan S.ga xat yuborilishi kerak. Ushbu xatda S.ning xorijga chiqish pasportining seriyalari aniq ko'rsatilishi zarur. S. qanday qilib xorijga chiqish pasportini olishni bilmaydi. Iltimos unga yordam bering.

A. esa S.ning sinfdoshi. U 18 yoshga to'lishiga yana 5 oy bor. A. juda ham zehni o'tkir qizlardan va nemis tilini yuqori darajada o'zlashtirgan. U 11-sinfni bitirgach, Germaniyaning Bonn universitetiga bakalavr bosqichiga o'qishga qabul qilindi. Universitetdan unga kerakli hujjatlarni topshirishi haqida elektron pochta orqali xabarlar kela boshladi. Ularning ichida xorijga chiqish pasportini skaner qilib jo'natish talabi ham bor. U 2 oydan keyin Germaniyaga uchib ketishi kerak. A. ham xorijga chiqish pasportini qanday qilib olaman deb o'yg'a botgan. Siz unga foydali maslahat bera olasiz, degan umiddamiz.

**Vazifa.** Demak, sizning vazifangiz avvalo S. va A.ga birma-bir xorijga chiqish pasporti hamda viza nima ekanligini tushuntirishdir. Buning uchun quyida taqdim etilgan tushunchalardan foydalanishingiz mumkin. Ularga xorijga chiqish pasporti va viza nima uchun kerakligini tushuntirganingizdan so'ng ularni olish tartibini ham tushuntirishingiz kerak bo'ladi. Bunda bir narsaga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. Insonlarga bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladigan jarayonlarni tushuntirganda ma'lumotlarni aralash-quralash qilib aytish samarasiz. Ularni ketma-ketlikda va ma'lum bir chizma asosida tushuntirish esa, aksincha, juda ham samarali bo'ladi. Bu xuddi bir insonga boradigan manzilini xarita orqali tushuntirishga o'xshaydi. Siz ham samarali usuldan foydalaning. Chizma chizing va bu ikki bitiruvchiga dastlab xorijga chiqish pasportini qanday olishni, undan keyin viza olish uchun qayerga murojaat qilishlari kerakligini ko'rsatib bering.

**Viza** – turli davlatlar fuqarolarining boshqa biron-bir davlatga kirishi, undan chiqishi, qisqa muddat yashashi yoki davlat hududidan o'tishi uchun hukumat mas'ul organlari tomonidan fuqaro pasportiga qo'yiladigan maxsus rasmiy ruxsat belgisi.

Yuqoridagi masalalarga javob topishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va "Fuqarolarning xorijga chiqish biometrik pasportini olish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza yuborish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroridan foydalaning. Ushbu qarorlarni [lex.uz](http://lex.uz) saytidan topishingiz mumkin.

Shuningdek, Germaniya hamda Janubiy Koreya davlatlarining O'zbekistondagi elchixonalari saytidan foydalanishingiz mumkin. Siz u yerdan viza olish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarni topasiz.

Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasi rasmiy veb-sayti: <https://taschkent.diplo.de/uz>.

Janubiy Koreyaning Toshkentdagi elchixonasi rasmiy veb-sayti: <https://overseas.mofa.go.kr/uz-uz/index.do>

Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma. Ushbu eslatma viza olish uchun kerakli hujjatlarni taqdim etish haqida faqat umumiy ma'lumot beradi. Har safar turiga qarab (mehmonga borish, xizmat safari, ishlash maqsadida, o'qishga borish, oilani birlashtirish maqsadidagi safar) va elchixonaga oldindan qabulga yozilish tizimi asosida ro'yxatdan o'tish uchun batafsil ma'lumotni jamlagan alohida eslatmalar mavjud. Ularning mazmuniga e'tibor berishingizni so'raymiz! Qanday viza turlari mavjud? Umuman olganda, ikki xil viza turi mavjud: Shengen va Germaniya milliy vizasi. Shengen vizasi yarim yil ichida 90 kundan oshmagan muddatga berilishi mumkin va u ko'rsatilgan vaqt mobaynida barcha Shengen davlatlariga bir necha marta kirib-chiqish imkonini beradi. Germaniya milliy vizasi avvaliga uch oyga beriladi va safar maqsadiga qarab 2011-yil 1-sentyabrdan boshlab amalda bo'lgan elektron viza Germaniyada beriladi. Qaysi davlatlar Shengen shartnomasi hududiga kiradi: Avstriya, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Finlandiya, Fransiya, Chexiya, Shveysariya, Shvetsiya va Estoniya Shengen shartnomasiga a'zo davlatlar sanaladi. Shengen vizasini olish jarayoniga 2010-yil 5-apreldan boshlab qanday o'zgarishlar kiritildi? 2010-yilning 5 apreldan Viza kodeksi qisqa muddatli tashriflar uchun (Shengen vizasi) majburiy huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu viza kodeksiga binoan, Shengen vizasi qo'shimcha 15 kunni o'z ichiga oluvchi ma'lum bir muddatga beriladi va bu muddat mobaynida Shengen hududiga a'zo davlatni tark etish va o'z vatani hududiga qaytib kirishni qulay ravishda rejalashtirish mumkin. Tibbiy sug'urta shartnomasi qo'shimcha muddatga mos ravishda tuzilgan bo'lsagina, qo'shimcha muddat belgilanishiga asos bo'la oladi. Agar ruxsat etilgan kunlar soni 90 kundan oshsa, qo'shimcha muddat belgilanmaydi. Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasi faqat Germaniyaga safar qilish uchun viza beradimi? Agar safaringizning asosiy maqsadi Germaniya, Finlandiya, Avstriya, Shvetsiya yoki Ispaniya davlatlari bo'lsa, Germaniya Federativ Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasiga Shengen vizasini olish uchun ariza topshirishingiz mumkin.

• Hujjatlarni arizachining shaxsan o'zi topshirishi lozim. Bu vazifani boshqa shaxsga yozma ravishda va belgilangan tartibda yuklatish imkoniyati mavjud bo'lsa ham, ushbu vakolat arizachiga elchixona xodimlari bilan yuzma-yuz suhbatdan ozod bo'lish huquqini bermaydi. Voyaga yetmagan bolalar uchun ham alohida ariza formalari to'ldirilib, formalar ota-onasi, yoxud rasmiy vasiy tomonidan imzolaniadi. Amal qilayotgan mahalliy talablar sababli voyaga yetmagan bolalarning na otasi, na onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ammo ariza formalarini ulardan faqat bittasi imzolagan bo'lsa, u holatda imzosi yo'q otadan yoki onadan notarius tomonidan tasdiqlangan rozilik xati talab qilinadi. Qabulga yozilish qanday amalga oshirishini "Qabulga yozilish tizimi haqidagi ma'lumotnoma"dan bilib olishingiz mumkin.





- Viza uchun talabnoma rejalashtirilgan safar boshlanishiga uzog'i bilan uch oy qolganida topshirilishi mumkin.

- Fotosuratlar (ariza berilgan kundan uzog'i bilan uch oy oldin olingan) pasport formatidagi 45x35 mm hajmida bo'lishi, yuzingizning oldi tarafidan olingan bo'lishi, shuningdek, bosh kiyimsiz va ko'zingiz atrofi ochiq holda tushirilishi zarur.

Viza bo'limida hujjat topshirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

- Qabul oynasi oldidagi suhbat. Siz tomondan taqdim etilgan hujjatlar va sizga berilgan savollar viza talabnomangizni to'g'ri baholashga xizmat qiladi. Iltimos, o'z manfaatingizdan kelib chiqqan holda sizga berilgan barcha savollarga to'liq va haqqoniy javob bering.

- Hujjatlardagi kamchiliklar. Qoidaga binoan, safar maqsadiga ko'ra tuzilgan eslatmadagi hujjatlar asli va bittadan nusxasi to'liq tartibda taqdim etilsagina viza talabnomasi qabul qilinadi. Viza berish yoki bermaslikni qaror qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlar yetishmasa, viza bo'limi hujjatlaringizni qabul qimaslikka haqlidir (yuqoridagi taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar sarlavhasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni inobatga oling). Bu holda keyingi qabulga kirish uchun qaytadan bo'sh kunga yozilish lozim bo'lishiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. Agar siz ma'lum sabablarga ko'ra, ba'zi hujjatlarni taqdim eta olmasangiz, buni suhbat chog'ida albatta ayting. Talab qilingan hujjat o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etsangiz, bu viza talabnomangizni ko'rib chiqishda inobatga olinadi.

Viza talabnomasini ko'rib chiqish muddati qancha? a) Germaniyaga safar qilish uchun Shengen vizasi. Viza berish tartibiga binoan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining viza talabnomalarini ko'rib chiqish muddati 15 kundan oshmasligi kerak. Hujjatlarni chuqurroq o'rganish va tekshirish zarurati bo'lmasa, elchixonona O'zbekiston fuqarolarining hujjatlarini 4 ish kun davomida ko'rib chiqishga harakat qiladi. Arizachilar so'rovnomalarini ushbu 4 kun mobaynida ko'rib chiqilishini talab qilish huquqiga ega emas. Viza berilishini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida elchixonona hujjatlarni safar boshlanishidan kamida 7 kun oldin taqdim etishni tavsiya qiladi. Boshqa davlat fuqarolari yoki fuqaroligi yo'q shaxslarning arizalarini ko'rib chiqish muddati yuqorida qayd etilgan muddatlardan farq qilishi mumkin.



## IV NAZORAT ISHI

### ATAMALARGA MOS TA'RIFLARNI BELGILANG

1. Xalqaro huquq. 2. Ratifikatsiya. 3. Xalqaro hamjamiyat. 4. Internatsionalizm. 5. Suverenitet

a) Xalqaro va ijtimoiy guruhlarining xalqlar, millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o'zaro hamkorlik prinsipi

b) Davlatning ichki va tashqi ishlarda to'la mustaqil ekanligini anglatuvchi tushuncha

c) Davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga soladi

d) Jahonda mavjud davlatlarning hozirda insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatish birligini anglatuvchi tushuncha

e) Xalqaro shartnomaning vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi

Javoblar:

S	1	2	3	4	5
J	C	E	D	A	B

### NAZORAT ISHI SAVOLLARI I VARIANT

1. Xalqaro hamjamiyat qanday tarkibiy tuzilishga ega?
2. Davlatlar tenglik tamoyiliga amal qilmasa, qanday salbiy oqibatlariga olib keladi?
3. Xalqaro huquqning asosiy vazifasi nimadan iborat?

### II VARIANT

1. Xalqaro shartnomalar deganda nimalarni tushunasiz?
2. BMT qachon, qayerda va nima maqsadda tuzilgan tashkilot hisoblanadi?
3. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?





## GLOSSARIY

*Amaliy ishlar metodi* – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi metod.

*Axloq* – (lot. "moralis" – xulq-atvor) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlar yig'indisi.

*Aqliy tarbiya* – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

*Abstraktlash* – mavhumlashtirish orqali nazariy umumlashmalar hosil qilish.

*Aksiologiya* – qadriyatlar to'g'risidagi fan.

*Bashoratlash* – bo'lajak darsni tashkil etishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

*Bilim* – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

*Breynstorming* – o'quvchilarning ijodiy ishlarini hamkorlikda tashkil etishlariga oid maxsus metod.

*Dars jadvali* – o'quv rejasiga ko'ra, o'quv haftasining har bir kunida sinflar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq, ketma-ketligini belgilovchi hujjat.

*Didaktik o'yin* – o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

*Didaktik eksperiment metodi* – borliqni o'zgartirib, uning ichki qonuniyatlarini o'rganib, unga ta'sir etishning samarador metodlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot metodi.

*Dasturlashtirilgan ta'lim berish* – bu g'oya 1950-yillarda ilgari surilgan. Dasturlashtirilgan ta'lim berish asosini tartibga keltirgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o'zgartiruvchi dastur tashkil etadi.

*Evristik* – o'quvchilarda topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni.

*Eksperiment* (lot. experimentum – tajriba, sinab ko'rish) – fanda narsa va hodisalarni sezgi-predmet faoliyati bilan tadqiq qilish, o'rganish va kuzatishga qaraganda yuksakroq bilish metodi; muayyan ilmiy maqsadga erishishni ko'zlab o'tkaziladigan tajriba.

*Ekstern* – o'quv muassasasida ta'lim olmasdan, kurs bo'yicha imtihon topshiruvchi shaxs.

*Empirik metod* – tajriba-sinov metodikasiga ma'lum bo'lgan adabiyotlar, g'oyalar, tajribalarni o'rganib chiqish asosida tug'iladigan farazlar, modellar, bajarilishi kerak bo'lgan ishlar loyihasini sinab ko'rish va amaliy tatbiq qilish metodi.

*Enerjayzer (faollashtirish) mashqlari* – ta'lim jarayonining faollashtiruvchi metodlaridan biri. O'quvchilarda izlanuvchanlik, topqirlik xislatlarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'qitish metodi.

*Fenomenal xotira* – idrok qilingan narsa va xususiyatlarni, ularning bog'lanish munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishdan iborat nodir qobiliyat.

*Glossariy* – muayyan mavzuga oid atamalarni qamrab olgan kichik hajmli lug'at.

*Gipoteza* – o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

*Gnoselogiya* – bilish haqidagi ta'limot.

*Grafik organayzerlar* – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda vosita vazifasida qo'llasa, o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatsa, metod o'z vazifasini bajaradi.

*Ijtimoiylashuv* – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyatida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

*Innovatsiya* – sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati.

*Interfaol metodlar* – ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo'llanuvchi, o'quvchilarning o'zaro faollashuvlariga qaratilgan yo'l va metodlar yig'indisi.

*Jamoaviy monografiya* – yagona muammoni yoritishga bag'ishlab bir necha shaxs tomonidan yozilgan ilmiy asar.

*"Klaster" metodi* – o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga o'rgatuvchi metod; pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo(mavzu)lar

xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan metod.

*"Xaritagrafik tadqiqot" metodi* – vaqea-hodisalarni bilish, ilmiy tahlil qilish va oldindan aytib berish uchun tayyor geografik xaritalardan foydalanish metodi.

*Kichik guruhlarda ishlash* – kichik guruhlarni shakllantirish, guruhlar topshiriqlar berish, ko'rsatma berish va yo'naltirish; guruhlar taqdimoti; muhokama, tahlil va baholashdan iborat.

*Keys (ing. case – hodisa, shart-sharoit)* – amaliy muammolar ifodalangan o'quv materiallari yig'indisi.

*Keys metodi* – o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metod.

*Kognitiv* – shaxsning mustaqil fikrlash jarayoni.

*Kreativ testlar* – (lotin. creato – ijod qilish, yaratish) shaxsning ijobiy layoqatini o'rganish va baholash metodikalarini majmui.

*Kognitiv xarita* – muammoli vaziyatning xarakteri va tuzilmalarini belgilashga qaratilgan tadqiqot obyektidagi sabab-oqibat aloqalarining jadvali aksi.

*Kodlashtirish* – Kodlashtirish deb axborotni bir tizimdan boshqa tizimga ma'lum bir belgilar yordamida belgilangan tartib bo'yicha o'tkazish jarayoniga aytiladi.

*Kombinatsiyalashtirilgan innovatsiyalar* – ishlab chiqarish omillarini turli xildagi kombinatsiyalarda ishlatishga asoslanuvchi innovatsiyalar.

*Kommunikativ qobiliyat* – boshqalarning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdardlik munosabatida bo'lish asosida ta'lim va tarbiya bera olish qobiliyati.

*Kommunikativ qobiliyat* – muloqot o'rnatish, ta'sir qilish, ishontirish, dalillash, notiqlik layoqati.

*Kommunikatsiya* – kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvi.

*Kompetensiya* – ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilimlar, amaliy malakalar va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyati.

*Loyihalash metodi* – pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni bajarish jarayonida bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishni ta'minlovchi ta'lim shakli.

*Loyihalash* – oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

*Metodik kompetentlik* – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash.

*Metod* – tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish harakat qilish tarzi.

*Metodika* – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

*Metodologiya* – dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

*Muammoli o'qitish* – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida o'quvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

*Munozara* – faol ta'lim uslubi bo'lib, muhokama ma'lum muammo bo'yicha fikr almashinuv ko'rinishida o'tadi.

*Moderator* – (lotincha moderor – me'yorlashtiraman, tekshiraman) qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, o'quvchilarning qobiliyatlari ochilishiga, bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi.

*Nutq qobiliyati* – shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati.

*Nutqning vazifalari* – nutq vositasida bolaning his-tuyg'ulari, o'quvchilar orasida muloqot olib borish, olingan ma'lumotlarni ongli tahliliy idrok etish.

*Semantika* (yunoncha "semantikos" – ifodalovchi, bildiruvchi) – tilshunoslikda til birliklarining ma'nosi, so'zning semantikasi.

*Ta'lim* – o'qitishning mahsuli bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka va tafakkur metodlari tizimi.

*Ta'lim vositalari* – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar.

*Ta'lim shakllari (forma – lotincha – tashqi ko'rinish)* – o'quv jarayonining mavjudligi, uning ichki



maohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

*Tarbiya texnologiyasi* – tarbiya natijalariga asoslanib tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakli, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

*Uslubiyat* – til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional, uslubiy, emotsional-ekspressiv bo'yog'i, shuningdek, nutqda til vositalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llash haqidagi ta'limot.

*Zehn* – idrok, fahm, xotira, tushunish qobiliyati.

*O'qitish metodikasi* – pedagogika fan va amaliyotining bir qismi bo'lib, o'quvchining o'quv fani mavzularini qabul qilishi va uni amaliyotda qo'llashiga oid qonuniyatlar (bayon qilish va o'zlashtirish) tatqiqi bilan shug'ullanadigan fan.

*Ta'limning faol usullari* – ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini kuchaytirish usullari. Asosan u yoki bu muammoni yechish yullarini izlashda taxminiy erkin fikr almashish asosida ko'riladi. Keng tarqalgan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ta'limning faol usullariga quyidagilar kiradi: suhbat, munozara, ta'limiy o'yinlar, "keys-stadi", loyihalash usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar.

*Interfaol ta'lim* – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta'lim.

*Interfaollik* – ta'lim doirasida prinsipial yangi hodisa – shu tufayli ta'lim oluvchi:

– ta'lim jarayonining hamma subyektlari bilan faol o'zaro harakatda bo'lishi, faqatgina o'qituvchi bilan shaxsiy munosabat yo'lidagina emas, balki boshqa o'quvchi-talabalar, ma'muriyat bilan hal qila olishi mumkin;

– multimedia obyektlarini tahlil qilish jarayonida ularning mazmunini, shaklini, o'lcham va ranglarini dinamik ravishda boshqarishni, turli tarafdin ularni kuzatishni, boshqa shunga o'xshash manipulyatsiyalarini qayta ta'minlashni, ko'proq aniq ko'rsatuvga erishish uchun xohlagan joyidan to'xtatib va davom ettira olish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, interfaollik faqatgina axborotlarni passiv qabul qilish uchungina emas, balki o'rganilayotgan obyektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning o'zaro harakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadqiq qilish uchun ham imkoniyat yaratib beradi.

Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi.

*Tarmoqlar metodi* – o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

*"3x4" metodi* – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

*Blits o'yin metodi* – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

*Intervyu texnikasi* – o'quvchi-talabaga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

*Iyerarxiya texnikasi* – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

*Bumerang texnikasi* – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yodda saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

*Muloqot texnikasi* – o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etishni, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

Boshqaruv texnikasi – o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqaruv usullari bilan tanishtiruvchi va shuni o'rgatishga qaratilgan.

### Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni. – Toshkent // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.
2. M.Pardaeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent: 2020.
3. M.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2016.
4. Internet materiallari: <https://edunews.ru/onlajn/info/distacionoe-obuchenit-v-schole.html>.
5. B. Xodjaev. Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi?. Ma'rifat. – Toshkent: 2018.
6. Созонова С. Д. Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. – Чита: 2018. – S. 95-98.
7. Sh. Sattorov. Biz g'alaba qozonamiz. – Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2018.
8. Xodjaev B. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2016. – B. 8, 11–12, 50, 77, 80–82.
9. Vaxobov M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – T: 2016. – B. 5, 11, 15.
10. Safarova R va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi // Fan va texnologiya. – Toshkent: – 2014. – B.13.
11. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. dok. ... diss. – Toshkent: 2017. – B. 7.
12. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. Huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2001. – 560 b.
13. Axunova G. N., Golish L. V., Fayzullaeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2009. 155 bet.
14. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. (tuzuvchilar: N. A. Muslimov, M. Usmonboeva, M. Mirsolieva) – Toshkent: 2016-y. 227 bet.
15. Olimov K. D. "Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. 2015-y. 81 bet.



Respublika  
Ta'lim Markazi

Davlat va huquq asoslari 10 [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma //  
X. Tuychiyeva [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. – 160 b.

ISBN 978-9943-8826-6-9

UO'K 342(072)  
KBK 67.400

*O'quv nashri*

# DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma*

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*

Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*

Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*

Rassom *Mirkomil Jurayev*

Dizayner *Mirjalol Ashurov*

Sahifalovchi *Farrux Yuldoshev*

Musahhih *Xurshid Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi 16.11.2023. Bichimi 60x84 1/8.

Arial garniturası. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i 18,60. Nashriyot-hisob tabog'i 18,96.

Adadi 22 539 nusxa. Buyurtma № 101.



“Mehr-Muruvvat Elchisi” MCHJ buyurtmasi asosida chop etildi.  
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, Ma'rifat MFY, Mustaqillik r/z  
Tel: +99899 555-21-00